

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK \_\_\_\_\_

**Xusainova Laylo Ikramovna**

**Mavzu: Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari**

**5 A 120102 - Lingvistika (o‘zbek tili)**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

# **DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**prof. Z. Do‘simov**

**Urganch – 2017**

## MUNDARIJA

|                                                                  |           |
|------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                               | <b>3</b>  |
| <b>I BOB. NOMSHUNOSLIK MUAMMOLARI.....</b>                       | <b>8</b>  |
| I.1. O‘zbek onomastikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi..... | 11        |
| I.2. Atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi.....              | 13        |
| I.3. Nomshunoslik va boshqa fanlar.....                          | 20        |
| <br>                                                             |           |
| <b>II BOB. Atoqli otlarning leksik-semantik guruhlari.....</b>   | <b>26</b> |
| II.1. Toponimlar.....                                            | 26        |
| II.2. Antroponimlar.....                                         | 34        |
| II.3. Etnonimlar.....                                            | 49        |
| II.4. Hidronimlar.....                                           | 55        |
| II.5. Boshqa turdagi onomastik birliklar.....                    | 63        |
| a) Fitonimlar.....                                               | 63        |
| b) Zoonimlar.....                                                | 66        |
| d) Kosmonimlar.....                                              | 69        |
| e) Teonimlar.....                                                | 72        |
| <br>                                                             |           |
| <b>III BOB. Atoqli otlarning grammatik guruhlari.....</b>        | <b>75</b> |
| III.1. Atoqli otlarning grammatik xususiyatlari.....             | 75        |
| III.2. Atoqli otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.....           | 81        |
| <br>                                                             |           |
| <b>XULOSA.....</b>                                               | <b>91</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>                            | <b>94</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyoda nimaiki, mavjud mo'jizalar bor, bari-barisi parvarishga asrab-avaylanishga muhtoj. Bevosita til ham. Bunda eng katta mas'uliyat tilshunoslar zimmasiga yuklanishi, tabiiy. Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimov ham aynan shuni nazarda tutib "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida quyidagi fikrlarni keltirib o'tganlar: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur"<sup>1</sup>. O'zbek tilshunosligida yangi paydo bo'lgan va jadal rivojlanishga yo'l tutgan sohalaridan biri o'zbek onomastikasidir. Atoqli otlar paydo bo'lishi, mohiyati va vazifalariga ko'ra xalq ma'naviyati, mafkurasi madaniyati bilan zich bog'langan lug'aviy qatlamdir. Chunki joy nomlarida o'zbek xalqining o'tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy falsafiy qarashlari, etnografik diniy tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda nomlar xalqning madaniy, ma'naviy, lisoniy merosidir. Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"<sup>2</sup> - degan fikrlari o'lkamizdagi nomlarni tadqiq qilish uchun ham tegishlidir. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi nomshunoslik sohasida anchagina jiddiy ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlar haqida monografik tadqiqotlar, ilmiy-ommabop maqolalar ham e'lon qilindi. Atoqli otlarning materiallarini to'plash va o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarix, etnografiya, geografiya, madaniyat tarixi va boshqa bir qator fanlar uchun ham qimmatli materiallar beradi. Atoqli otlarning o'ziga xos ba'zi lisoniy tomonlari borki, ular umumadabiy til va dialektal muhit, adabiy norma va regional (mintaqaviy) mezon doirasida hal qilishni talab qiladi. Atoqli

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. "Юксак маънавият енгилмас куч". Тошкент, 2009.

<sup>2</sup>Karimov I.A. "Ўзбекистон ўз истиқлол тараққиёт йўли". Тошкент, 1992.

otlarning imloviy xususiyatlari ham mana shu masala doirasiga kiradi. Ma'lumki, atoqli otlarning lug'aviy asosini turdosh so'zlar tashkil qiladi. O'tgan davr ichida joy nomlari, o'zbek ismlari va etnonimiyasini o'rganish bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirildi. Ushbu sohada qilingan ilmiy tadqiqotlarning salmog'i ortib bormoqda. Z.Do'simov, E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, B.O'rinboyev, N.Oxunov, T.Ernazarov, X.Xolmo'minov, S.Naimov kabi olimlarning tadqiqotlari o'zbek onomastikasi rivojiga qo'shilgan munosib hissadir. Atoqli otlar alohida, yakka holda olingan narsalar, jufrofiy obyektlar, hodisalar uchun berilgan maxsus nomlardir. Agarda turdosh otlar narsa va hodisalar haqidagi tushunchasini umumlashtirib, mujassamlab atasa, atoqli otlar yakkalab, bir-biridan ajratib farqlab ataydi. Daryo so'zi o'zbek tilida har qanday barcha daryolarning umumiy nomidir, ammo, Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Oqdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo so'zlari esa alohida daryolarning atoqli otlaridir. Ko'rinadiki, atoqli otlarning asosiy vazifasi bir turdagi narsalar, joylar, o'rinlarni bir-biridan farqlash, ajratishga xizmat qiladi. Har qanday tilning ma'naviy boyligini, negizi va nafosatini undagi so'zlar belgilaydi. Shu sababli so'zlarni barcha mutafakkirlar javohirlarga, marvarid va durlarga qiyos qilishadi. Har bir tilning qanchalik boy va serqirraligi, birinchi navbatda, so'zni miqdori bilan belgilanadi. Tilshunoslikda atoqli otlar sohasining o'rganilishi ham hozirgi kunda dolzarb masalalardandir. Obyektlarga atab qo'yilgan nomlar nafaqat muayyan joyning tarixi haqida o'zida ma'lumot tashiydi, shu bilan birgalikda lingvistik element sifatida ham xalqning tarixiy madaniyati va ma'naviyati haqida guvohlik beradi. O'zbek nomshunosligi o'tgan asrning 2-yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohasiga aylandi. Birinchi prezidentimiz I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida keltirilgan quyidagi fikrlari yana bir bor buni tasdiqlaydi: "Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar shior va lavhalarni ko'rib bularning barchasini odatiy hol sifatida qabul qiladi. Tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi

ko‘chalarning nomlarini o‘qib beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz. Lenin, Marks, Lopatin, Kirov, Voroshilov shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dahriylari bo‘lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo‘ymagan bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turar joy mavzelari “S1”, “S2”, ”S15” degan odamda hech qanday his-tuyg‘u, xotira uyg‘otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik. Ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarning salmog‘i ortib bormoqda. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida atoqli otlarni jiddiy o‘rganishni boshlab bergan olimlardan Z.Do‘simov, ”Xorazm toponimlari” bo‘yicha E.Begmatov hamda uning shogirdlari sanaladi. Onomastika, ya’ni atoqli otlarning nazariy masalalariga geografik obyektlarni hududiy jihatdan tadqiq etishga bag‘ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo‘ldi. Doktorlik nomzodlik ishlari qilindi. Ushbu sohaning yirik tadqiqotchilari maydonga keldi. O‘zbek nomshunosligi oldida asta-sekin tarixga aylanayotgan, unutilayotgan o‘zbek ismlari majmuasini iloji boricha to‘liq to‘plash, ularni ilmiy tahlil qilish, ismlarning izohli lug‘atlarini tuzish, ularning yuzaga kelishi, berilishi bilan aloqador rasm-rusumlar, odatlar, an’analarni o‘rganish va ilmiy jihatdan umumlashtirishdek g‘oyat muhim vazifalar turibdi. Tilimizning boshqa lug‘aviy boyliklari kabi o‘zbek ismlari, familiyalari ham ma’lum e’tibor va g‘amxo‘rlikka muhtojdir.

**Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari.** Onomastik birliklarni ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra tasnif qilish. Maqsadni bajarish uchun nomlarni grammatik-leksik xususiyatlarini tadqiq qilish.

Ishimizda quyidagilar haqida yetarlicha ma’lumot berish.

- nomshunoslik muammolari
- o‘zbek onomastikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi
- atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi
- nomshunoslik va boshqa fanlar
- atoqli otlarning leksik-semantik guruhlar

– toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, kosmonimlar, teonimlar.

– atoqli otlarni leksik-grammatik guruhlariga ajratish masalalari

– atoqli otlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini o‘rganish.

– atoqli otlarni guruhlariga ajratish masalasi.

– atoqli otlarning grammatik xususiyatlari

**Ishning metodologik asoslari va tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda atoqli otlarning leksik-grammatik va xususiyatlarini tavsifiy, qiyosiy-tahlil usullarda, tarixiy, sinxron va diaxron yo‘nalishda o‘rganildi.

**Dissertatsiya mavzusining yangiligi.** Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlariga ajratish masalalari uning xususiyatlari atoqli otlarning grammatik tuzilishi yirik ilmiy planda har xil metodlar asosida leksik guruhlari atoqli otlarning tadqiqini ochib berish ishning yangiligidir. Hali o‘zbek tilshunosligida atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari mukammal ishlanmagan tadqiq qilinmagan. Namlarning tarkibiy o‘rganish funksiyasi vazifa jihatdan o‘rganish yetarli darajada emas. Tadqiqot ishi o‘zbek onomastikasida mavjud bo‘lgan qarashlarga muayyan darajada aniqlik kiritadi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya xulosalari o‘zbek onomastikasida mavjud bo‘lgan qarashlarga muayyan darajada aniqliklar kiritadi. Tadqiqot natijalari ilmiy amaliy ahamiyatga ega uning natijalari oliy o‘quv yurtlarda, o‘qituvchilarni malakasini oshirish institutlarida, kollej va litseylarda maktablarda mutaxassislik bo‘yicha maxsus treninglarda qo‘llanishi mumkin. Dissertatsiya materiallari tobora yuksalib borayotgan o‘zbek onomastikasi fanining rivojida aniq ma’lumotlarga asoslangan faktlar sifatida ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti va obykti.** Ishimiz obykti o‘zbek tilidagi atoqli otlarhisoblanib, predmeti shu namlarning leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlash. Leksik xususiyatlari onomastik birliklarning predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqot ishining rejalanihi va ma’qullanishi.** Dissertatsiya mavzusi o‘zbek tilshunosligi kafedراسi tomonidan 2015-2016 o‘quv yilida monografik

tadqiqot sifatida tavsiya etildi va ma'qullanib, Urganch davlat universiteti rektorining 2015-yil 2-fevral 2-M buyrug'i bilan tasdiqlandi. Ishga o'zbek tilshunosligi kafedrasida professori Z.Do'simov ilmiy rahbar qilib belgilandi.

Mavzu bo'yicha ishlar 2015-2016 yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasida olib borildi. Ishning borishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bir necha marta muhokama obyekti bo'ldi.

**Ishning joriylanishi.** Ish UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida amalga oshirildi. Ishimiz o'zbek tilshunosligi kafedrasida hamda magistrantlar kengashi yig'ilishida muhokama qilinib, ijobiy baholangan. Tadqiqotning asosiy mazmuni "Iste'dod ziyosi", "Tafakkur ziyosi" kabi ilmiy to'plamlarda hamda "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" ilmiy-nazariy seminar va anjumanlarda o'qilgan ma'ruza va maqolalarda o'z aksini topgan.

**Tadqiqot ishning tuzilishi va umumiy hajmi.** Dissertatsiya kirish 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 98 sahifadan iborat.

## I BOB. NOMSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Insoniyat hayotida nomsiz bir narsani ikkinchi bir narsadan farqlab bo'lmaydi. Odatda, hamma narsaning o'z nomi bo'lgani uchun shu nomi bilan aytilishi shart. Xuddi shu ma'noda nom(lar) odamlar uchun yo'l ko'rsatuvchi kompas vazifasini o'taydi. Mutaxassislar maxsus qurilma bo'lgan kompasdan adashib yanglishib ketmasligi uchun qaysi tomon janub qaysi tomon sharq ekanligini bilib turish uchun ishlatsalar, odamlar esa nomlarni o'zaro munosabatda bo'layotgan kishilarning kimligini, qayerda, nimada turgani va qanday atalgani kabi narsa-vositalarni aniq bilishlari uchun ularning ismi, familiyasi, laqabi taxallusi va nisbalarini, qabila urug' hamda xalq nomlarini, joylarni, gidronimlarni osmon jismlarini, o'simliklarni hayvonot dunyosi hamda muchal nomlarini va boshqa narsa-hodisalardan ajratib, topib olish uchun esa ularning qanday so'zlar bilan qay tarzda aytilishi va atalganligini bilish mumkin. Buning uchun esa kishilarni nom, nomshunoslik, nom qo'yish, shaxsning yoki aholining xohish-istagi bilan nomlarni almashtirish, to'g'ri, aniq aytish va yozish, nomlash muammolari bilan tanishtirish lozim. Xalqimiz qadimdan madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faoliyatlarida jonli hamda jonsiz narsalarni nomlashga va umuman, narsa hodisalarni, shuningdek, kishilarni nom bilan atab chaqirishda qo'llanadigan nomlarga e'tibor berib kelgan. Bu haqdagi ma'lumotlar bugungacha saqlanib qolgan mavjud ilmiy va tarixiy manbalardan ayon. Kishilar o'zaro muloqotga kirishish uchun, albatta, odamlarni ham narsa-hodisalarni ham va umuman, butun bir borliqni ma'lum bir me'yordagi nomlar bilan atab, bir-biridan farqlashga harakat qilishgan. Natijada nomlarda xalqimizning milliy an'ana va milliy qadriyatlari o'z-o'zini qoldira olgan<sup>1</sup>. Antroponomik fondning kamayib ketishi ham nomshunoslik muammolaridan biri. 1. Ba'zi an'anaviy o'zbekcha ismlarni "xunuk" eskicha nom hisoblash va bolaga chiroyli zamonaviy ismlar berishga intilish. 2. Ismlarning bir qator mahalliy dialektal shakllaridan kechilmoqda. Barcha territoriyada chiroyli va zamonaviy hisoblangan ismlar kirib

---

<sup>1</sup>БегматовЭ. Ономастика Узбекистана. Т., "Ўқитувчи", 1987, 92-б.

bordi.3. Ismlarning bir qator erkalash-kichraytirish va qisqargan shakllari kamayib boryapti. Rasmiy jihatdan ismlarni to'liq variantda aytish va yozish qoida bo'lib qolgan. O'zbek ismlari tuzilish strukturasiga ko'ra soddalashdi. Bolaga qo'shma ismlarni qo'yish ancha kamaydi. Ismlarning miqdoran kamayishiga bolani nomlashning ba'zi bir qadimiy an'analardan voz kechish ham sabab bo'lgan. Bulardan ikkalasi aniq seziladi. Marhum o'tmish ota-bobolar ismini yangi tug'ilgan bolaga berish odati endilikda deyarli unutilyapti. Antroponimik fondning kamayishi tilda bir xil o'xshash ismlarning ko'payishiga shaxslarni ism berish orqali o'zaro farqlash imkoniyatining susayishiga olib keladi. Bu salbiy albatta. Insonlar orasida bolaga nom berishda sodda kam so'zlar qatnashgan qulay ismlar qo'yish qo'shma so'z qatnashgan ismlar ham asta urfdan qolmoqda. Bolaga hozirgi kunda vatanimizning qaysi nuqtasini olib qaramang diniy va zamonaviy ismlar qo'yish odatga tusiga kirgan. Mubina, Muhammad, Odina, Ominaxon, Amiriddin, Malika, Amiraxon, Hadichaxon Oyshaxon, Mirvoris, Mirali, Biloliddin, Solihaxon bunday ismlar milliy mentalitetimizga mos lekin chetdan kirib kelgan noodatiy ismlar esa milliy qadriyatlarimizga o'zligimizga milliy an'analарimizga mos kelmasligi mumkin. M: Jumong, Esmeralda, Margarita, Luiza, Tangem, Hamlet, Marsel. Onomastika tarix, etnografiya, arxeologiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqador. Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri tabiatni muhofaza qilishning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'simliklar dunyosini muhofaza qilishdir. 1. Respublikamiz florasі rang-barang bo'lib, o'simliklarning miqdori 4500 tani tashkil etadi. Ularning 200 mingdan ziyodi yem-xashak, 1000 tasi bol beruvchi, 700 tasi dorivor, 530 tasi bo'yoqli, 660 tasi efir moyli, 350 tasi ozuqabop, 270 tasi xushbo'y ziravor, 450 tasi teri oshlovchi o'simliklar sanaladi<sup>1</sup>. 2.O'simliklarning 12 foizi muhofazaga muhtoj 3.1991- yili O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga o'simliklarning 163 tasi kiritilgan. 4. 1999-yilga kelib ularning soni 301

---

<sup>1</sup>Пазлиддинова Н."Фитоним, фитонимия, фитонимиканинг назарий масалалари".Урганч , 2014 ,43-б,Илм сарчашмалари 12-сон.

taga yetdi. Bu tashvishli holat albatta. Sababi, kamyob yo‘qolib borayotgan o‘simliklar, butalar daraxtlar bilan birgalikda ularning nomlari ham iste’moldan butunlay chiqib ketyapti. Shu bois ekofitonimlarning xususiyatlarini tadqiq qilish, ularni yosh avlodga o‘rgatish nafaqat ekologiyaning, balki zamonaviy tilshunoslikning o‘tkir muammolaridan biri. O‘zbek tilidagi atoqli otlarning ba’zi tiplari shu kunga qadar deyarli o‘rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geonimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, onomastik birliklarning amaliy transkripsiyasi va transliterasiyasi nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan onomastik leksikografiya muammolari kiradi. Bundan tashqari kishi ismlarini buzib qisqartirib aytish qo‘pol qilib turli laqablar qo‘yish urfga kirgan. Albatta bu holat insonlarning madaniyati saviyasi axloq doirasi bilan bog‘liq holda o‘lchanadi. Muhammaddiyor - Maddi, Botir-Borya, Gulchehra-Gulli, Muqaddas- Miqish, Otabek-Otik, Nodira-Noddi, bu misollarni yana davom ettiraverish mumkin bunday qisqartirib yoki asl nomlarni buzgan holda talaffuz qilish shaxsning jamiyatdagi obro‘yi uchun ham salbiy holatdir. Ism, familiya ota ismiga e’tibor chaqaloqqa ism tanlashdan va bu nomni tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma (metrika) ga yozishdan boshlanadi. Ba’zan bolaga berilgan ismi sharifning imlosiga ota-ona ham, fuqarolik holatlarini qaydlov hujjatlari idoralari, ya’ni ZAGS xodimlari ham loqayd qaraydi. Natijada imlosi buzib yozilgan ism, familiya ota ismi keyinchalik kishining pasportiga va boshqa hujjatlariga ham o‘tadi. Xato yozilgan ism yoki familiyani to‘g‘rilash unchalik oson ko‘chmaydi. Chunki, buning ham o‘ziga xos ba’zi rasmiy va huquqiy muammolari bor. Zotan kishi nomlarini to‘g‘ri yozish ismlarimizga e’tibor va g‘amxo‘rlikning muhim omilidir. Ismning yozilishi bilan ism uchun asos bo‘lgan so‘zning yozilishiga e’tibor bersak, ular biz o‘ylagandek doimo mos kelavermaydi. Masalan, Tursun (ism) – tursin (fe’l), Unsin (ism) – unsin (fe’l), Turg‘un (ism) – turgin (fe’l) va boshqalar. Ismlar yozilishida kuzatiluvchi bunday istisnalar

anchagina. Bugina emas, shu vaqtga qadar o'zbek kishilarining ismi sharifi shaxsiy va rasmiy hujjatlarda asosan, rus tilida yozib kelindi va amalda nomning ruscha imloviy shakliga ustunlik huquqi berildi. Buning ustiga o'zbekcha ism va familiyalarning ruscha yozilishi ilmiy jihatdan ishlanmaganligi, bu masalada qoida va qo'llanmalarning o'ta ozligi tufayli ko'p holda nomlar tavakkaliga va asosan ruscha talaffuzga moslangan holda yozildi. O'zbekcha ismlarning ruscha imlosida anchagina munozarali o'rinlar bor. Nomlar imlosining ruscha shakliga ustunlik berish shunga olib keldiki, hattoki o'zbekcha rasmiy matnlarda, o'zbek tilidagi adabiyotlarda va matbuot sahifalarida ham ba'zi nomlarning ruscha shaklini saqlash odat tusiga kira boshladi. Bu qo'pol xatolik o'zbek ismlari milliy imlosining yanada buzilishiga olib keldi.

### **I.1. O'zbek onomastikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Antik davrdan buyon atoqli otga filosoflarning nazariy-yondashuvi to'xtagan emas, lekin faqatgina XIX asrda nazariyotchilar atoqli otlarga onomastika nuqtai nazaridan yondashdilar. So'nggi yillarda atoqli otlar tarkibida psixolingvistika, nerolingvistikaga xos yo'nalishlar ham chuqur o'rganilmoqda. Atoqli ot til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlardan kelib chiqqan. Qadimiy tillarda atoqli otlar bo'lmagan deyiladi. Avstraliya, Afrika, Amerikaning tub joy xalqlari-aborigenlar tillarida atoqli ot juda kam.

O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o'z maqsad vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi<sup>1</sup>. Mana shu davrda paydo bo'lgan va rivojlanishga yuz tutgan yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi. Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar bor. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda

---

<sup>1</sup>Топонимика ва ономастика. Нукус. 2012.

to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar Z.Do'simov, H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek nomshunosligi ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika kosmonimika sohalari jadal rivojlandi. O'zbek nomshunosligining paydo bo'lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o'ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivoji va takomiliga sabab bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Natijada o'zbek onomastikasining tadqiq yo'nalishlari yanada kengaydi va oshdi. Atoqli otlarning paydo bo'lishi, rivoji ko'pgina lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liqdir. Shu sababli atoqli otlar tadqiqotchisi nomlarni tahlil qilishda tilshunoslikdan tashqari boshqa fanlarning ilmiy usullaridan ular erishgan yutuqlardan foydalanadi. Ushbu hol onomastika sohasining boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan munosabatini yuzaga keltiradi. Ushbu munosabatni quyidagilarda aks etganini ko'rish mumkin: nomshunoslik va leksikologiya, etimologiya, dialektologiya, geografiya, lug'atshunoslik, leksikografiya, tarix, kartografiya, onomastik statistika kabi. Antik davr olimlari barcha nomlarni onuma atamasi ostida birlashtirgani holda, onumani umumiylik va individuallik belgisi ostida atoqli va turdosh otlarga ajratgan edilar, shundan buyon onuma (onimiya) bilan turli fan vakillari qiziqib keldi. XX asrning 30-yillaridan lingvistika fani tarkibida onomastika alohida tarmoq sifatida shakllandi hamda onomastikaning umumiy nazariyasi va xususiy voqealanishlariga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, onomastika sohasi bilan bog'liq bir qator yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. O'zbek tilshunosligida yaqin yillarga qadar atoqli otlarni til sistemasiga kiritishga shubha bilan qaralar, shuning uchun ularni leksema sifatida lug'atlarga kiritilmas edi. O'tgan asrning 50-60-yillaridan

boshlab onomastik tadqiqotlarning erishgan yutuqlari natijasida onomastik leksika umumiy leksik sistemaning tarkibiy qismi, o'z navbatida, o'ziga xos sistema ekanligi e'tirof etildi. Ma'lumki, mashhur toponimist V.N.Toporov ma'lum bir tilning toponimlar majmuasini ifodalash uchun toponimik ko'lam atamasini ishlatgan bo'lsa, keyinroq A.V.Superanskaya yuqoridagi fikrga ergashgan holda onomastik ko'lam atamasini qo'llaydi. 1. Onomastik ko'lam ma'lum xalq tomonidan real, faraziy va afsonaviy obyektlarni nomlash uchun qo'llaniladigan atoqli otlarning majmuasidir. Onomastik ko'lam shu xalq tasavvurida mavjud bo'lgan olam modeli, olam nazariyasi bilan belgilanadi. Mazkur yo'nalishda o'zbek tilshunoslaridan prof.Z.Do'simov, E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, N.Husanov, N.Uluqov, T.Ernazarov kabi olimlarning qator tadqiqotlari maydonga keldi. 2.Xususan, Y.Avlaqulov onomastik birliklarni birlashtirish maqsadida onomastik ko'lam tushunchasidan foydalangan holda, o'zbek onomastik birliklarining sistemaviy tabiatini yoritishni bosh maqsad qilib olgan. Toponimik gidronimik birliklar onomastikaning tarkibiy qismidir. Jumladan, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida bir qancha, toponimik, gidronimik obyektlar borki, bu obyektlarning nomlanishi, shu hududda yashaydigan xalqning olamni o'ziga xos ko'rishi obrazli tavsifi natijasida maydonga kelgan. Quva shahri yonida Karkidon suv ombori joylashgan. Karkidon deb nomlanishiga shu yerlik aholining suv havzasi shaklini karkidon hayvoniga o'xshatishi asos bo'lgan. O'zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o'zni katta. Masalan, 1974-yilda Buxoro shahrida "O'rta Osiyo onomastikasining dolzarb muammolari" mavzusida butunittifoq ilmiy anjuman o'tkazilgan edi. O'zbek onomastikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi hozirgi zamonaviy tilshunoslikning yuqori cho'qqisiga ko'tarildi.

## **I.2.Atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi**

Tadqiqotchilarning fikricha, har qanday tildagi atoqli otlar soni o'sha tildagi oddiy so'zlarning miqdoriga nisbatan bir necha bor ortiq. Atoqli otlar odatda bosh

harf bilan yoziladi ammo arab grafikasiga asoslangan tarixiy yozuvlarda hatto lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining dastlabki davrlarida atoqli otlar boshqa oddiy so'zlar qatori kichik harf bilan yozilgan. Atoqli otlar haqidagi olim qarashlari B.G. Gak "Teoricheskaya grammatika fransuzskaya yazika" asarida atoqli va turdosh otlarga quyidagicha ta'rif beradi: Otlar buyumlarning turlarini agarda har bir buyum uchun atoqli ot talab qilinganda edi til mavjud bo'lmagan bo'lar edi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida atoqli otlarni jiddiy o'rganishni boshlab bergan olimlar prof. Z.Do'simov, E.Begmatov, S.Qorayev, T.Nafasov, E.Begmatov. E.Begmatov XX asrning 60-yillari boshlarida kishi ismlari yuzasidan filologiya fanlari nomzodligi uchun yozgan ilmiy ishida o'zbek tilshunosligida antroponimlarni tadqiq etish lozimligini ilmiy-nazariy planda asoslay oldi. Ushbu olimning qariyb qirq yillik izlanishlari va bir qator ilmiy tadqiqotlari kitoblar sifatida nashr etilgan. Shulardan biri 1998-yilda nashr etilgan "O'zbek ismlari 14600 ismlar izohi" nomli lug'ati bu sohada salmoqli tadqiqotlardan biri. "Nashriyotdan", "Lug'atning tarkibi va tuzilishi", "Asosiy qisqartmalar", "Shartli belgilar", "Alloh ismlari", "Ismlarning izohli lug'ati", "O'zbek ismlarining etnografiyasi" nomli qismlardan tashkil topgan. O'zbeklarning nom (ism) qo'yish odatlari, undagi yetakchi an'ana va tendensiyalar esa O'zbekiston Respublikasining butun hududida bir emas. Bugungi kunda ham o'zbeklarning hududiy va viloyatlar bo'yicha antroponimiyasi deyarli tadqiq etilgani yo'q. Tilshunoslikda atoqli otlar sohasining o'rganilishi ham hozirgi kunda muhim masala. Obyektlarga atab qo'yilgan nomlar nafaqat muayyan joyning tarixi haqida o'zida ma'lumot tashiydi. Shu bilan birgalikda, lingvistik element sifatida ham xalqning tarixiy madaniyati va ma'naviyati haqida guvohlik beradi. Onomastika ya'ni atoqli otlarni nazariy masalalariga geografik obyektlarni hududiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo'lmoqda, doktorlik va nomzodlik darajasida dissertatsiyalar yozilmoqda. Lekin shunday bo'lsa ham ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish tahlil qilish tilshunoslar

oldidagi muhim vazifalardan. O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya semasiologiya sohalaridan o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra farqlovchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda ancha qiziqarli fikrlar bor. Bugungi kunda Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, M.Koshg'ariy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, Abu Tohirxo'ja, Nodira, Uvaysiy Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Munis, Xorazmiy, Ogahiy kabi allomalar va olim ijodkorlarning o'zlari yashagan davrdagi nom va nomlash jarayoniga kishi nomlari hamda ular asarlarining nomlanishiga samimiy sodda munosabat bildira olishgani uchun ham ularni o'z davrlarining nomshunoslardan deyish mumkin. Hozirgi vaqtda V.V.Radlov, Herman Vamberi E.M.Pospelov, A.N.Kononov, U Tursunov, Sh. Rahmatullayev, N.Rajabov, A.Ishayev, R.G'ulomov, M.Mirtojiyev, Sh. Kamoliddinov kabi tarix, tilshunoslik geografiya fanlari olimlarining ilmiy ishlariga ayni vaqtda ilm-fan ahllari e'tibor berishyapti. Bugungi kunda ham o'zlarining amalga oshirgan hamda davom ettirayotgan tadqiqotlari bilan "O'zbek tilshunosligi"ni ham "Nomshunoslik masalalari"ni ham ilmiy-nazariy tadqiq etib, yana ham mukammallashtirgan Z.Do'simov, E.Begmatov, H.Hasanov, A.Muhammadjonov, A.Sa'dullayev, R.X.Sulaymonov, Z.Choriyev, E.Fozilov, D.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, T.Nafasov, S.Qorayev, B.O'rinboyev, I Jabborov, H.Qudratullayev, B.Bafoyev singari tilshunoslik, geografiya, tarix, geologiya kabi fan sohalarining olimlari "Nomshunoslik masalalari" shuningdek, "O'zbek nomshunosligi" sohasining turli bo'limlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bugungi kungacha nomshunoslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar shaklida bo'lgan. Onomastika atamasi ko'proq Yevropa shuningdek, rus, qozoq, ozarbayjon, qirg'iz, tatar, turkman olimlarining tadqiqotlarida bayon etilgan. Dastlab rus tili instituda, asta-sekin sobiq ittifoqning til va adabiyotni tadqiq qiluvchi instituda onomastika bo'limlari hatto onomastika

markazlari ochildi. Ular milliy tillar leksik tizimidagi atoqli otlarni to‘plash va o‘rganishga kirishdi. Chet ellik tilshunoslar atoqli otlarning ma’nosi masalasida 5 xil qarashni ilgari surishadi:

1. Atoqli ot ma’no ifodalamaydi, lug‘aviy ma’noga ega emas.
2. Atoqli ot ham ma’noga ega, uning ma’nosi yakka individual narsa bilan bog‘liq.
3. Atoqli ot ham ma’noga ega, bu ma’no turdosh ot ma’nosidan boy.
4. Atoqli ot ham ma’nosini nomning qo‘llanishdagi holatidan kelib chiqib baholash kerak.

5. Atoqli ot ifoda qiluvchi ma’no konkretdir, turdosh ot ifoda etuvchi ma’no mavhumdir. N.I.Tolstoy atoqli otlar ma’nosi masalasini maxsus tadqiq qilib quyidagi xulosaga keladi: “Atoqli ot qandaydir, bir xil noma’lum xabarni tashiydi buni atoqli ot ma’nosi semantikasi bilan qarshilantirmaslik kerak”. A.B.Superanskaya yozishicha, Atoqli ot aniq obyektga bog‘liqligi, o’sha yakka obyektga zid asosiy egaligi bilan xarakterlanadi. Qadimgi yunon faylasuf-stoiklarining atoqli otlar ma’noga ega, hatto boy ma’noga ega deyilgan qarashlarini XIX asrda X.Dozeif rivojlantirgan. Ushbu nuqtai nazarga O.Espersen, M.Brayevlar ham qo’shilganlar. O.Espersen yozadi: “Atoqli otlar turdosh otlardan ko‘ra ko‘p belgi anglatadi”. Onomastika-yunoncha nomlash, nom qo‘yish san’ati. Tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek barcha atoqli nomlar yig‘indisi<sup>1</sup>. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponomika ma’nosida ham qo‘llangan. Nomshunoslikda biron-bir tildagi atoqli otlarning barcha ko‘rinishlari majmui “onomastik ko‘lam” deyiladi. Atoqli ot biron obyektни boshqa obyektlardan farq qilish xizmat qiladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasi. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Hozirgi vaqtga kelib atoqli otlarni deyarli hamma tarmoqlarida faol tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma’lumki, o‘zbek tarixiy onomastikasi, o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy

---

<sup>1</sup>Электрон таълим ресурслари.

bitiklar (tarixiy asarlar, memuarlar, axloq-odobga, falsafa va diniy e'tiqodga bag'ishlangan qo'lyozmalar, Xiva, Qo'qon, Buxoro va boshqa xonliklarning yozma arxiv materiallari)dagi nomlar deyarli tadqiq qilinmagan. N.A.Husanovning doktorlik dissertatsiyasi va bir qator tadqiqotlari hozircha o'zbek tarixiy antroponimiyasiga bag'ishlangan yagona tadqiqot bo'lib turibdi. N.Husanov XV asr o'zbek adabiy yodgorliklari tilidagi antroponimlarni tadqiq qilar ekan, ularni diniy antroponimlar, badiiy antroponimlar va real antroponimlarga bo'ladi. U tadqiqotida payg'ambarlar, ularning avlod-ajdodlari nomining ma'no va genetik manbaiga batafsil to'xtalgan. Mana shu tarzda xalifalar va avliyolarning nomlari ham tahlil qilingan. Bulardan tashqari tarixiy-an'anaviy antroponimlar ham bor. Muallif XV asr yodgorliklarida takror uchraydigan va hozirgi o'zbek antroponimiyasida funksional bo'lgan ismlarni "an'anavaviy antroponimlar" deb yuritadi. U nomlarni "to'qima ismlar", "real antroponimlar"ga bo'lishi ham o'zini oqlaydi. Keyingi guruhga real tarixiy, asar mualliflari nomi, ba'zi hukmdorlar nomi kiritilgan<sup>1</sup>. R.Xudoyberganov antroponimlar misolida variantdorlik tushunchasiga aniqliklar kiritgan va bu variantlarning sinonimiyasiga, onomastik parallellarga munosabatini belgilashga intilgan. U antroponimlarning lug'aviy-lahjaviy variantlarini, ismlarning qisqargan variantlarini, ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini aniqlagan va boy dalillar asosida atroflicha tadqiq qilgan. O'zbek antroponimiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillarida yuzaga kela boshladi. Ungacha bolaga ism qo'yishga bag'ishlangan ba'zi ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan edi. Hozirgi vaqtda V.V.Radlov, V.Pizani, V.A.Nikonov, E.D.Polivanov, Herman Vamberi, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, E.M.Pospelov, A.N.Kononov, E.M.Murzayev, O'ljas Sulaymon, A.G'ulomov, S.Ataniyazov, F. Abdullayev, V.A.Juchkevich, U Tursunov, Sh Rahmatullayev, X.Doniyorov, A.Muhammadjonov, A.Aliyev, N.Rajabov, A.Ishayev, P.G'ulomov, M.Mirtojiyev, Dadaboyev, Sh.Kamoliddinov, M.Mirakmalov kabi tarix

---

<sup>1</sup>Бегматов Э. "Ўзбек антропонимикаси". Тошкент, 2012, 38–39-бетлар.

tilshunoslik, geografiya fanlari olimlarining ilmiy ishlariga ayni vaqtdagi ilm-fan ahllari e'tibor berishmoqda. Bugungi kunda ham o'zlarining amalga hamda davom ettirayotgan tadqiqotlari bilan "O'zbek tilshunosligi"ni ham "Nomshunoslik masalalari" ni ham ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiq etib, yana ham mukammallashtirgan A.Muhammadjonov, H.Hasanov, E.Begmatov, A.Sa'dullayev, R.X.Sulaymonov, Z.Choriyev, E.Fozilov, D.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, T. Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, I.Jabborov, H.Qudratullayev, B.Bafojev, Q.Mahmudov, B.Yo'ldoshev Q.Shoniyozov, A.Aslonov, M.Almamatov singari tilshunoslik geografiya tarix geologiya kabi fan sohalarining olimlari "Nomshunoslik masalalari"(ya'ni umuman nomshunoslik masalalari), shuningdek, "O'zbek nomshunosligi" sohasining turli bo'limlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. Ularning tadqiqotlarini mazmunan, tahlil etish yo'nalishlariga ko'ra bir-biriga yaqinlashtirish bu sohaning hozirgi davrdagi dolzarb masalalaridan biri bo'la oladi. Sababi, ular nom, nomlash nazariyasi va amaliyotiga oid zamonaviy me'yor va talablariga ham ma'lum ma'noda javob bera oladi. Haqiqatan ham, "O'zbek nomshunosligi" kursining hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarini faqat ma'lum bir talqin jarayonlarida kamchiliklar va anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun ushbu sohaning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammolarini hal etishda tilshunoslik, tarix, psixologiya, geografiya, etnografiya, geologiya, falsafa kabi bir qancha fanlarning nomlarga nomsiz obyektlarni nomlash jarayonlariga oid ilmiy-nazariy qoidalar va amaliy xarakterdagi dalillari majmuidan unumli foydalanish har jihatdan maqsadga muvofiq. Bugungi kungacha nomshunoslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar shaklida bo'lgan. Nom va nomshunoslik odamlar ongiga milliylik, milliy manfaat, qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatni singdiradigan ijtimoiylikka xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga ega. 1) joylarning nomlari- toponimlar, shahar, qishloq ovul, mahalla, guzar, tuman, viloyat nomlari; 2) kishi ismi; 3) kishi familiyasi; 4) kishi taxallusi; 5) kishi nisbasi; 6) kishi laqabi; 7) kino nomlari; 8) badiiy asarlar nomlari; 9) gazeta

nomlari; 10) jurnal nomlari; 11) suv inshootlari nomlari; 12) mashina nomlari; 13) osmon jismlari nomlari; 14) materiallar nomi; 15) tarixiy nomlar; 16) tarixiy voqea hodisalar nomlari; 17) sarlavhalar; 18) muchal nomlari; 19) oronim nomlari; 20) korxona va tashkilotlarning nomlari; 21) maktablar nomi; 22) futbol komandalari nomlari; 23) stadion nomlari; 24) radio kanallari nomlari; 25) teledasturlar nomi; 26) haykallar nomlari; 27) bekatlar nomlari; 28) telefonlar nomi; 29) tanga va pul nomlari; 30) diniy nomlar; 31) ilohiy nomlar; 32) dromonimlar; 33) ko'priklar nomlari; 34) kasalliklar nomlari; 35) rasm nomlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Atoqli otlarga kishi ismi bilan birga boshqa obyektlarning atoqli otlari ham oid. Bu hol ham atoqli otlar masalasi ancha bahsli holatda ekanligini ko'rsatadi. Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga qarab onomastika adabiy va dialektal, poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, nutqda qo'llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzulishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy - tarixiy, struktur, genetik, areal onomastik xaritalashtirish va bu usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so'z yasaliishi, semantik, etimologik jihatlarini o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliterasiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, begona nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi so'zlar hosil qilish bilan nom berish va nomlarni o'zgartirish masalalari bilan shug'ullanadi. Atoqli ot-biron obyekttni boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi. Atoqli otlarning ulkan qismini o'zbek tilidagi joy nomlari, ya'ni toponimlar tashkil qiladi. Atoqli otlar alohida, yakka holda olingan narsalar, jug'rofiy obyektlar, hodisalar uchun berilgan maxsus nomlardir.

### **I.3. Nomshunoslik va boshqa fanlar**

“O‘zbek tilshunosligi” ning asosiy maqsadi-mamlakatimiz hududidagi umumiy hamda xususiy tilshunoslik masalalariga xos bahsli muammolarning ilmfanning zamonaviy talablariga tayanib, asosli va o‘rinli yechimlarini topishdan iborat. Buning uchun ayni shu sohaning zamon talablariga javob bera oladigan ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borish hamda ta’lim yo‘nalishlari tizimida mazkur sohani ilmiy, qiziqarli va bahsli dalillar asosida o‘qitishni mukammal holatga keltirish yo‘llarini izlash maqsadga muvofiq. Albatta bunday maqsadni amalga oshirishga mamlakatimizning mustaqillikka erishishi bizlarga bu sohada beqiyos obyektiv hamda subyektiv imkoniyatlarni yaratib bergan. Faqat ulardan zaruriyatga qarab, o‘rinli foydalanishni kuchaytirish kerak..

**O‘zbek nomshunosligi va tilshunoslik fani.** Umuman olganda, nomlar qanday bo‘lmasin aslida ular so‘z va qo‘shimchalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ular nom bo‘lgani uchun endi oddiy so‘zlik (lug‘aviy) ma’nosiga ega emas, balki atalganlik yohud ixtisoslashganlik asosida shakllangan nomlik ma’nosiga ega bo‘ladi. So‘zning bunday ma’nolari esa Z.Do‘simov, S.Qorayev, Ziyovuddin Rahim singari bir qancha olimlarning ism va nomlar haqidagi nomshunoslikka ega bo‘lgan maxsus lug‘atlarida bayon etilgan. Mavjud nomlarning leksik-grammatik xususiyatlari va ularni izohli hamda etimologik jihatlardan tahlil qilish masalalarining yechimi bilan tilshunoslikning Nomshunoslik (Onomastika) bo‘limi shug‘ullanadi.

**O‘zbek nomshunosligi va tarix fani.** Har bir nomda ularning predmetlariga tegishli qandaydir tarzdagi katta yoxud kichik tarix yoki tarixiy voqelik ramzi muhrlanganligini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun bu sohada tarixiy voqealar nomi hodisalar nomi, jarayonlarning nomlari ham e’tiborga olinadi hamda rejali holatda ilmiy tahlilga tortiladi. Shu sababli bu sohaga oid fikr-mulohazalar “O‘zbekiston tarixi”, “Tarixiy toponomika”, “O‘lkashunoslik”, “Tarixiy manbashunoslik” nomli bir qancha o‘quv kurslarida ham bayon etiladi.

**O‘zbek nomshunosligiva etnografiya fani.** Etnografiya fani tarix fanining bir qismi bo‘lib, xalqning ayni vaqtdagi va o‘tmishdagi urf-odati, yashashdagi va nom berishdagi an‘analari, moddiy-ma‘naviy madaniyati va ma‘rifatining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini ilmiy dalillar talqini asosida o‘rganadigan maxsus sohaning nomi. Shuning uchun ham nomlar haqidagi turli qarashlar, fikr-mulohaza va xalqona talqinlar, albatta, etnografik tadqiqotlarda ham asosiy e‘tiborda bo‘ladi. N.Mirzayevning o‘zbek tili etnografizmlari bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqoti natijasida “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘atini”ni nashr ettirgan. Bu ham aynan shu sohada e‘tirofqa loyiq ilmiy ishlardan biri. Lekin nomlar bilan etnografizmlarning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatuvchi maxsus tadqiqot ishi haligacha amalga oshirilgani yo‘q. Bu esa etnografizmlarga bog‘liq nomlarni maxsus tadqiq etish zarurligini anglatadi.

**O‘zbek nomshunosligi va geografiya fani.** Geografiya tabiat va yer ilmiga bag‘ishlangan fanlardan biri bo‘lishi bilan birga nomlarga ham aloqador fan. Ular bu fanda geografik nomlar termini bilan ataladi. Sababi, yerimizdagi obyektlar nomlanib, boshqalaridan farqlanadi. Shu o‘rinda geografik terminlar geografik nom (toponim)lar tarkibida uchrashini e‘tiborga olish lozim. Shuning uchun ham “Geografiya terminlari lug‘ati” hamda “Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug‘ati” nomli lug‘atning nashr etilgani to‘g‘ri hamda o‘rinli bo‘lgan. N.Oxunov “Toponimlar paydo bo‘lishining geografik jihatlarini” haqida ham fikr yuritgan. M.Mirakmalov esa “Geografiyada toponimika” nomli o‘quv qo‘llanmasida nomlarning bir turi bo‘lgan toponimlar masalasiga geografiya fani nuqtai nazardan maxsus to‘xtalgan. Ushbu sohada P.G‘ulomov, M.Mirakmalov, S.Qorayev singari olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

**O‘zbek nomshunosligi hamda psixologiya fani.** Psixologiya insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy munosabatlarini ma‘lum bir me‘yorga solib turadigan soha. Umuman olganda, inson psixologiyasining o‘zi ham mavjud narsa hodisalarni boshqalardan farqlab, ajratib nomlashni talab qiladigan bir butun jarayonlar majmuidir. Ruhshunos olimlar bilan suhbatlardan shu narsalar ayon

boʻladiki, bahsli muammolardan biri sanaladigan yaxshi hamda yomon ism(nom)lar degan tushunchalarning maʼnosiga oydinlik kiritish imkoniyati yuzaga keldi. Yaxshi va yomon nomlar degan gaplarga oydinlik kiritishda psixologiya fanining yordami zarur. Odamning ismi ijobiy ohangda, yaʼni plyus biotok bilan aytilsa, nom va uning egasi toʻgʻrisida ijobiy fikrlarni kuchaytiradi. Shu sababli, inson oʻz nomini plyus biotok bilan aytiladigan kishilardan eshitsa, yana ham xursand boʻlib ketadi. Ijobiy ohang bilan, yaʼni plyus biotok bilan aytiladigan nomlar, odatda oddiy hamda odatiy nomlar boʻlib, kishilar ularni odatdagiday aytishgani uchun ularning koʻngli va dilidan minus biotok yuzaga kelmaydi, balki plyus biotok hosil boʻladi va talaffuzda aytiladi. Shuning uchun ham ayni vaqtda mavjud yoxud mavjud boʻlmagan xalq, urugʻ, qabila, elatlarning etnopsixologiyasi taʼsirida shakllangan amaldagi turlicha nomlash va sharh-u tahlillarga ehtiyoj sezilib turgan nom(ism)lar ham uchrab turadi. Ularni bugungi kunning fan yutuqlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslarda toʻgʻri sharhlash, toʻgʻri talqin etish uchun esa psixologiya fanining koʻmagi lozim.

**Oʻzbek nomshunosligi va falsafa fani.** Falsafa, tabiat, jamiyat va inson oʻrtasidagi munosabatlarga inson manfaatlari, ular asosida yuzaga kelgan bir qancha nomlarga dialektik qonuniyatlar bilan aniqlik kiritadi. Mazkur fan nomlardagi mantiqiylikni maʼlum maʼnoda taʼminlab turishi tabiiy hol. Nomlar har bir xalqning anʼana va qadriyatlar shaklidagi bilimlar majmuining bir qirrasidir. Shuning uchun nomlarda xalqning qadimiy va zamonaviy falsafasi oʻz ifodasini topgan boʻladi. Xullas, falsafa fani ham nom hamda nomlanish jarayoniga ham oʻziga xos boʻlgan dialektik munosabatda boʻladi.

**Oʻzbek nomshunosligi hamda arxeologiya fani.** Arxeologiya qadimiy boʻlgan shahar, qalʼa, qishloq daha, qabristonlarni ularning qoldiqlarini ilmiy asoslarda oʻrganadi. Bu haqida arxeolog olimlarning rasmiy hisobotlarida, shuningdek, Oʻzbekistondagi arxeolog qazishmalarining ahvoli toʻgʻrisida jumladan, Toshkent, Qingʻirtepa, Yapaloqtepa, Ishtixon, Sherobod, Samarqand, Kavardan kabi tarixiy joy nomlari va oʻsha yerdagi arxeologik qazilma ishlari

haqidagi yozma fikr-mulohazalari yilma-yil nashr etiladigan “Arxeologicheskiye otkritiya” nomli kitobda ham o‘z ifodasini topgan. Shu tufayli ularning tarixiy va unutilgan nomlariga murojaat qilinishi bugungi kun uchun tabiiy hol. Ular yozma ilmiy manbalarda, qadimiy qal’a, ichki qo‘rg‘on va imoratlarda, shu jumladan toponimik afsona hamda rivoyatlarda qayd etilganligini ko‘rish, kuzatish mumkin.

**O‘zbek nomshunosligi hamda tarixiy o‘lkashunoslik fani.** O‘lkashunoslikning ilmiy ya’ni davlat o‘lkashunosligi singari uchta bo‘limdan tashkil topganligi toponimlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib turibdi. O‘quvchi va talabalarni mamlakatimizning buguni va o‘tmishi bilan tanishtirishda ”O‘lkashunoslik”, ”Tarixiy o‘lkashunoslik” fanlari tarixiy, eski va yangi nomlar bilan munosabatda bo‘ladi. Tarixshunoslarning bu sohada bir qancha ishlari e’lon qilingan.

**O‘zbek nomshunosligi va biologiya fani.** O‘simlik va hayvon nomlari ham mazkur fanda o‘rganiladi. Ularning nomlari biologiya fanida laboratoriya ishlari asosida maxsus o‘rganiladi. Hozirgacha mamlakatimiz hududida qancha hamda qanday o‘simlik va hayvonlarning yashayotgani nomma-nom ko‘rsatilgan mukammalilik ilmiy ishlar amalga oshirilmagan. Bu esa shu sohaga oid bo‘lgan mavjud o‘simlik va hayvonlarning nomlarini to‘liqroq bilishga turtki bo‘ladi. Sababi biologlar o‘simliklarni o‘rgangani kabi ularning nomlariga ham e’tibor qilishadi. Bu esa fitonimlarning o‘ziga xosligini asoslashda biologlarning xizmatlari, ya’ni ilmiy ishlarini e’tiborga olish lozimligini ko‘rsatadi. Albatta, mana shunday tadqiqotning yuzaga kelishida “O‘zbek nomshunosligi” ning o‘rni katta. ”O‘zbek nomshunosligi” masalalarining bugungacha bo‘lgan talqini va ularning o‘rganilishi masala-muammo, talqin-tahlil, yechim shaklida. O‘zbek nomshunosligining dolzarb muammolari bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni o‘rganish, o‘zlashtirish jarayonida davrning ilm-fan oldiga qo‘ygan ilmiy va amaliy talab, taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda geografiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik, falsafa, geologiya kabi bir qancha fanlarning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan. Nomshunoslik etnografiya geologiya,

tibbiyot, biologiya, tarix, genetika, fizika, geografiya, botanika, psixologiya kabi bir qancha fanlar bilan bog‘liq holda ish ko‘radi.

**Nomshunoslik va tarix.** Damashq shahrining shu nom bilan atalganiga uch ming yil bo‘ladi. Uni dunyodagi eng keksa nom deb bo‘lmaydi. Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi toponimlar ham juda qadimiy nomlardan. Toponimlarda turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslarning ismlari, ko‘chib yurgan urug‘ nomlari aks etgan bo‘ladi. Toponimlarga qarab qayerlarda, qaysi o‘zbek urug‘lari yashaganini bilib olish mumkin. M: Respublikamizda Jaloyir degan bir qancha qishloq bor. Ohangaron havzasi hamda Xo‘jand atroflarida XIII asr boshidan to 1375-yilgacha jaloyir qabilasi yashagan. Nomlarda tarix muhrlangan ham bo‘ladi. M: Toshkent, Buxoro, Qo‘qon, Qoryog‘di singari nomlarda so‘zsiz xalqimizga tegishli tarix hamda taqdir yashiringan. M: Toshkent shahrining shimoliy-g‘arbiy qismidagi mahalla hozir Birlik deyiladi. Ammo XX asrning boshlarida P.G.Mallitskiyning ma’lumotlariga ko‘ra bu joy zax, sizot bo‘lganligidan qurbaqalar ko‘p bo‘lganligidan Qurbaqaobod deyilgan. Qarshi ham 1920-yildan 1930-yilgacha Behbudiy deb atalishi ko‘pchilikka ma’lumdir. Bular ham ijtimoiy hayotda nomlarning o‘rni va roli alohida ahamiyatli ekanligini bildirib turibdi.

**Nomshunoslik va geografiya.** Toponim geografik obyektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik o‘rnini aniqlash uchun ham, geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarur. Nomshunoslikning toponimika bo‘limida uni tarkibiga adir, ariq, bel, buloq, dovon, jar, ko‘l, tog‘, cho‘l, qum kabi hammaga ma’lum atamalar bilan birgalikda arna, bo‘ktar, g‘aza, dayravot, jol (yol), jona-yona (qiya), jo‘na, zayak, zov, kam, kom, (ariq) kamar, novur, saqo, sang‘aloq, supa, tomchi, tangi, tarma, to‘la, tuz, chalqa, chag‘at, chem, shag‘il, shiber (botqoqlik), shirdon, qo‘ton, qirmon (xirmon) kabi kichik bir hududdagina saqlanib qolgan atamalar ham uchraydi. Geografik atama hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo‘lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani

bildiradi. Biroq har qanday geografik atama atoqli otga, ya'ni geografik nomga aylanishi mumkin.

Xulosa shuki, zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlarga oid muammolar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ko'pchilik odamlar atoqli ot deganda ma'lum tasavvurga ega emas. Ismlarga oid muammolar ham talaygina o'zbek onomastikasining rivoji va tadqiq qilinishi ko'pgina izlanishni talab qiladi. Nomshunoslik sohaning tadqiq qilinishi va uni boshqa fanlar bilan aloqasi, atoqli otlarni guruhlariga ajratish masalasi ko'pgina yechimlarni ochib beradi. Atoqli otlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi unga dastlabki qarashlar va fikrlar ancha qiziqarli. Ayniqsa uni boshqa fanlar bilan aloqasi tarix etnofrafiya, numizmatika, geologiya, psixologiya geografiya, biologiya bu fanlardagi ayrim atamalar nomshunoslik bilan ancha o'xshash fanlar doimo bir-biri bilan aloqada ish ko'radi. Zamonaviy tilshunoslikda nomshunoslik sohasi doimo harakatda.

## II BOB. ATOQLI OTLARNING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI

### II.1. Toponimlar

Toponimlarning aksariyati asosida turdosh leksika yotadi. Toponimika yunoncha topos-joy va onoma (yoki onima)-nom soʻzlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani oʻrganadi. “Toponimika”- Nomshunoslik masalalarining bir boʻlimi. “Nomshunoslik masalalari”ning bir boʻlimi boʻlgan toponimikaning oʻziga xos jihatlari mavjudligi ularda toponimik maʼno borligi bilan izohlanadi. Bu holni dunyoga taniqli nomshunos olimlardan biri boʻlgan A.B. Superanskayaning tadqiqotlardan, xususan, uning “Teoricheskiye problem regionalnix toponimicheskoy issledovaniy” nomli ilmiy maqolasida ham qayd etilgan. Toponimiyaga kiruvchi mikrokoʻlam tarkibi:

**oykonim-** aholi yashovchi turarjoy, maskanlar atoqli oti.

**komonim-** qishloq, ovul tipidagi joylarning atoqli oti.

**urbanononim-** shahar hududi joylashgan har qanday topografik obyektga berilgan atoqli ot.

**agroonim-** vodiylar, dalalar, adirlar, yer uchastkalarining atoqli oti.

**nekronim** mozarlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylar atoqli oti.

**terronim-** dunyo okeanlariga qarama-qarshi ravishda yer yuzasi (qirgʻoq)da joylashgan geografik obyektlarning atoqli oti.

**regionim** – oʻzaro chegaradosh boʻlgan ulkan hududlarning atoqli oti.

**dromonim-** harakatlanishga imkon beradigan har qanday ( yer osti, yer usti, suv osti, suv usti) yoʻllarga berilgan atoqli ot.

**xoronim-** har qanday hududning, jumladan, viloyat, tuman, maʼmuriy-hududiy birliklar, tabiiy oʻrinlar atoqli oti.

**Insulonim-** har qanday orolga qoʻyilgan atoqli ot.

**glyasionim-** muzliklarga berilgan atoqli ot.

**polinimiya**-(yunoncha polis- shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos-shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha micros- kichik), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzotlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxt nomlari. Bundan tashqari turli xalq, urug' - aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos-xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos-odam) deb atash mumkin. Toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oraliqidagi fan. Xorazm toponimlari juda boy rang-barang. Xorazm toponim joy nomlarini o'rganishda professor Z.Do'simov, F.Abdullayevning xizmatlari katta<sup>1</sup>. Xorazm toponimlarining ko'pchiligi tarixiy shaxslarning nomlarini, shuningdek revolyusiyadan oldingi kishilarning kasb-hunari mashg'uloti, dehqonchiligi kabi hayot kechirish uslubiga oid terminlarni o'zida saqlagan. Toponimlarni grammatik jihatdan tekshirish juda ko'p lingvistik masalalarni yoritishga yordam beradi. Toponimlarning lingvistik analizi tilimizdagi mavjud bo'lgan ko'plab grammatik elementlarning evolyusiyani, taraqqiyot bosqichlarini, so'z yasallishining qadimgi usullari va ba'zi fonetik hodisalarni aniqlashga yordamlashadi. Shu o'rinda Xorazm toponimi haqida ma'lumot bersak bu toponimning juda qadimiyligi qator manbalardan ma'lum. Uning turli manbalarda turli shaklda ("Avesto"da Hvaririzem, lotin Chorasnia, vaviloncha Humarizma, elamcha Marazmis, arab manbalarida Xwarzm yangi eraning VIII asriga oid xorazmiy tangalarida Xwrm, qadimgi fors tilida Uvarazmi kabi) tilga olinishi ham uning juda uzoq davrlardan bizga yetib kelganini ko'rsatadi. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida ham turli fikrlar mavjud bo'lib, uning ma'nosi turlicha izohlanadi. Jumladan bu so'z "past tekislik yer", "(Klipper va Lerx)", "unumdor yer", (Byurnuf, Zaxau, Geyger) yoki aksincha "yomon, unumsiz yer (Yusta va Shpigel) deb izohlangan. Ayrim tadqiqotchilar toponimni Xurr Xorsed "quyosh" so'zi bilan bog'laydilar (Savelyev) ya'ni Xorazm "quyosh o'lkasi" demakdir. Barcha tadqiqotlar toponimni ikki

---

<sup>1</sup>Дўсимов З. "Хоразм топонимлари". Тошкент, "Фан", 1985.

qismdan iborat, uning ikkinchi qismini *zm,zem*, deb o'qiydilar. Bu so'z hind-yevropa tillaridagi yer, o'lka ya'ni forsha "zamin" rus: *zemlya*". Ammo nomning birinchi komponentining eron tillari asosida hal qilish uning turli variantlarini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. S.P.Tolstov toponimni etnik nom orqali izohlaydi, ya'ni Old Osiyodagi Mitanni davlatining asoschilari bo'lgan qabila-hurrit nomi bilan bog'laydi. Xorazm- Xvarri-zem (xurritlar yeri, o'lkasi) ma'nosida bo'lsa kerak degan fikrni bildiradi. 1.O'zbek tilshunosligida prof.Z.Do'simov toponimik indikatorlar haqida ilk bor alohida maqola e'lon qildi. Toponimikaning fan sifatida tarkib topishida Rossiya olimlarining xizmati katta Rus toponimikasi bo'yicha A.P.Dulzon, A.K Matveev, E.M.Murzayev V.A.Nikonov, V.N.Toporovning asarlari ma'lum va mashhur. "Devonu-lug'otit-turk"ning toponimika fani uchun ahamiyati shundaki, asarda 200ga yaqin turkiy toponimlar (Olayig'och, Badalart, Qargalik) bor. "Boburnoma"ning bu boradagi ahamiyati katta sababi bu asarda ko'p toponimlar uchraydi. Toponimlar uzoq davrning mahsuli bo'lib, til tarixi va tarixiy dialektologiya hamda tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya kabi fanlar uchun boy material beradi. Chunki, toponimlar ma'lum tarixiy davr, ijtimoiy muhit va siyosiy tuzumning mahsulidir. Ular ma'lum tumandagi aholining dunyoqarashi va shu muhitga munosabatini aks ettiradi. O'zbekiston toponimlarini o'rganishda o'zbek dialektologlarining xizmatlari katta. Xorazm toponimlari tarkibida hozirgi adabiy tilda uchramaydigan dialektizmlar saqlangan. Ular ma'lum bir leksik qatlamni tashkil etadi. (Аквашылык) (ovul)- aqbash sho'r yerda o'sadigan o'simlik), sazaqlik (ovul) sazaq (saksovul), (yekanlikol)-yekan qamishsimon o'simlik), Dashyasqa-yasqa (sayoz, kechuv joyi), Bayanliko'l boyan (sertomiro'simlik). Toponimlarni grammatik jihatdan tekshirish juda ko'p lingvistik masalalarni yoritishga yordam beradi. Toponimlarning lingvistik analizi tilimizda mavjud bo'lgan ko'plab grammatik elementlarning evolyusiyasini taraqqiyot bosqichlarini, so'z yasalishining qadimgi usullari va ba'zi fonetik hodisalarni aniqlashga yordamlashadi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligining yetakchi vakillaridan prof.Z.Do'simov 1970-yilda A.Ishayev rahbarligida

“Shimoliy Xorazm toponimlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 24 yoshda fan nomzodi ilmiy darajasini olish ayniqsa o’sha davr uchun noyob hodisa edi. Olim qalamiga mansub “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” (1977), “Xorazm toponimlari” (1985), “Joy nomlarining siri”, (2001), “Toponimika asoslari” (2002) 1986-yili “Xorazm toponimlari tarixiy-lisoniy tahlili” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mazkur ish respublikamizda toponimika sohasida dastlabki doktorlik dissertatsiyasi edi. Z.Dosimov o‘zbek tilshunosligining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan, fanimizning onomastika sohasi shakllanishi va taraqqiyotida alohida o‘rni bo‘lgan olim. Uning ilmiy faoliyatining salmoqli qismi Xorazm vohasi toponimiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Hozirgi O‘zbekiston territoriyasidagi joy nomlari haqida Beruniy, Koshg‘ariy, Narshaxiy, Rashididdin, Bobur, Munis, Ogahiy kabi olimlarning asarlarida bebaho materiallar saqlanib qolgan. O‘zbekiston toponimiyasiga oid ayrim mulohazalar prof. Z.Do‘simov, V.V.Bartold M.Ya.Masson, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldoshev, S.E.Malov, S.P.Tolstov, S.Kamolov, E.D.Polivanov P.P.Ivanov va boshqa olimlarning asarlarida ham uchraydi. Prof H.Hasanovning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan”, (1965) “Geografik nomlar imlosi”, (1962) “Geografik terminlar lug‘ati” (1964), “Yer tili” (1980). Toponimlar tabiat va jamiyatdagi ma’lum o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda ma’lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Toponimlarni tasnif qilish XIX asrdan boshlangan bo‘lib hozirgi kunda o‘z aktualligini yo‘qotgan emas. Mamlakatimizda toponimlarni tasnif qilishda asosan ikki yo‘nalish yaqqol ko‘zga tashlanadi. 1.Leksik-semantik tasnif 2. Grammatik tuzilishiga ko‘ra tasnif. Toponimlarning morfologik strukturasi aniqlashda tarixiy morfologik tadqiqotlar samarasini ham e’tiborga olishimiz lozim. Inson boshqa tildan biror so‘zni qabul qilar yoki o‘z tilidagi eskirgan so‘zni tinglar ekan, u odatda ona tilidagi biror so‘z bilan aloqasini yoki biror ichki formasini topadi. Toponimlarni morfologik strukturasi aniqlashda tarixiy morfologik tadqiqotlar samarasini ham e’tiborga olishimiz zarur. Nomlarning bunday tahlilida tarixiy morfologiya ham muhim

omildir. Nomlarni xususan, joy nomlarini grammatik jihatdan tekshirish juda ko‘p lisoniy masalalarni yoritishga, jumladan tilimizdagi mavjud va ba’zi iste’moldan chiqqan affikslarni aniqlashga, shuningdek, so‘z yasalishining qadimgi usullari va ba’zi fonetik hodisalarni aniqlashga yordam beradi. Toponimlarni morfologik jihatdan talqin qilish atoqli otlarning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi. Avvalo, toponimlar o‘z xarakteri bilan odatiy so‘zlardan farq qiladi. Toponim yasalishi prinsip jihatdan so‘z yasalishidan farq qilmaydi. Har bir tildagi so‘z yasalishi priyomlari va so‘z yasashi vositalari toponim yasashda ishtirok etadi. Ammo joy nomlarini so‘z yasalishi jihatidan tekshirar ekanmiz, avvalo atoqli otlarning o‘ziga xos bir qator semantik grammatik xususiyatlarini e’tiborga olmoq zarur. Toponim yasalishidagi leksik-grammatik xarakterdagi yasalish bilan affiksasiya usulida aralashtirish ko‘p hollarda toponim motivlarni noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelmoqda. Bu holatni faqat o‘zbek tilshunosligida emas, balki turkiy tillar toponimlarini tekshirishga bag‘ishlangan ishlarda ham kuzatish mumkin. Atoqli otlar, jumladan V.A.Nikonov o‘zining toponimik lug‘atida dunyodagi to‘rt mingga yaqin yirik geografik obyektlar nomlarining kelib chiqishini izohlab bergan. Turkiy tarixiy va lisoniy manbalardan toponimika uchun eng ahamiyatlilari sifatida Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” va Z.M.Boburning “Boburnoma” asarlari alohida tilga olingan. “Devonu lug‘otit-turk” ning toponimika fani uchun ahamiyati shundaki, asarda 200 ga yaqin turkiy toponimlar (Olayig‘och, Badalart, Qargalik), ko‘plab etnonimlar o‘sha vaqtdagi turkiy qabilalarning nomlari va ularning geografiyasi, bir necha o‘nlab qadimiy turkiy ismlar (Bektur, Arslontegin, Turumtoy), ko‘plab geografik atamalar (art, dovon, yoz yozi “dasht”, baliq “shahar”. Shuningdek, o‘simlik va hayvonlarning qadimiy turkiy nomlari keltirilgan. O‘zbek tilshunos toponimistlardan professorlar Z.Do‘simov, T.Nafasov, dotsent, N.Oxunov O‘zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga toponimlarning nomlanish qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo‘shdi va ko‘plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar. Prof.Z.Do‘simov Xorazm toponimiyasini o‘rganib joy nomlarining tarixi va

etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasini ishladi. "Xorazm toponimlari" monografiyasida (1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi. Xorazm bu toponimning juda qadimiyligi qator manbalardan ma'lum. O'rta Osiyoning jumladan O'zbekistonning xorazmiy, sug'diy, qadimgi turkiy yozuvlarda yetib kelgan toponimlari ko'p emas. Yunon manbalarda tilga olingan geografik nomlarimiz ham sanoqli. Milodning birinchi ming yilligi boshlarida mintaqamiz uchun yozma manbalarda tilga olingan geografik nomlarimiz ham sanoqli. Milodning birinchi ming yilligi oxiri ikkinchi ming yilligi boshlari mintaqamiz uchun yozma manbalarda ko'hna toponimlar ko'plab qayd qilingan davr edi. "Devonu lug'otit-turk", "Buxoro tarixi", "Hudud ul-olam", "Arab geograflari kutubxonasi" jildlari so'zsiz, benazir toponimik manbalardir. Bu yodnomalarda tilga olingan geografik nomlarning anchasi hamon o'zining shakl-shamoyilini saqlab qolgan. O'rta asrning oxirlari toponimik materiallari qamrab olishda ikkinchi oltin davr bo'ldi. Xususan, Amir Temur va Temuriylar tarixi, birinchi galda Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"lari, Zahiriddin Boburning xotiralari- "Boburnoma", Shayboniylar tarixi, Hofiz Tanishning "Abdullanoma" asari va boshqa yodnomalarda ko'plab shahar va qishloqlar, daryo, soylar, mavze va maskanlar tilga olingan. A.Bahodirxonning "Shajarai tarokima", "Shajarai turk" asarlarida bir qancha geografik nomlar bilan birga ko'plab etnonimlar-qabila-urug' nomlari keltirilganki, bu materiallar toponimchilar uchun bebaho manbalardir. Bu o'rinda Z.Do'simovning ushbu fikrlari haqqoniydir: Shuni qayd etish lozimki, toponimika muammolariga bag'ishlangan ishlarda toponimlarning yasalishi va tuzilishi turlicha talqin qilinadi. Bu hol ushbu masalaning biroz chalkashishiga olib keldi. Ba'zi qo'shimchalar hech bir asossiz toponim yasovchi morfema deb talqin qilinadi. Shunisi aniqki, toponimlarning yasalishini tadqiq qilish toponimikaning dolzarb muammolaridan. Ko'pgina ishlarda -lik,-chi,-lar qo'shimchalari toponim yasovchi qo'shimchalar deb talqin qilinishiga va Bazzozlik, Konchilik,

Meshgarlik, Ozodlik, Tanglik toponimlarini -lik; yordamida yasalgan atoqli ot deb izohlanishga Z.Do'simov qo'shilmaydi va shunday yozadi; Konchilik, Zargarlik, Paxtakor kabi toponimlar tarkibidagi qo'shimchalarning atoqli ot yasayotgani haqida gap bo'lishi mumkin emas. Ular nol qo'shimchali toponimlardir.

### **Toponimlar tarkibida uchraydigan lisoniy birliklar**

-li; Avoqli, Jag'albayli, Yong'oqli, Jiydali, Tikanli, O'tli va boshqalar;

-lik; Suvlik (q)

-cha; Ko'kcha, Quduqcha, Satilcha, Saroycha, Korizcha.

-zor; Yong'oqzor, Jiydazor, Olmazor kabi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko'ra (toponegiziga) ikkiga bo'lish mumkin:

1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq kabi.

2) Negizida urug', qabila va ularning mayda shahobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg'ali (qq.), Bahrinto'p (qq.), Qo'shtamg'ali (qq.), Kerayit arig'i kabi.

Toponimiya, tildagi mavjud leksik negizlarga tayanadi. Shu bilan birga toponimiyaning boyish yo'llari ham tildagi bor bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi. Ammo oddiy leksika bilan atoqli otlarning yasashida u yoki bu usul ustunlik qilishi jihatidan farqlar bo'lishi mumkin.

### **Misollarga murojaat qilamiz**

**Urganji-** Urug' nomi bo'lib, asli Urganch shahridan chiqqan kishilarning avlodlaridir. Darhaqiqat Urganji atamasida -i qo'shimchasi tojikcha bo'lib, o'zbek tilidagi -lik qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Urganji – urganchlik demakdir. O'zbekistonda urganji etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan aholi yashash maskanlari nomlari ancha. Farg'ona viloyatining Dang'ara, Uchko'prik, Buvayda, Andijon viloyatining Izboskan, Paxtaobod, Namangan, Jizzax viloyatining Forish, Buxoro viloyatining G'ijduvon rayonlarida Urganji, Buxoro shahrida Urganjiyon

(urganchliklar), Farg‘ona viloyatining Dang‘ara rayonida Urganjibog‘ toponimlari bor.

**Ketmontepa**- Toshkent viloyati Quyi Chirchiq rayonidagi qishloq. Nomning birinchi qismidagi ketmon so‘zi tojik tilidagi kadmand so‘ziga aloqador. Prof T.Nafasovning yozishicha, ushbu so‘z “xaroba”, “vayrona” ma’nosiga ega. Kandmantepa- “vayronaga aylangan tepa o‘rni, buzilib ketgan tepalik” demakdir. Kadmantepa nom tarkibida sodir bo‘lgan tovush o‘zgarishlari natijasida Ketmontepa shakliga kelib qolgan.

**Kunjak** – Marg‘ilon shahridagi mahalla. Nom burchak, chet (joy) ma’nosini bildiruvchi tojikcha kunj so‘zi va –ak qo‘shimchasidan tarkib topgan. Kunjak-chet joydagi mahalla.

**G‘umayli**-Farg‘ona viloyatining Dang‘ara royonidagi qishloq. Joy nomi g‘umay-boshog‘ullilar oilasiga mansub, qiyof bargli, poyasi tuksiz, ildizidan ko‘payadigan, bo‘yi 1-2 metrgacha o‘sadigan ko‘p yillik begona o‘t, -li qo‘shimchasi jamlik ma’nosiga ega. G‘umayli - ”g‘umay ko‘p o‘sadigan joy” demakdir. Qishloqning nomlanishiga o‘simlik nomi asos bo‘lgan. O‘zbek tilidagi toponimlarni umumiy tarzda ikki ulkan guruhga bo‘lish mumkin: tabiiy, xalqona toponimlar va rasmiy, ya’ni sun’iy toponimlar. Atoqli otlarning ulkan qismini o‘zbek tilidagi joy nomlari, ya’ni toponimlar tashkil qiladi. Olimlarning tekshirishlariga qaraganda hozirgi O‘zbekiston hududida uchraydigan ko‘hna toponimlar tarkibida: O‘kuz (suv, daryo O‘kuz O‘kuzsoy), budun (el,xalq ma’nosida-Shirbudin), o‘r, o‘ra (tepalik, toqqa ko‘tarilish joyi ma’nosida-Qashqao‘r, Kichiko‘r, O‘rtepa, Shodmono‘r, O‘rasoy), qoq(ko‘lmak,ko‘lmak suv ma’nosida).Toponimiya doirasiga kiradigan atoqli otlarning asosiy guruhlari quyidagilar:, -viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar nomi (xoronimlar, astionimlar, komonimlar, oykoimlar) mavzelar, dahalar, mahallalar, guzarlar, ishkat (ichkat) lar nomi (urbononimlar);

-maydonlar, registonlar, xiyobonlar, bog‘lar, istirohat bog‘lari (parklar), bul’varlar, dendroparklar nomi ( urbononimlar);

-qadimiy qal'alar, qo'rg'onlar, istehkomlar, devorlar, karvonsaroylar, qarorgohlar, o'rdalar, devorlar, bozorlar, manzilgohlar va boshqa xil qurilish komplekslarining atoqli otlari;

-masjid madrasalar nomi(angionimlar)

-ko'chalar, shohko'chalar, boshi berk ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, temiryo'llar chorrahalar nomi (urbononimlar, doronimlar);

-vokzallar,avtovokzallar, aeroportlar, aerovokzallar, aerodromlar, rabotlar, langarlar, temiryo'llar, metro stansiyalari,jamoa transporti bekatlari nomi;

-tog'lar, tog' tizmalari, qirlar, dovonlar, sangirlar, tepalar, tepachalar, qoyalar, cho'qqilar, qoyatoshlar tog'liklarda joylashgan boshqa xil jug'rofiy o'rinlar nomi (silenimlar);

-dalalar, vodiylar, tekisliklar, pasttekisliklar, adirlar, o'zanlar yaylovlar, o'tloqlar, chakalakzorlar, changalzorlar, qamishzorlar, o'rmonlar, cheklar, yer uchastkalari, qo'riqxonalar nomi (agroonimlar, drimonimlar) sahrolar, cho'llar, dashtlar, qumliklar, savannalar,barxanlar nomi, qirg'oqlar, jarliklar, g'orlar, o'yiqlar, o'zanlar, o'piriqlar nomi, okeanlar, dengizlar, ko'llar,suv omborlari, hovuzlar, quduqlar, ariqlar, kanallar, buloqlar, sizmalar, sharsharalar, tashlamar, daryolar, soylar, irmoqlar,o'zanlar, suv ayirgichlar, to'g'onlar, dambalar, nasos stansiyalari, havzalar, qo'ltiqlar, ko'rfazlar, orollar,yarim orollar, botqoqliklar, muzliklar, chuqurliklar, suvosti tog' tizmalari, ko'priklar, suv tegirmonlari nomi (gidronimlar, pelagonimlar, limnonimlar, gelonimlar, potamonimlar).

## **II.2. Antroponimlar**

Kishi ismlari tilimiz lug'aviy boyligining tarkibiy qismi. O'zbek tili tarixiy davrlarda yuzaga kelgan xilma-xil ismlarga juda boy bo'lib, bu nomlar o'zbek xalqining uzoq madaniy va ma'naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridan biri. Chunki, bu nomlarda xalqimiz bosib o'tgan ziddiyatli tarixiy yo'l, keng ommaning turli-tuman orzu-umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, qadimiy o'tmishdan guvohlik beruvchi e'tiqodlari, o'ziga xos

rasm-rusmlari, insonga bo'lgan hurmat-ehtiromi, farzandiga qaratilgan mehr-muhabbati o'z ifodasini topgan. O'zbek nomshunosligi oldida asta-sekin tarixga aylanayotgan, unutilayotgan o'zbek ismlari majmuasini iloji boricha to'liq to'plash, ularni ilmiy tahlil qilish, ismlarning izohli lug'atlarini tuzish, ularning yuzaga kelishi, berilishi bilan aloqador rasm-rusumlar, odatlar an'analarni o'rganish va ilmiy jihatdan umumlashtirishdek g'oyat muhim vazifalar turibdi. O'zbek tilida bir qancha sodda ismlar aslida qo'shma bo'lgan nomning uzilgan (bo'lingan) qismlaridir. Chunonchi: Bahri (Bahriniso), Berdi (Xudoyberdi), Vohid (Abdovohid), Jamol (Jamoliddin), Zebi (Zebiniso), Karim (Abdukarim), (Mo'min) Abdumo'min, Mo'minali), Havo (Havoniso). Hozirgi o'zbek tili va amaliyotida keltirilgan uzilgan qismlar ham mustaqil ism sifatida qo'llaniladi va kishilarning rasmiy hujjatlarida ham mustaqil nom sifatida yozilmoqda. Shunga ko'ra, Vohid va Abdovohid, Mo'min va Abdumo'min tarzidagi ismlar lug'atda alohida-alohida atoqli ot sifatida berildi. Ba'zi qo'shma ismlar jumhuriyatimizning turli joylarida ham to'liq, ham qisqargan shakllarda uchraydi. Ism ikki yoki undan ortiq qismli shakllarda qisqarishi mumkin: Bo'rimuhammad- Bo'rimat; Dadamuhammad- Dadamat, Muhammadmurot- Madmurod; Xolmurod- Xolli kabi. Kundalik amaliyotda qo'shma ismning qisqargan shakli ham mustaqil ism maqomiga ega. O'zbek tilidagi bir qancha, kishi nomlari har ikkala jins-ham o'g'illar, ham qizlar uchun bir xilda ism bo'lib kela oladi. Bunga sabab turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida to'liq ma'nodagi grammatik jinsga oid shakllarining mavjudemasligidir. Shu sababli har ikki jins uchun mushtarak bo'lgan nomlar ham erkaklar, ham ayollar ismi ro'yxatida berildi. Bular Omon, Ortiq, Tursun, Turdi, To'xta, Eson, Yursin, O'ktam, Soat, Sulton, Shirin, O'lmas kabi ismlardir. O'zbek tilidagi ayollarga qo'yiluvchi ba'zi ismlar tarkibida ayollar jinsiga ishora qiluvchi arab tilidan o'zlashgan -a va -iya qo'shimchalari mavjud. Ammo bu tarzidagi ismlar mazkur qo'shimchalar bilan qo'shimchalarsiz ham qo'llanilaveradi. Bunday hollarda nomning har ikki shakli lug'atga mustaqil ot sifatida kiritiladi: Lutfi-Lutfiya, Rixsi-Rixsiya, Nuri-Nuriya, Ochil-Ochila, Tur'gun-Turg'una Dildor-Dildora,

Mukarram-Mukarrama, Munavvar-Munavvara, Muhtaram-Muhtarama kabi. Ba'zi qo'shma ismlar nomning birinchi va ikkinchi qismini tashkil qiluvchi so'zlarning o'rin almashishi tufayli vujudga kelgan. Masalan, Bekali, Alibek, Alisher-Sherali, Sherahmad-Ahmadsher, Berdirahim-Rahimberdi, Bibinor-Norbibi, Aliasqar-Asqarali, Qulmo'min-Mo'minqul, Matturdi-Turdimat kabi. Bunday holda bir ismning ikki shakli emas, balki mustaqil, ikki ism haqida gap borishi kerak. O'zbekcha ismlar tarkibida nomning oxiriga yoki bosh qismiga qo'shilib keluvchi bir qator lug'aviy unsurlar uchraydi. Masalan: Bo'ri ismiga qo'shilgan Bo'riboy, Bo'rixon, Bo'rijon, Bo'rigul, Bo'rixo'ja kabi. Bunday ismlar nomlash amaliyotida o'zagi bir bo'lishiga qaramay, biri ikkinchisidan shaklan farq qiladi. Bu farq ayniqsa shunday ismlardan yasaluvchi familiyalar, ota ismlaridan yorqin seziladi. Chunki, Bo'riyev, Bo'riyevich nomlari Bo'rixonov, Bo'rixonovich familiyasi vaota ismidan farqli. Bo'riboy va Bo'rigul nomlarida esa erkaklar va ayollarga tegishli farqli ismlarning yasalayotganini ko'ramiz. Ismlarning mana shu kabi turlari lug'atga mustaqil ismlar sifatida kiritildi. Ular tarkibida quyidagi qo'shimcha -lug'aviy unsurlar uchraydi: a) erkaklar ismi tarkibidagi uchraydigan lug'aviy unsurlar: -bek; Abdulbek, Avazbek, Durbek, Xolbek, -boy; Adashboy, Azalboy, Bayotboy, Xolboy, Toshboy, Eshboy, -bobo; Ahmadbobo, Bekbobo, Yorbobo, Madbobo, Musabobo va boshqalar.

-buva; Buvajon, Buvaxo'ja, Boybuva, Bolbuva, Odilbuva, Eshonbuva; -mir: Mirdada, Mirmuso, Mirvaqqos, Mirpo'lat, Mirtemir, Mirmuhsin, Gulmir, Do'stmir, Jovmir, Toshmir, Shoymir, Xushmir; -mirza: Boymirza, Normirza, To'ramirza, Xolmirza, Qulmirza, Eshmirza

-oxun; Zarifoxun, Piroxun, Saidoxun, Sobiroxun.

-toy; Anortoy, Iristoy, Mamantoy, Nortoy, Rahimtoy, Tursuntoy, Qultoy;

-xo'ja; Mavlonxo'ja, Maqsudxo'ja, Tursunxo'ja, Xudoyqul, Eshqul;

b) ayollar ismi tarkibida uchraydigan qo'shimcha-unsurlar:

-beka; Rajabbeka, To'ybeka, Xolbeka, Xushbeka, O'rozbeka, Qurbonbeka;

-bibibi; Anziratbibibi, Anorbibi, Asilabibi, Barnobibi, Bozorbibi, Zumradbibibi;

-bibish; Gulbibish, Norbibish, Oybibish;

-begi; O'g'ilbegi, Qizlarbegi;

-begim; Sorabegim, To'ybegim, Xolbegim, Shobegim;

-bonu; Asalbonu, Ixlosbonu, Mashrabbonu, Mengbonu, Mohibonu, Orzibonu, Samarbonu;

-bika; (beka): Bika, Bikabu, Bikajon, Boltabika, Gulbika, Jumabika, Oybika, Otinbika, Suyumbika;

-bu; (buv); Buvjon, Buvzilol, Buoysha, Buvsora, Buzaynab; Dehqonbu, Jannatbu, Nishonbu, Ruzvonbu, To'lqinbu;

-buvi; Aqidabuvi, Bahorbuvi, Bolbuvi, Buvinor, Buvirajab, Jahonbuvi, Kattabuvi;

-buvish; Anorbuvish, Bolbuvish, Iqlimbuvish, Oltinbibish, Oqbuvish, To'xtabibish;

-gul; Oygul, Tozagul, To'xtagul, Ulangul;

-oy; Adashoy, Asaloy, Bozoroy, Ma'quloy, Shodmonoy;

-oyim; Begoyim, Guloyim, Xonoyim, Erkaoyim;

-poshsha; Asilposhsha, Jonposhsha, Nurposhsha, Oylarposhsha, Sultonposhsha, O'g'ilposhsha;

-xonim; Durxonim, Oyxonim, Norxonim<sup>1</sup>;

-pochcha; Durpochcha, Oypochcha, Tursunpochcha, O'g'ilpochcha;

-to'ti (opa ma'nosida): Jonto'ti, Oyto'ti;

-momo va mo; Bozormomo, Gulmomo, Sarvarmomo, Ravzamomo, Ro'zimo. Ba'zi lug'aviy unsurlar har ikkala jins ismlari tarkibida kela oladi. Bular quyidagilar: -jon: Manzurjon, Otashjon, Rizojon, O'ktamjon, O'rmonjon (erkaklar ismi), Guljon, Yoqubjon, Oyijon, Maraljon, Norjon (ayollar ismi);

-xon; Komilxon, Latifxon, Mansurxon, Olimxon, To'raxon, Porsoxon (erkaklar ismi); -sho; Rasulsho, Rustamsho, Sultonsho, Turdisho, Umarsho, G'aribsho (erkaklar ismi), Xurramsho, Qizlarsho (ayollar ismi). Bir qancha ismlar

<sup>1</sup>Бегматов Э “Ўзбек исмлари” Тошкент 1991. 8-11 б.

tarkibida -man,-cha qo'shimchalari uchraydi va ular ismlarning o'ziga xos shakllarini yuzaga keltiradi. Chunonchi: Bekmon, Berdimon, Kuchman, Mirman, Sayidcha, Xoliqcha, Ibocha Mayincha. Nomshunoslikning kishi ismlarini o'rganuvchi bo'limi. O'zbek antroponimiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillarida yuzaga kela boshladi. Ungacha bolaga ismqo'yishga bag'ishlangan ba'zi ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan edi. O'zbek ismlarining ma'nolarini ommabop tarzda izohlagan dastlabki risolani Y. Menajiyeu va X. Azamatovlar yaratishdi. Risolada ismlar ma'nosini tushunish, ism ma'nosini asosi bo'lgan motivlar va boshqalar yuzasidan jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilgan. E. Begmatov o'zbek ismlari masalalari bo'yicha uzoq yillardan beri tadqiqot ishlari olib bordi. Uning "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972) va boshqa kitoblari, bir qancha ilmiy maqolalari nashr etilgan. N. Husanovning doktorlik dissertatsiyasi va bir qator tadqiqotlari hozircha o'zbek tarixiy antroponimiyasiga bag'ishlangan yagona tadqiqot bo'lib turibdi. N. Husanov XV asr o'zbek adabiy yodgorliklari tilidagi antroponimlarni, badiiy antroponimlar va real antroponimlarga bo'ladi. U tadqiqotida payg'ambarlar ularning ajdod-avlodlari nomining ma'no va genetik manbaiga batafsil to'xtalgan. Mana shu tarzda xalifalar va avliyolarning nomlari ham tahlil qilingan. Muallif XV asr yodgorligida takror uchraydigan va hozirgi o'zbek antroponimiyasida funksional bo'lgan ismlarni an'anaviy antroponimlar deb yuritadi. (Masalan, Dilorom, Zulayho, Navro'z, Farhod). Keyingi paytlarda o'zbek ismshunoslari o'zbek antroponimiya yasallishining konkretroq muammolariga qo'l urmoqdalar. R. Xudoyberganovning o'zbek antroponimlarining variantdorligini o'rgangani, S. Kenjayeva o'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik masalalarini tadqiq qilgani buning isbotidir. A. B. Superanskayaning yozishicha, atoqli ot aniq obyektga bog'liqligi o'sha yakka obyektga oid assosiyasiga egaligi bilan xarakterlanadi. O'zbek antroponimiyasi tizimi kuzatilsa, unda ba'zi shakllar ham, ma'noga ko'ra noaniq ismlar ham uchraydi. Buning turli sabablari bo'lishi mumkin. 1. Ba'zi ismlar asrlar davomida iste'mol jarayonida

qo‘llanaverib shaklan o‘zgargan bo‘ladi. 2. Ism tarixda mavjud bo‘lgan hozirda iste’moldan chiqqan biror leksemadan yasalgan bo‘ladi. 3. Ma’lumki, bolaga qo‘yilgan ism ota-onalar tomonidan oila doirasida chaqaloqni erkalab turli shakllarda talaffuz qilinadi. Ko‘pincha erkalash shakllari ilk asos bo‘lgan asliy so‘zdan tamoman uzoqlashadi va mavhum shakllarni oladi. Masalan: Shavkat ismini Shavash // Chavash //Chavchanka // Chavanka// Shavashan shaklida erkalash holatlari bor. 4. Ism hozirda bizga noma’lum bo‘lgan ba’zi lahjaviy leksemadan yasalgan bo‘lishi ham ehtimol. O‘zbek antroponimiyasida bir leksemadan yasalgan nomning ham erkaklar, ham ayollar ismi bo‘lib, kelishi ko‘p uchraydi. Ammo, ushbu shakl ismlar aksariyat holatlarda antroponomik aniqlagichlar yoki qo‘shimcha komponentlar yordamida o‘g‘il va qizlar ismiga xoslanadi.

#### **erkaklar ismini hosil qiluvchi vositalar**

- boy (- voy ); Yo‘ldoshboy, Kenjaboy, Ko‘kanboy.
- jon (-chon); Ilhomjon, Karimjon
- bek (-beg); Izzatbek, Ilimbek, Karimbek, Lochinbek, Tillabek.
- toy; Iristoy, Sobirtoy, Sog‘intoy
- xon (-qon); Sodirxon, Muxtorxon, Azimxon
- qul; Ilashqul, Irisqul, Karimqul, Tursunqul, Mallaqul, Suyarqul.
- zod //zoda; Tojizoda, So‘fizoda
- ulla; Inoyatulla
- mirza// -mirzo; Ko‘chmirza, Solimirza.
- pochcha (aka ma’nosida)
- bachcha (-vachcha) Boyvachcha, Xo‘javachcha, Mullabachcha.

#### **ayollar ismini hosil qiluvchi vositalar**

- a; Ikroma, Komila, Karima, Latifa, Malika
- ya(-iya); Soliya, Nuriya, Ilhomiya, Ilmiya, Siddqiya, Sofiya.
- beka //bika; Izzatbeka, Irisbeka, Karimbeka, Ko‘chbeka, Tillabeka
- bib ( -bi); Niyatbib, Irisbib, Tillabibi, Sultonbib,

-bibish(-buvish); Nurlibuvish, Xolbibish.

-bonu; Orzubonu, Ixlosbonu, Malikabonu, Suyunbonu

-buv (-bu); Ikrombu, Irisbu, Yo‘ldoshbu, Kattabuv, Kenjabuvi, Lochinbu, Soatbu, Toshbu.

-nisa\\-niso; Lutfiniso, Hayriniso, Suydiniso, Tillaniso, Tojiniso

-poshsha (-pochcha) Sultonposhsha

-oy (-oyim) Ko‘kanoy, Soatoy, Sotqinoy, Tonchoy.

-xon; Ilashxon, So‘lmasxon, Nusratxon, Shuhratxon

-banot; Izzatbanot, Tojibanot

-gul; Kenjagul, Minggul, Sohibgul, Tojigul, Tonggul.

Onomastik birlik haqida so‘z ketganida o‘zbek antroponimiyasining birliklari deb ism, laqab, taxallus, familiya va ota ismlarni shuningdek, tarixda rasm bo‘lgan keyinchalik qo‘llanishdan chiqqan ba‘zi arabcha usullarni keltiramiz. O‘zbek tili tarixidagi materiallar guvohlik berishicha, o‘tmishda kishi ismiga uning mansabi, unvonlari, laqabi qo‘shib aytilar edi: Hovlig‘a kirganlar to‘rt kishi edi: biri Sayid Qosim eshikoqo edi, yana biri Qanbar Ali Qosimbek edi, yana biri Sherquli mo‘g‘ul edi, yana biri Sulton Ahmad mo‘g‘ul edi”. A.G‘afurov yozishicha, o‘tmishda kishilar ismni shaxsning joni bilan bog‘liq deb hisoblashgan. Shu sababli ism orqali shaxsning taqdiri, hayotini belgilash o‘zgartirish mumkin deb bilishgan. Ismning ta’sir kuchiga ishonish Partov(tashlandiq, suprindi) Sarimsoq, Yatim (yetim, noyob, topilmas), Dodor (ana shunday ism qo‘yilsa, o‘g‘il ko‘p tug‘iladi, deb hayol qilingan). Xadjar (tosh); Bakr (tuya) kabi ismlarni yuzaga keltirgan.

Kishi nomi, ismi otasining ismi, laqabi, taxallusi, nisbalari antroponimlar deyiladi. Antroponimika “O‘zbek nomshunosligi” bir qismi sifatida talqin etilishining ma’rifiy, ma’naviy estetik asoslari bor. Sababi, bu ularni qo‘llaydigan xalqlarning mavjudligi hisoblanadi. Bugungi kunda barcha xalqlarda qo‘llanilayotgan kishi ismi familiyasi taxallusi laqabi, nisbasi kabilarning orfografik jihatdan to‘g‘ri hamda aniq yozish me’yorlarining har bir xalq yozuvi

tizimida qilinayotgan orfografiyalari zaminida ishlab chiqilganligi umumiy hamda xususiy antroponimikaning yutuqlari jumlasiga kiradi. Har bir inson o'z nomi bilan atalsagina unga bo'lgan munosabat aniq sezilishi tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilgan. Umuman kishi ismi, familiyasi taxallusi kabilar keng miqyosda jahon tilshunosligi darajasida ancha vaqtdan buyon o'rganilayotgani kabi o'zbek tilshunosligida ham tadqiqot obyektlari sifatida XX asrning 60-yillaridan boshlab to bugungi kungacha ilmiy va amaliy jihatlardan tadqiq etilgan. Antroponimika termini uch terminga asos bo'lgan: 1) o'zbek nomshunosligi masalalarining bir bo'limi o'zbek antroponimikasi; 2) o'zbek nomlarining yig'indisi, majmui o'zbek antroponimiyasi; 3) o'zbeklarning nomi, ismi, familiyasi, taxallusi nisbasini anglatuvchi tushuncha antroponim xususiy antroponimikaning bir bo'limi sifatida "O'zbek antroponimikasi"ni quyidagi tarzda davrlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq. **"O'zbek antroponimikasi"ni o'rganish tarixidan.** Bunda tarixiy taraqqiyotni e'tiborga olingan holda qadimgi turkiy, turkiy va o'zbek antroponimlardagi farqli xususiyatlarni e'tiborga olgan holda bir qiymatda, bir darajada e'tirof etilishi maqsadga muvofiq. Antroponimlar M.Koshg'ariy tomonidan o'rganila boshlagan bo'lsa, XX asrning 60-yillaridan boshlab, E.Begmatovning tadqiqotlari bilan ilmiy-nazariy va amaliy amallarda tadqiq etish o'rinli. "O'zbek antroponimikasi" ning tarixiy bosqichlari quyidagilar; 1) Islomgacha bo'lgan davrda antroponimlar; 2) XI-XIV asrlarda antroponimlar; 3) XV-XVII asrlarda antroponimlar; 4) XVIII-XX asrlarda antroponimlar; 5) XX-XXI asrlarda antroponimlar. O'zbek antroponimlarining tarkibi, statistik tuzilishi va o'zgarishlardagi o'ziga xosliklari quyidagilar:

a) XX asrgacha erkaklar ismlari; B) XX asrgacha ayollar ismlari d) kam va ko'p qo'llaniladigan ismlar e) turli-tuman fonetik o'zgarishlarga uchragan ismlar. Antroponimikani o'rganish xalq tarixidagi nom qo'yishga oid an'analarni o'zlashtirishga imkon beradi.

### **Antroponimiyaga kiruvchi mikroko'lam tarkibi:**

**Ismlar-**odamga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot.

**Laqab**-shaxsga uning atrofdagilari tomonidan beriladigan kishining xarakteri belgi va xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qoʻllanuvchi nomi.

**Familiya**- shaxsning maʼlum oila, avlodga mansubligini koʻrsatadigan, avloddan -avlodga meros boʻlib oʻtadigan rasmiy nomi.

**Ota-ism**- shaxsning otasi yoki bobosi ismidan keyin oʻgʻli, qizi soʻzlarini keltirish yoki -ovich (-ovna), -evich (-evna) qoʻshimchalarini qoʻshish orqali yasaladigan atoqli ot.

**Patronim**- shaxsni uning avlod-ajdodlari nomini keltirish usulida atash.

**Matronim**- ona (ayol)ning ismi yoki laqabidan yasalgan ism yoki

**Enonim**-mashhur shaxs (lar) nomiga nisbat berilgan atoqli ot.

**Taxallus** -ijtimoiy faoliyati jarayonida shaxsning oʻzi tanlagan,uning asosiy ismi bilan birgalikda yoki uning oʻrnida qoʻllaniladigan toʻqima atoqli ot.

**Genonim**-urugʻ avlod-ajdod va ular tarmoqlarining atoqli oti.

Oʻzbek tili antroponimiyasi tizimida uchta antroponimik qatlam yuzaga kelgan:

- 1.Qadimiy turkiy ismlar qatlami;
- 2.Fors-tojikcha ismlar qatlami;
- 3.Arabcha ismlar qatlami.

Oʻzbek antroponimiyasiga arab tili orqali kirgan qadimiy yahudiy tiliga mansub ismlar: Ayrab, Isroil, Yunus, Muko,Yaqub, Rabbi, Salmon, Shamil, (Mirkomil), Sulaymon, Nuʼmon, Nuh,Yusuf Yahyo, Maryam, Havo//Havvo, Rohila, Zulayho; pahlaviycha ismlar: Bahrom, Sino, Silvush, Suhrob, Humo//Shopur, Nilgun Nilufar Choygun; Soʻgʻdcha ismlar: Ixshiya, Oyqar Chimkent, Shoshiya; Moʻgʻul tilidan olingan ismlar: Bahodir, Botir, Botuniso, Doʻtulu, Toʻman, Chingizxon, Chigʻatoy, Qalmoq,Gʻoʻgʻon. Xitoycha (Tangul), lotincha (Kanalboy) ismlar ham mavjud. Oʻzbek tilida sodda ismlarni sodda deb qarash ham nisbiydir. Chunki,ism bir qator antropoformantlarni qabul qilib, boshqa shaklga oʻtib turadi: Karim-Karimjon, Boʻta-Boʻtaboy, Mengli-Menglixon, Safar-

Safarboy kabi. Odamlar ismini ularning tarqalganligi kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanilishini va bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi. Atoqli ot turlari taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikniturli usullari ham antroponimiyaning tadqiqot manbaidir. O'zbek tili lug'at boyligining katta qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar. Antroponimlar (lotincha antropos) -odam onoma ism, nomlar kishi nomi. Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o'rganuvchi onomastikaning bir bo'limi antroponimikadir. Antroponimlar til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimiy xususiyatlariga ega. Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi. Ismlar eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega. Taniqli tilshunos V.N.Nikonovning aytishicha: "Bir-biridan ajralmas amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir". Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o'rganish qadimiy tarixga ega. Bu sohaga bag'ishlab xalqaro onomastik konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, Butun itifoq onomastik konferensiyalar Ulyanovskiy (1967), Gorkiy (1969), Buxoro (1974) Xiva (1991). Antroponimika masalalari bilan rus tilshunoslaridan A.M.Sobolevskiy, VN.Nikonov, A.B.Superanskaya, S.I. Zinin va boshqalar shug'ullanganlar. Turkologiya, jumladan o'zbek tilshunosligida N.A.Baskakov, G.F. Sattorov, T.Jonuzoqov, R.Qo'ng'urov, J.Muxtorov, E.Begmatov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, I.Xudoynazarov va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, E.Begmatov 1965-yilda "O'zbek tili antroponimikasi" I.Xudoynazarov esa "Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari" (1988) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. 2000-yilda esa N.Husanov "XV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarning muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi<sup>1</sup>. O'zbek tiliga davlat tili maqoni berilgandan so'ng yuzaga kelgan ikki

---

<sup>1</sup>.Анданиёзова Д. "Тарихий антропонимлар таҳлили". Ўзбек тили ва адабиёти журналі, 2014/ 6-сон.

nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzadb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekistonning yangi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi onomastik, jumladan, antroponimik sistemani yanada takomillashtirishni talab qilmoqda<sup>1</sup>. Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining o'ziga o'xshaydi degan notog'ri tushuncha bilan bog'liq. Shu sababli ham kishilar ongida xosiyatli va xosiyatsiz ismlar mavjudligi haqida turli ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma-xil ko'rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko'rinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yishmaydi. Shuningdek, goldarning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni uyg'otadi. Yomon nom esa kishiga baxtsizlik, kasallik, o'lim, ofat keltiradi deb hisoblashadi. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P Shimkevich, Y.L Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni to'plashgan.

**Tabarruk nomlar.** Bolaga ism tanlashda o'tmish ajdodlar, ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlardandir. Bu odatning o'tmishda Saxalin, Bering bo'g'ozi hamda Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd qilingan. Bu odatga O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. O'zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

---

<sup>1</sup>Бегматов Э. "Антропонимлар антропосентрик тадқиқ объекти". Ўзбек тили ва адабиёти журналі, 2013/ 3-сон, 35-б.

## **1. Ism bag'ishlovchilar (memorativlar)**

O'zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi: 1. Osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: Yulduz, Oyxon, Kuntug'mish. 2. Turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: Bo'ron, Yashin. 3. Turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: O'rmon, Daryo. 4. Hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar: Qo'chqor, Lochin. 5. Turkiy qabila va urug'larning nomidan yasalgan antroponimlar, bu nomlarga o'zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi: Do'rmon, Barlos. Ismlar tilaklar (dezirativlar). Bu tip nomlariga quyidagilar kiradi: 1. Ota-onalar chaqaloqning sog'-omon o'sishini, sonining ko'payishi xohlamoq uchun: Ko'pay, O'lmas. 2. Yangi tug'ilgan bola eson-omon ulg'ayishi va oila a'zolari safiga qo'shilib ketishini xohlashadi: Ilash, Qo'ldosh, Yo'ldosh bosishni xohlashadi: O'rin, O'tagan. 3. Chaqaloq ulg'ayib ota-onasining o'rnini bosishni xohlashadi: O'rin O'tagan. 4. Keyingi farzandlarini qiz emas o'g'il bo'lishini xohlashadi: O'g'iloy. O'zbek ismlarining apellyativ asosini taxminiy hisobga ko'ra, arabcha leksemalar (1744 leksema), ikkinchi o'rinda o'zbekcha leksemalar (804 leksema), uchinchi o'rinda fors-tojikcha leksemalar (650 leksema) tashkil qiladi. Bu hisoblar nisbiy taxminiydir. O'zbek ismlarining lug'aviy asosini tashkil qiladigan leksemalar qaysi tilga mansubligi aniqlandi. Endi ushbu leksemalar qaysi tilga mansubligi aniqlandi. Endi ushbu qanday tip leksemalardan tashkil topganini tasnif qilishga o'tamiz. Bunda asosiy tamoyil leksema ism vazifasiga o'tgunga qadar leksik-semantik guruhga mansub bo'lgani asosga olindi.

### **Zoonimik birliklar asosida hosil qilingan nomlar**

**Yovvoyi hayvonlar nomi:** Arslon, Bug'iboy, Bug'ro, Bo'ka, Bo'ri, Bo'ta, Jayraxon, Jayron, Yo'lbars, Kiyikboy, Kiyikbeka, Olqar, Oqbo'ta, Oqbo'ri, Savsar, Sirtlonbek, Takaboy, Shag'al, Qoplon, Qulontoy, Qunduzoy, Ohu, Sher, Uvays (bo'ri), G'azal (kiyik), G'azanfar (sher, Arslon), Haydar (arslon) va boshqalar. Buqa, Bo'ta, Bo'tako'z, Do'non, Qo'ziboy, Kuchukboy, Ko'ppak, Oqtoyloq, Oqto'qli, Oqqo'zi, Serkaboy, Takaboy, Tanaboy, Toybek, Toychoq// Toychiq.

### **Qushlar nomi:**

Lochin, Burgut, Boyqush, Burgutboy, Bo‘zloq, Kaklik, Mayna, To‘timomo, Umaybeka.

### **Ba’zi jonzotlar nomi:**

Ari, Baliq, So‘na, Cho‘tanboy, Zambur, Pashsha, Hasharot.

### **O‘simliklar va ularning mahsuloti nomi:**

Arpa, Boshqoq, Burchoq, Yovshan, Jambiloy, Rayhonoy, Mayizxon.

### **Suv bilan bog‘liq tabiiy obyektlar nomi:**

Buloq, Dengiz, Tengiz, To‘lqin, Jayhun.

### **Samoviy obyektlar nomi:**

Kuntuqqan, Oybek, Oybola, Oybuvi, Oyzoda, Tongcho‘lpon, Tongyulduz, To‘lanoy, Quyoshxon, Hulkar, Osmon, Sitora, Hilola, Safura (nurli yulduz)

### **Fasllar oylar kunlar nomi:**

Yozboy, Yozbeka, Kuzboy, Kuzkeldi, Ko‘klam, Ko‘klamoy, Oqpon, Bahman, Bahora, Navbahor, Shavvol, Sha‘bon, Javza, Kabisa, Qavs, Hamal, Asad, Barot.

### **Yorug‘lik, nur olov tushunchalari nomi:**

Yolqin, Yolqina, Yorqin, Jarqinoy, Oyyorug‘, Ravshan, Ravshana, Ziyo, Munavvar, Munira, Anvar.

### **Ba’zi tabiiy hodisa va stixiyalar nomi:**

Bulutbek, Do‘lboy, Bo‘ron, Toshqin, Quyunboy, Yomg‘irberdi, Chaqmoq, Shabada, Shalola, Nasim.

### **Kasb-hunar mashg‘ulot nomlari:**

Ipakchi, Yilqichi, Ovchiboy, Otchopar, Suvchiboy, To‘pchi, Cho‘liq, O‘qchi, Qo‘yboqdi, Sholikor, Najjora, Rahbar, Rahnamo.

### **O‘tmish davrga oid kasb-korlar nomi:**

Jilovdor, Toychopar, Choparboy, Qo‘shchi, Saroybon, Sarhang, Ruboba, Tojira, Tolib, Bazzoz, G‘avvos, Haddod, Noib.

### **Qabila va elat nomlari:**

Arg'in, Barlos, Jag'alboy, Kaltaboy, Kenagaxon, Qipchoqgul, Qirg'iz, Qozoqboy, Qutchi, //Quchchi, Qo'ng'irod.

### **Ba'zi tasodifiy hodisalar, harakat jarayonlar nomi:**

Yovbosdi, Yovoldi, Yovqaytar, Yovqochar, Ko'chkeldi.

### **Rasm-odat, udumlar nomi:**

Basbib, Basgul, Begona, Yodgor, Yodgora, Mehmon, Mehmonoy, Yetar, Yetargul, Janglish, Jong'il, Istamas, Kirli, Kerakmas, Ochil.

### **Oilaviy-ijtimoiy holatlarni ifoda etuvchi leksemalar:**

Yetim, Joriya, Ibod, (qullar), Kibor (ulug'lar, kattalar), Misir (boy-badavlat), Miskin (kambag'al, faqir), Sag'ir, Ubay (qul, qulcha), Xilvat (yolg'iz, kimsasiz), Yatim (tanho), Mazluma.

### **O'tmishga oid mansab unvon nomlari:**

Begoyim, Bekach, Bibi, Bibisuluv, Boybicha, Boyto'ra, Xonim, Xonimqiz, Cho'riqiz,

### **Son miqdor ifodalaydigan leksemalar:**

Beshim, Yettiboy, Yetmishboy, Beshboy, Yetmish, Yetti Panji, Panjigul, Soniya.

### **Qavm-qarindoshlik tushunchalarini ifodalaydigan leksemalar:**

Akaboy, Achaqiz, Buvi, Dada, Dadaboy, Momobeka, Momosuluv, Otabek, Enaxon, Qizoy, Qizlarsuluv, Bobo, Bobojon, Nevara, Padar, Amma, Valat, Volida, Ibn, Umma.

### **Badandagi biror ortiqcha va notabiiy belgini ifoda etuvchi leksemalar:**

Meliboy, Melixon, Mengberdi, Mengbo'ta, Mengbeka, Mengli, Mengsuluv, Menglisuluv, Barfi, Barfina, Toji, Tojiniso, Muhrboy.

### **Shaxsning rang-tusi va ko'rinishini ifoda etuvchi leksemalar:**

Malla, Mallaxon, Mallaxon, Mallaqiz, Oltinsoch, Oqboy, Oqbola, Oqbuvi, Oqyigit, Zangi, Zulfizar, Zulfiya, Nozik.

**Uy-ro'zg'or va maishiy buyumlar va ba'zi urush qurollari nomi:**

**a) xo'jalik buyumlari nomi:** Arqon, Boltaboy, Boltatosh, Bolg'aboy, Bo'rkboy, Jibak, Jilov, Ipak, Ipaksuluv, Ketmon, Ketmonoy, Ketmongul, Ko'kan, Ko'kanboy, Teshaqul, Toshbolta, Chaqaboy, Chegaboy, Surma, Chinni, Chiroq, Childir, Tabar, Na'lboy.

**b) Kiyim-kechak va mato nomi:**Atlasxon, Ipak//Jibak, Ipaksuluv, Ko'ynak // Ko'ylak, Qalpoq, Qamqa, Jig'a, Silon.

**v)Mustahkamlik timsoli bo'lgan narsalar nomi:**Oltin, Oltinoy, Tilla, Marvarid, Marjon, Billur, Injubeka, Olmosxon, Kumush-beka, Zarbuvish, Zargul, Lojuvard, Javohir, Javhar, Zabarat, Munchoq, Qandil, G'azna Haqiq (qimmatbaho qizil rangli tosh), Sirg'a, Sirg'aboy,Uzuk;

**d) ba'zi harbiy qurollar nomi:** Miltiqboy, Sovut, To'qmoq, Cho'qmor, Xanjara, Shamshir, Ketmon;

**e) oziq-ovqat mahsulotlari nomi va ma'za-ta'm tushunchalarini anglatuvchi leksemalar:** Bolbek, Bolli, Bolbuvi, Boloy, Kishmishoy, Kulchaboy, To'qay, Uzum, Qaymoq, Parvarda, Popukxon Shirmon\\Shirmoy, Asal,Qand,Holva, Totli, Totlibuvi, Totliq, Totliqchi, Chuchuk,Chuchukxon, Shirin, Shakar.

**Ijodiy xislat hamda istak va orzularni anglatuvchi leksemalar:**

**a) Chaqqonlik, dadillik, epchilik:** Dadil, Dadila, Uchqur, Xonchaqqon, Chaqqonboy,Yugurik, Mahorat (epchil)

**b)ma'qul bo'lganlik tushunchasi:** Durustboy, Durustqul, Tavorqul, Munosib, Yaxshigul, Yaxshiqiz, Fayz (yoqimli), Habiba Muxlis( sevgili)

**v) kuchli, jasur g'oliblik tushunchalari:**

Ijoat, Zabardast, Pahlavon, Polvon, Jasorat, Jasur, Miqliboy, Kuch, Kuchli, Maydon, Mansur, Uvays, Quvvat, Qudrat, Javonsher, Mardi, Mardigul, Muzaffar, Jur'at, Devdil, Sherdil va boshqalar.

**g) sabr-toqatli, chidamli,matonatli:**Sobir, Sobura, Kengboy, Iroda, Sokina.

**d) zehnlilik, yetuklik, tushunchalari:**O'ktam, O'tkir,O'tkira, Akmal, Mukammal, Farog'at, Komil, Ziyrakxon, Zehniye).

**e) afzal va ustun turishlik motivi:**Afzal, A'loxon, Soina, Hamida, Muqaddas, Mo'tabar,Oliya, Ashraf.

**y) saxiy, muruvvat, shavqatli, ma'nolari:**Tanti, Xayriya, Xannon, Muhsin, Akrom.

**j) dilkash, mehribonlik ma'nolari:**Mushfiq, Lutfi, Ahil, Dilso'z, Jondo'st, Jonbaxsh.

**i)intizomli sarishta:**Fazilat, Farosat, Vafo, Sadoqat, Muslim, Muntazam, Intizom, Ibodat, Rashid, Yuvosh, Mayin, Mayincha.

**k) poklik, ozodalik:** Farishta, Sofiya, Safura, Tohir, Xanifa, Iffatxon, Pokiza, Sofdil, Oqko'ngil, Oqniyat,

**l) chinso'zlik, ahdida turishlik:** Xarros,Vafo, Rostgo'y, Notiqqa, Saloh.

**m) yaxshi do'st, ulfat:** Nadim, Chinyigit, Eryigit, Dilshod, Anis, Anisa.

### **II. 3. Etnonimlar**

Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bor. O'zbekistonda etnotoponimlar juda katta o'rin tutadi.V.A.Nikonov o'zi ta'riflab bergan nisbiy negativlik qonuniga amal qilib, etnotoponimlar bir on millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning chekka qismida, ya'ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina deb yozadi. Masalan, Ruslarda Russkiye Lipyagi Mordovskiye Lipyagi-Chuvashskie Lipyagi: Russkiy Brod-Tatarskiy Brodkabi juft nomlar ruslar bilan ikkinchi bir xalq aralash yashaydigan hududda paydo bo'lgan. Urug' qabilalar allaqachon tugab ketgan va asosan nuqul ruslar yashaydigan Rossiyaning markaziy ba'zi bir tarixiy etnotoponimlar juda siyrak uchraydi. Insoniyat biologik jihatdan bir butun bo'lsa ham umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy eta borib, son- sanoqsiz guruhlariga bo'lingan.Yer sharida kishilarning xilma-xil guruhlari, jamoalari bor. Ikki kishini ham bir jamoa, shu

bilan birga butun bir mamlakat aholisini ham birjamoal deyish mumkin. Jamoalar juda katta va juda kichik hududni ham qamrab olishi mumkin. Urug'lar, qabilalar eng qadimiy jamoalardir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida qabilalar birlashib elat hosil qiladi.

Qabila nima? Qabila sinf jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Qabila a'zolari bir-birlari bilan qon-qardosh bo'lgan hamda urug' va boshqa mayda guruhlariga bo'lingan. Qabila a'zolari muayyan birlikka ega umumiy hududda yashashgan, iqtisodiy birlikka ega bo'lishgan. Ya'ni jamoa bo'lib ov qilishgan, bir-birlariga yordamlashishgan, yagona tilda gaplashishgan. O'zbek elati urug' va qabilalardan ilk o'rta asrlarda shakllana boshlangan. Oktyabr to'ntarishidan oldingi o'zbeklar tarkibiga kirgan barlos, nayman, saroy qo'ng'iroq kabi urug-qabilalar o'z navbatida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod qavm kabi tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir bo'limning o'z nomi bor. To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, va onim "nom" so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmui etnonimiya etnonimlarni o'rganadigan fan etnonimika deyiladi. Etnonimlar, etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali yaxshi o'rganilmagan sohasi bo'lib, xalqlar millatlar etnogenezi yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi. O'zbek etnonimlari to'g'risida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor. Bu jihatdan Zarafshon vodiysi xarakterlidir. Quyidagi etnonimlar eng ko'p uchraydi. Oytamg'ali (5marta), Arlot-Allot (3) Olmasuvon (3), Olchin (4), Arab-Araba-Arabtepa Arabxona (15), Achamayli-Ochamayli (2) Baday (4), Bag'anali (3) Baymoq Baymoqli (3) Qatag'an (6) Qozoq-Qozoqovul, Qorasiyroq (2) O'zbek xalqining ko'plab urug-qabilalari nomlarning bizgacha yetib kelishida Rashididdin, Abulg'azi Bahodirxon va kabi tarixchilar asarlari, shuningdek, N.V.Xanikov, A.P.Xoroshxin, N.A.Aristov, Logofet, A.D.Grebenkin V.V.Bartold X.Doniyorov kabi zaxmatkash olimlarning ilmiy ishlari kattamanba bo'lib xizmat

qiladi. Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir etnonimlar juda qadimiy so'zlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashiydi. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kishilar bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug' bo'lib, keyinchalik esa hududiy dialektal umumiylik hosil qilib qabila-qabila bo'lib yashaganlar. "Odam", "inson", "o'zimizning kishilar" kabi ma'nolarini anglatgan ar (er), man(men) kabi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bir qancha etnonimlar chindan ham odam", rostakam inson" degan ma'nolarni bildiradi. Masalan, udmurtlar (janubiy udmurtlar) tarixiy manbada ar "odam" shaklida tilga olingan. "o'zbek" so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Ko'pchilik olimlar ko'chmanchi o'zbeklar Oltin O'rda xoni O'zbekxon ismi bilan atalgan deyishadi. Oltin O'rda xoni O'zbekxon ismi bilan atalgan deyishadi. Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila urug'lardan tarkib topgan. Akademik V.V. Bartold so'zlariga qaraganda, dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin XVI asrdayoq farg'onalik mulla Sayfiddin Axsikandiy "Majmuat-tavorix" asarida 92 o'zbek urug'ini tilga olgan. XIX asrning 60-yillarida bitilgan "Tuhvatuh tavorixi xoniy" qo'lyozmasida ham o'zbek urug'larini 92 ta deb ko'rsatilgan. N. Xanikov o'zining "Buxoro xonligi tasviri" kitobida (1843-yil) "Nasabnomai o'zbekiya" ga asoslanib, 97 o'zbek urug'ining ro'yxatini keltirgan. O'zbek urug'lari nomlarining o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Etnonimlar orasida kishi ismlari ham uchraydi. Amir Temur, Bo'ronboy, Jalmat Olloberdi, Fozil, Chig'atoy joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar ham bor. O'zbek urug'larining o'ziga xos etimologiyasi bor. Etnonimlar etimologiyasi haqida turli manbalarga suyanib yozilgan.

**Abdal**-urug‘i Hindiston, Afgoniston va xususan O‘rta O‘siyo xalqlari etnogenezida muhim rol o‘ynagan qadimiy xalq (eftalitlar) suriya yunon manbalarida abdel deb atalgan. Tarixchi Bal‘amiy (Xasr) fikricha, xaytal so‘zi Buxoro tilida “pahlavon”, “jasur odam” degan ma‘noni bildiradi. Shu bilan birga keyingi vaqtlarda abdal deganda “gadoy”, “darvesh” kishi tushuniladi. Shuningdek, artistlar, sozandalar, qalandarlar, maddohlarning jargoni “abdal (abdol) tili” deyilgan.

**Avshar** - qadimiy urug‘lardan biri. Arab geograflari o‘z asarlarida Buxoro yaqinadi Avshar degan qishloqni tilga oladi. Abdulg‘ozi Bahodirxon avshar so‘zini “ishni ildam ishlamoqchi” deb izohlaydi.

**Arg‘in** - bu urug‘ O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan. Maharg‘u qabilasi ham shu bo‘lsa kerak. “Boburnoma”da, o‘zbek urug‘larining dastlabki yozma shajarasi hisoblangan va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmuat-tavorix” asarida keltirilgan o‘zbek elatlari ro‘yxatida bu urug‘ arg‘on shaklida keltirilgan o‘zbek elatlari ro‘yxatida bu urug‘ arg‘on shaklida qayd qilingan. Bu etonim mo‘g‘ulcha arg‘in (o‘zagi arg‘ “durag‘ay”) so‘zidan kelib chiqqan. Arg‘in (arg‘un) so‘zi qirg‘iz tilida hozir ham ana shu ma‘noni anglatadi.

**Asaka**-etonimi O‘rta Osiyoda qadimdan yashagan sak (saka) qabilasi nomi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Ba‘zi bir mulohazalariga ko‘ra, asaka otliqlar degan ma‘noni bildiradi. Asaka so‘zi joy nomlari shaklida ham uchraydi. Masalan, Andijon viloyatidagi Asaka shahri. Qaraqalpog‘iston respublikasi hududida Asakaovdon botig‘i bor. Geologlar Asakaovadonning o‘rni yuqori to‘rtlamchi davrda ko‘ldan iborat bo‘lganligi aniqladilar (ovadon, to‘g‘risi obdon “suv ombori”, “hovuz”).

**Axtachi** - qadimgi urug‘lardan biri. Bu urug‘ vakillarini Bobur ham tilga olgan. Axtachi esa “otboqar”, “jilvador” (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma‘nosini beradi. Etonimlar orasida kishi ismlari ham uchraydi: amir-temir, bo‘ronboy, jalmat, ollaberdi, fozil, chilg‘atoy; joy

nomlaridan kelib chiqqan etonimlar ham bor: beshqo‘ton, buloqboshi, soylik, uranhji, qayirma, qorabuloq, sharqiyalik (Shohruxiyalik-Shohruhiya Ulug‘bekning otasi Shohruh nomi bilan atalgan shahar nomidan) va boshqalar. O‘zbek etnoninlari semantik jihatdan bir necha guruhga bosish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnomimlar: qirsadoq (sadoq-o‘qdon), iyarchi (egarchi - egarsoz), gilambofli (gilam to‘quvchi); sayot - (sayyod-ovchi), tulkikichi, zargarlik, miirshkor, po‘latchi va boshqalar. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi bor. Shuni aytish kerakki, etonimlar etimologiya haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan. Binobarin, uzil-kesil variantlar emas, chunki, har qanday etimologiya ham nisbiydir. Solin - yuz urug‘ining bir tarmog‘i. solinlar Zarafshon vodiysida, Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin, G‘allaorol tumanlarida qayd qilingan. Quloqning uchki yumshoq qismi solin (solinchoq, solinchak) deyiladi. Soioqli yuz qabilasining tarmoqlaridan biri. So‘log so‘zining bir necha ma‘nosi ma‘lum: 1) qora jigar, taloq; 2) qo‘y-echki qulog‘ining biron joyini kesib en solish, tamg‘alash usullaridan biri. Quloqning oldingi tomoni o‘yib kesilsa oldingi sulog‘, keying tomoni o‘qib kesilsa keying so‘loq deyilgan; 3) Aravaning o‘qiga solinadigan temir.

**Tobin**-mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, ellik demakdir. Umuman turk-mo‘g‘ul qabila va urug‘larida raqam (son) bilan ataladigan nomlar uchraydi. Masalan, yuz, ming, do‘rman durbon -mo‘g‘ulcha dort-“to‘rt”) va hakoza. Tobin urug‘larida bo‘lgan qozoqlar XIX asrda Sirdaryo bilan Ustyurt yaylasidan Tobol daryosi va Orenburg dashtlarigacha bo‘lgan hududida yashaganlar. Tobinlar, shuningdek, o‘zbeklar, boshqirlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham uchraydi.

**Tortuvli** - qanjig‘ali urug‘ing bir tarmog‘i. Toruvli urug‘ining qo‘ng‘irot urug‘ining ajdodi Qo‘ng‘irot otaning kichik xotinidan tarqalgan ekan; Qo‘ng‘irota keksayganda kichik xotini o‘g‘il tug‘ib, tortuv (tortiq -sovg‘a) qilgani uchun, undan tarqalganlar tortuvli deb atalgan ekan. **Uyaz (uyas)**

marqa urug'ining 16 tarmog'idan biridir. Uyaz boshqa urugitar tarkibiga ham kirgan. Masalan, solin urug'ining bir shoxi uyasidan deyilgan. Uyaz (uyas) joy nomlari shaklida ham uchraydi. Qadimgi tilshunos olimlardan Abu Hayyon al-Andalusiyy va Jamoliddin Tusiy asarlarida uyaz so'zi "pashsha, chivin deb izohlagan. Qovchin-o'zbek urug'laridan biri. Ba'zi fikrlarga ko'ra qovchin yoki qiishchi bir urug'dir. Akademik V.V. Bartold fikricha qovchin so'zi dastlab urug' yoki qabila nomi boyigan emas, balki "qo'shin qo'mondoni" yoki "qo'shin" ma'nosi anglangan. Qovchin so'zining "xo'jayin", "mehbon" degan ma'nolari ham bor. Qovchin joy nomlari shaklida uchraydi. Chunonchi, Yangiyo'l shahrining oldingi nomi Qovunchi ham aslida qovchin bo'lgan bo'lsa kerak. Shuningdek, Samarqand tumanida qovchinon (qovchinlar) nomli qishloq ham bor. Qurquzon - o'zbeklarning bir urug'i Samarqand va Jizzax viloyatlarida qayd qilingan. Qurqazon ash qoraqozon bo'lgan degan fikr bor. Qoraqazon so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: 1) bir bajaradigan; 2) harbiy xizmatga chaqirilgan kishi. No'kar (navkar)lar muntazam armiya hisoblangan; qoraqazon (yoki qora cheriklar) esa harbiy xizmatdan tashqari o'z qo'mondalarinihng ekin-tekin ishlariga yordam bergan, mol-hollariga qaragan. O'tgan asrning 20-yillarida aholi ro'yxati natijasida O'zbekiston aholisining urug'-qabilalari to'g'risida, mukammal material to'planadi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi. Etnonimika- "Nomshunoslik masalalari"ning bir bo'limi. Etnonim- qabila, urug', xalq nomi 1. Etnonimlashuv so'zning etnonimga aylanishi. "Umumiy etnonimika" fanning dunyoda mavjud va yo'qolib ketgan xalq qabila, urug' elatlarning nomlarini ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish yo'lidan boradigan bir sohasi. Xususan etnonimika sifatida "O'zbek etnonimikasi ni ham e'tiborga olinishi mumkin 2.." "O'zbek etnonimikasi" xususiy etnonimikasi tarixi", 3.: 2) "O'zbek etnonimikasi" ning bugungi holati.

## II.4. Gidronimlar

Gidronimiya-daryolar ko'llar dengizlar soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar sharsharalar nomlari. Barcha suv obyektlarining nomlari gidronimlar deyiladi. (Yunoncha "hidro" -suv, "nom"-nom). Okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a quduqning har bir suv obyektidir. Suvsiz hayot yo'q. Yer sharida dastlabki, hayot ham suvda, okeanda paydo bo'lgan degan fikr bor. Toponimikaning bo'limi-gidronimika suv obyektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadi. Yer shari yuzasining qariyb 71 foizi 4ta Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlari egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari dengiz deyiladi. Quruqlikda suv to'lib qolgan chuqurliklar ko'l deyiladi. Ba'zan o'ta katta ko'llar dengizlar deb yuritiladi. (Kaspiy dengizi,Orol dengizi, Shimoliy Amerikadagi Buyuk ko'llar Rossiyadagi Baykal ko'li). Oqar suvlar katta-kichikligiga qarab,bir necha turga bo'linadi.Yer osti va yerusti suvlaridan hosil bo'ladigan katta oqar suvlar daryolar deyiladi. Dunyodagi eng katta daryolar sifatida Janubiy Amerika, Amazonka, Shimoliy Amerikada Missisipi, Xitoyda Yantszi, Amudaryo, Sirdaryo qayd etilgan.Kichikroq daryolar soylar, kichik soylar esa jilg'alar deyiladi. Daryo yokisoyga qo'shiladigan suvlar irmoqlar,daryo yoki soydan ajralib chiqadigan ariq yoki suvlar esa tarmoqlar deyiladi. Qo'lda qaziladigan katta suv yo'li kanal yoki anhor (Xorazmda arna) deb, kichik sun'iy suv yo'li ariq rud (ro'd) deyiladi. Bu so'zlardan har biri Respublikamiz hududida bir qancha gidronimlar tarkibida uchraydi. Masalan,nahr atamasi nar yoki nor shaklini olgan.Hozirgi Samarqand viloyatidagi Zarafshon daryosidan boshlangan. Narpay Kanali O'rta asrlarda Nahri Fay deb atalgan,undan sal yuqoriroqdan suv oladigan bir kanal hozir Payariq deb yuritiladi, Nahri Fay gidronimining o'zbekcha shaklidir. Andijon viloyatida Shahrixon soyidan suv oladigan Ulug'nor kanali asli Ulug'nahr demakdir.Toponimistlar gidronimlarni eng Qadimiy toponimlar deb baholashadi. Haqiqatan ham shunday,Masalan, Amudaryo bilan Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osori atiqqa yodgorliklarining yoshi bilan bellasha oladi. O'rta Osiyodagi eng yirik daryo Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi

Gerodot asarlarida Araks deb, keyinroqo'tgan yunon tarixchilari asarlarida Oks yoki (Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (ba'zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi- O'kuz "daryo" so'zining o'zginasi deb hisoblaydi. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranza degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni Jayhun "jo'shqin (daryo)" deb atashgan Jayhun yahudiylarning muqaddas kitobi "Tavrot"da tilga olingan Jixon daryosiga nisbatberib atalgan,degan fikr ham bor. Rus olimi V.V.Bartold arablar Jayhun bilan Sayhun (Siradaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayhon va Sayhon daryolari nomlari bilan atashgan bo'lsa kerak deydi. O'rta asr tarixchisi Gardiziy "Jayhun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot" degan edi. Bu to'g'ri fikrga o'xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turgan Shahrud Shohrud emas-rudi shahri Buxoroning qisqartirilgan shakli aslida Shahrud kanalidagi uchta to'g'on boshining biri ham Jayhun deyilgan.

**Amudaryo**-qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) bo'lgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi malak nomi deb yozgan<sup>1</sup>. Professor H.Hasanov ma'lumotlariga qaraganda, Pokistionda Amudaryoning hozirgi nomi O'rta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar bor. Amudaryoning hozirgi nomi O'rta asrlarda mavjud bo'lgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri hozirgi (Chorjo'y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo'lishi ham mumkin. Akademik V.V.Bartold "Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak" degan farazni oldinga suradi. Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaroq, turg'un narsaning amul deyilishini aytib o'tish mumkin. ("Devonu-lug'otit-tuk" I tom,104-bet). Tarixiy manbalarda Amudaryoning Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi kabi nomlari uchraydi.

---

<sup>1</sup>Мамедов А. "Халқ номлари жой номларида" 1994.

**Sirdaryo**-nomlari ham ko‘p bo‘lgan. Qadimgi yunon tarixchilarning asarlarida Yaxartes (Yaksart), ba‘zan Tanais, zarbushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto”da Danu, Yaosh, X asrda yozilgan “Hudud ul-olam” qo‘lyozmasida Xashart, Runik turkiy yozuvlarda Yenchuo‘g‘uz, Firdavsiyning ”Shohnoma”sida va Hamdalloh Qazviniyning “Nuzhat-al qulub” (Qalblar huzuri) 1339-yil asarida Gulzarriyun, arablar kelgandan keyingi ko‘pgina solnomlarda Sayhun, arab geografi Ibn Xurdodbeh asarlarida (IX asr) Xishart yoki Qang‘ar, Beruniyda Xasart shakllarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda u qaysiyerdan oqib o‘tishiga qarab, Obi Farg‘ona (Farg‘ona daryosi), O‘zgan daryosi, Obi Xo‘jand, Nahr ash-Shosh (Shosh yoki Choh daryosi), Banokart daryosi kabi nomlar bilan atalgan. Shuni aytish kerakki, Yaxartes va Yaksart ham, Xashart va Yenchuo‘g‘uz ham Marvarid (Inju) daryosi degan ma‘noni anglatgan. Xo‘sh, daryoning hozirgi nomi Sirdaryo qachon paydo bo‘lgan? Ba‘zi olimlar (V.V. Bartold, S.G. Klyashtorniy, H. Hasanov) Silis-Sirso‘zining aynan o‘zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq, o‘rta va yuqori oqimlarda Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan. XIII-XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo‘jixonning o‘g‘illari vanabiralarining o‘rdasi Siro‘rda deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri 2000-yil davomida xalq og‘zida saqlanibgina kelmasdan, ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari Movarounnahrni bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) bo‘lib qolganini ko‘rsatadi. Sirdaryo so‘zining ma‘nosi nima? Daryo nomi Sir, ya‘ni “rang” bo‘yoq. “Sariq daryo” loyqa suvli daryo), “Serob” (Sersuv “Sirdaryo” (tog‘ sirtlaridan tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma‘noni bildiradi deyuvchilarning fikri noto‘g‘ri ekanligini prof. H. Hasanov aytib o‘tgan edi. Bu azim daryo shu atroflarda yashagan Sar (silis-sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin.

**Zarafshon**-haqiqatan “Zar Sochuvchi” daryo. Daryo o‘zanidagi qumda oltin zarralari bo‘lganidan daryo shunday nom olgan. Po‘stak yoki uzun patli gilam ustiga qum to‘kib, bosim bilan qumdan oltin ajratib olishgan. Lekin Zarafshon daryoning keyingi asrlarda paydo bo‘lgan nomi. Miloddan oldingi yunon

tarixchilari asarlarida Polimet, oʻrta asrlarda Obi Koʻhak-koʻhak suvi deb atalgan. Koʻhak- Samarqand shahri yaqinidagi Choʻponota tepaligining tojikcha nomi (koʻhak-togʻcha, qir). Bu tepalik arab geograflaridan Ibn Havqal (Xasr) asarlarida Jabali Koʻhak deb atalgan (arabcha jabal-“togʻ”). Daryoning Namik, Roʻdi, Masof, Nahri, Sugʻd, (Obi Sugʻd), Sharh, Haramkom, Rudi, Somjon kabi nomlari ham boʻlgan.

**Qashqadaryo-**gidronimi katta suv obyektlarining nomlari qadimiy boʻladi degan fikrning toʻgʻri ekanligini isbotlaydi. Bu daryo nomining kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan boʻlsa ham gidronim etimologiyasi toʻgʻri aniqlangan deb boʻlmaydi. Qashqa soʻzining maʼnosi koʻp. Akademik V.V. Bartoldning Qashqadaryo Kesh (Shahrisabz) shahri nomining fonetik oʻzgarishi oqibatidir, degan fikri toʻgʻriga oʻxshaydi. Kesh shahri nomi asli Kashboʻlgan, chunki shaharning epiteti ”Kashi-Dilkash” edi. Arab geograflari asrlarida Qashqadaryo (Xasr) Keshkeroʻd deb, Temur davrida Xashqa (Xashqaroʻd) deb yuritilgan va keyinchalik Qashqaryo boʻlib ketgan.

**Surxondaryo-** nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha qolayotir. Tojikcha ”Qizil suv” -Denov shahrigacha Qizilsuv ataladi). Surx yoki Surxi degan turkman urugʻi ham bor. Oʻrta asrlarda, Amir Temur tarixida ham Chagʻonrud deb atalgan. V.V. Bartold moʻgʻul tilida chagʻon “Oq” ekanini aytgan (roʻd-daryo). Respublikamiz daryolarini havzalarga boʻlsak, koʻpchilik daryolar Sirdaryo (Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, Kalas, Aravansoy, Oqbura, Isfayram Soy, Shohimardon, Soʻx Isfara, Xoʻjabaqirgʻon, Oqsuv, Poshshota, Oqsuv, Kosonsoy, Gʻovasoy) va Amudaryo havzasiga (Zarafshon, Qashqaryo, Gʻuzor Daryo, Sunxondaryo, Toʻpolondaryo, Sheroboddaryo) kiradi. Bu daryolar, soylarning qancha irmoq va tarmoqlari bor. Bulardan tashqari, qancha koʻllar (Orol dengizi, Arnasoy koʻllari va boshqa) suv omborlari (Kattaqoʻrgʻon, Janubiy Surxon, Chimqoʻrgʻon, Chorvoq, Toshkent dengizi, Quyimozor va bosh) sanoqsiz quduqlar ham mavjud. Quduqlarni hisobga Olmaganda gidronimlardan har birining etimologiyasi haqida toʻxtalib oʻtishning iloji ham hojati ham yoʻq deb

hisoblaymiz. Bundan tashqari suv obyetlarining nomlarini hosil qilgan soʻzlarni sanab oʻtish va iloji boricha, ularning maʼnosini tilga olish, maqsadga muvofiqdir.

### **gidronimlarni hosil qiladigan atamalar**

Akvatoriya- (lotincha aqua-suv)-suv bilan qoplangan maydon.

Akveduk- (lotincha Aquaeductus-suv quvuri)- ariq, jar, yoʻllar ustidan oʻtkazilgan osma quvur.

Anhor-(arabcha, birligi nahr) - katta ariq.

Arashon( sanskritcha rasayana-obi hayot)-issiq mineral suvli buloq.

Ariq-(ar-qadimiy eroniy tillarda oqmoq feʼlining oʻzagi, yaʼni “suv”) -suv yoʻli. Arna -Katta kanal (Mirzachoʻl regoinida esa-jar).

Artezian quduq-parmalab kovlangan va suv otilib chiqadigan teran quduq.

Afdoq-katta ariqdan chiqarilgan tarmoq (Buxoro).

Badoq, badoq-ariqdan boshlangan tarmoq (q.Afdoq).

Balchiq-suyuqroq loy(q: chalchiq). Band-Togʻon. Botqoq- doimo yoki uzoq vaqt zax boʻlib yotadigan joy.

Boshot-(bashat, tosh boshot-tosh orasidan chiqadigan buloq) buloqcha(mashat shakli ham bor. Fargʻona vodiysi.

Buloq-yer ostidan chiqadigan suv manbai.

Bogʻat, Bogʻot-ariqdagi toʻsiq, koʻtarma

Boʻgʻoz-ikki suv havzasini birlashtiradigan suv yoʻli

Vodoprovod- tindirilib xlorlangan va kislorodga boyitilgan hamda ichishga yaroqli suv oqiziladigan truba;

Guzar- daryodan kechib oʻtiladigan joy kechuv.

Guldirama, guldurovuk, guldurov, gurullovuk, gurkirov-katta sharshara.

Dayravot-daryo boʻyidagi joylar.

Dam- suv ravon oqmaydigan, damlanib qoladigan joy.

Daryo-tabiiy oʻzandan oqadigan katta suv.

Daryoliq-bir zamonlar daryo oqqan soylik

Dargʻot- suv taqsimlagich inshoot

Dengiz- O‘zbekistonda keng maydonni egallagan suv havzasi.(Orol dengizi)  
 Suv ombori Toshkent dengizi)  
 Duob, Duoba, Dug‘oba, Duvova-ikki suv qo‘shilgan joy.  
 Dyuker-(nemischa duker)-yo‘l, kanal,daryo, daryo tagidan o‘tkazilgan  
 Simli suv quvuri (yana q. qaynama).  
 Do‘lob- suvni balandga ko‘tarib beradigan moslama.  
 Yob, yop, yab, yap-ariq (Xorazm)  
 Jayhun- jo‘shqin daryo,azim daryo; Amudaryoning arabcha nomi; mashhur  
 daryolar-Amudaryo (Jayxuni Xorazm); Sirdaryo (Jayhuni Chochiy); Furot  
 va Dajla.  
 Jilbuloq,jilibuloq-iliq suvli buloq (qishda).  
 Jilg‘a-jildirab oqadigan soy.  
 Jimbuloq-(jinbuloq)-kam suvli buloq.  
 Jinnisoy(jinnisoy)-o‘qtin o‘qtin kuchli toshib turadigan soy (tentaksoy).  
 Jonabuloq-qiyoq yerdan chiqqan buloq.  
 Jorma,yorma-yerni yorib ochilgan ariq,quduq.  
 Je- (jenov “Yangi ariq”) q.Juy.  
 Juy; jo‘y-soy ariq  
 Jo‘ybor- ariqsoy, ariq soylar ko‘p joy.  
 Jo‘yak-(joyHak)-ikki pushta orasidagi ariqcha.  
 Zax-Zak (Xorazmda-zey)-Sernam joy.  
 Zaxkash 1)sernam zax joy,2) zovur-zaxni qochirish uchun qazilgan ariq (to-  
 Jikcha zah-kash- “zax tortqich”) (Buxoro).  
 Zag‘orkash-zovur oqava tushadigan ariq,q.Zaxbur.  
 Zaxbur- zax suvi oqadigan ariq zovur; zovur ( tojikcha zah-zax,buridan  
 “Kesmoq”bu o‘rinda “tortmoq”)-zax suvini tortib olish uchun qazilgan  
 ariq.  
 Izza-sernam,zax joy.  
 Irmoq-daryoga qo‘shiladigan soy,jilg‘a.

Kavsar-toza, zilol suv.

Kechik-kechuv-daryodan, katta soydan kesib o'tiladigan joy.

Kom- ariq (Buxoro).

Koriz-bir-birlari bilan yer ostida birlashtirilgan quduqlar, yer osti kanali

Ko'k suv -zilol suv,tiniq suv.

Ko'l-kichikroq tabiiy suv havzasi.

Ko'lmak-halqob suv.

Ko'lob (q).Ko'lmak.

Ko'rbuloq, so'qirbuloq yog'in kam yillari qurib qoladigan buloq.

Nahr-katta ariq (nar, nor shakllarida ham uchraydi, masalan, Narpay,Ulug'nor kabi). Naynova- qamish,g'arovdan yasalgan nov; non-suv oqadigan o'zan, tarnov.

Nova-suv oqadigan ariq,mol suv ichadiganyog'och ariq.(q.nov)

Novadon-yopiq nov.

Ob- suv,daryo,soy.

Obdon-ko'lmak, qoq.

Obi rahmat, obi naysan-rahmat suvi, navro'zdan ikki uch kun oldin yog'adigan barakali yomg'ir (ziroat uchun obi hayot hisoblanar ekan).

Obi siyo-qora suv, tekislikdagi bir necha buloqning suvidan hosil bo'lgan qoramtir suv (q.Qorasuv).

Obod (aynan "suvli joy")-o'zlashtirilgan sersuv joy.

Obxona-quduq yonidagi hovuz.

Obshor-(obshar-sharshara)-sersuv joy, suvning etagi.Olish,alish-katta ariqning qulog'i ariqdan suv olinadigan joy.

Osma quvur- q. Akveduk. Otquduq-suvi ot yordamida tortib olinadigan quduq.Oqdaryo eski o'zanndan oqib turgan daryo(kanaldan-yangi ariqdan oq-qan daryo qoradaryo).

Oqova- partov suv.

Oqsuv- qor-muzliklardan suv olib ko'pirib tez oqadigan oqish suv.

Poynov- ariq,hovuz kabi suv obyektlarining suv oqib chiqib ketadigan tomoni etagi.

Rud-q.ro‘d.

Rudak-q.ro‘dak.

Rudxona-q.ro‘dxona. Ro‘d-soy daryo. Ro‘dak-kichik soy.

Ro‘dxona-daryo soy o‘zani. Sel -toshqin suv .

Selbur-sel urib ketgan joy. Selbur-sel urib ketgan joy.

Selga- q.selgoh

Selgoh-sel oqadigan soylik. Seldara- sel kelib turadigan dara.

Selroha -sel yo‘li, sel o‘zani. Selxona-toshqin suv to‘planib qoladigan soylik.

Soy-kichik daryo. Suv tabiiy suyuqlik; daryo, soy (tarixiy asarlarda su varianti ham bor: Ko‘hak suvi-Zarafshon, Xo‘jand suvi-Sirdaryo).

Suv-ombori (obi ombor) -ko‘p suv to‘planadigan chuqur joy. Suvlik-akvatoriya. Suvot, Suvlot-chorva mollari suv ichadigan joy.

Tagob, takob, tagop -yer osti suvi chiqib turgan joy, soylik, o‘zan; bir ariqdan suv ichadigan maydon.

Tezob- tez oqadigan soy. Telba suv-o‘zanini o‘zgartirib turadigan soy, jilg‘a

Tomchi-suvi qoyadan tomchilabgina tushadigan buloq.

Tosh qoq- tog‘larda, qoya o‘yiqqlarida to‘plangan suv (q.Qoq).

Toshqin-daryo, soy suvining o‘zandan chiqib tevarak- atrofni suv bosishi.

Xotinsuv-suvi miqdori bir o‘zgarib turadigan kamsuv soy, jilg‘a.

Chalchiq- suyuq balchiq.Chashma-buloq.

Sharaqsoy-sharillab tez oqadigan soy.

Sharildoq, shaldiroq, sharilloq, sharillovuq, sharlovuq, sharshar- sharshara

Sharsharak- tepadan sharillab tushadigan suv, sharshara.

Shalola-( kitobiy so‘z,xalq og‘zaki ishlatilmaydi).

Shaxob-Shaxobcha-daryo yoki soyning tarmog‘i.

Shahrud-shaharni suv bilan ta‘minlaydigan kanal,nahr

Shohro‘d- katta daryo,kanal.

Ersuv-(erkak suv) suvi yil bo‘yi kamaymaydigan,uzoqqa oqib boradigan soy  
Jilg‘a (q.Xotinsuv).

Yuguruksoy- tez oqadigan soy;

O‘jar- suv-tez-tez toshib turadigan suv,soy,o‘zak-jilg‘a,tarmoq; o‘zan-soy,  
daryo vodiysi, suv yo‘li;

O‘kuz -o‘giz,o‘g‘iz-katta oqar suv, daryo, 2) Amudaryoning qadimiy turkiy  
nomi.Qayirma- suv qayrilib oqadigan joy,muyulish.

Qayir -suv labiga yaqin pastlik yerlar.

Qaynama- 1) girdob; 2) yo‘l tagidan o‘tgan quvurdan qaynab chiqqan suv;q.  
Dyuker.

Qaynar buloq-suvi otilib qaynab chiqadigan buloq.

Qoradaryo-sun‘iy o‘zandan oqizilgan daryo, kanal,q.Oqdaryo

Qoq-cho‘llarda bahorgi yog‘ingarchilik vaqtida suv to‘ladigan sayoz botiq.

Quvur-suv oqiziladigan truba.

Qudug -ter ostidan suv olinadigan chuqurlik.

Qudugcha -quduq ko‘p joy.

Quloq-ariqdan,anhordan suv chiqariladigan joy.

Qo‘l- soyniing irmog‘i yoki tarmog‘i

Qo‘lat-soylik. Havza-suv jala yoqqanda soylik jarlikdan toshib oqadigan suv,  
Hovuz- kichik suv ombori.

Xorazmdagi suv havza nomlari shovot kanali, Qirg‘iz yopi, Turkmanyormish  
kanali, Amudaryo, Tuyamo‘yin suv ombori, G‘ovuq ko‘l.

## **II.5.Boshqa turdagi onomastik birliklar**

### **A) Fitonimlar**

**Fitonimlar**-o‘simliklar nomlari. Fitonimiya o‘simlik nomlari majmui bo‘lsa,  
Fitonimika esa tilshunoslikning fitonimlarni o‘rganuvchi bo‘limi sanaladi.  
Fitonimikaning umumiy va xususiy ko‘rinishlari bor. Umumiy fitonimika bugungi  
dunyo zaminidagi o‘simliklar dunyosini ilmiy me‘yorlarda tadqiq etish yo‘lidan

boradigan sohadir. Xususiyy fitonimikaning alohida bir ko‘rinishi sifatida O‘zbekiston Respublikasi zaminidagi o‘simliklar nomlari majmuini “O‘zbek nomshunosligi” va “Nomshunoslik masalalari” fanlarining ilmiy-nazariy dalillari vositasida tadqiq qiladigan “O‘zbekiston fitonikasi”ni ko‘rsatish mumkin. Mamlakatimizdagi o‘simliklarning barcha xususiyatlarini olimlar o‘rganishgan. Fitonimlarning ko‘pchiligi dorivorligi bilan ajralib turadi. Abu Rayhon Beruniyning “Saydana” asarida yetti yuzga yaqindorivor giyohlar nomlari tasniflangan. Shuning uchun ular fitonimlarning nomlarini ham ma’lum darajada e’tiborga olishsa-da, ularning nomlari yuzasidan tadqiqotlar olib borishmaydi, balki o‘simliklar bilan ish olib borishadi. Shuning uchun fitonimlarning nomlarini o‘rganishda ikkita obyektga murojaat qilish foydadan holi emas: 1) Bevosita o‘simlik nomlarini o‘rganish uchun ular o‘sadigan joylarda yashayotganlardan so‘rab surishtirish; 2) biologlar tomonidan o‘simliklarga bag‘ishlab tayyorlangan kitob-o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va lug‘atlarni o‘rganib chiqish, ularda qo‘llanilgan o‘simliklar nomlarini o‘zgarishsiz yozib olish. O‘zbekistondagi fitonimlarning nomlanishini haligacha ilmiy va amaliy jihatdan ham jiddiy tarzda o‘rganilmagan. Masalan, mamlakatimizda o‘simliklar sho‘ro davrida ruscha aytilgan hozir ham ularning ruscha nomlanishi qo‘llanadi-yu, o‘zbekcha nomlanishiga e’tibor negadir jiddiy emas. Tol, Terak, Chinor, O‘rik kabi bir qancha fitonimlar ko‘proq uchraydi, shuning uchun ular toponimlashib, fitotoponimga ham aylangan. Bunga quyidagilar misol bo‘ladi: Qo‘shitol, Qatortol, Qo‘shterak, Terakli, Chinor, Chinorli, O‘rikkapa, O‘rikzor, O‘rikli va boshqalar. Bu nomlarda tol, terak, Chinor, o‘rik so‘zlari topoasos vazifasini bajargan. “O‘zbek fitonimikasi” umumiy fitonimikaning ko‘rinishi sifatida quyidagitarqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan: 1) “O‘zbek fitonimikasi” tarixi; 2) “O‘zbek fitonimikasi”ning bugungi holati. Hozirgi vaqtda o‘zbek fitonimlari lug‘ati shakllangan bo‘lib, uni mukammal shaklga keltirish zarur. Fitonimlar ham so‘zlardan shakllanadi, ammo barcha so‘zlar fitonim bo‘lavermaydi. Ular qanday leksik birliklardan tashkil topganiga ko‘ra ikkita katta guruhga bo‘linadi: a)

umumturkiy va o'zbek tili so'zlaridan tashkil topgan fitonimlar; O'zlashgan so'zlardan shakllangan fitonimlar. Shuning uchun ularni ilmiy asoslarda o'rganish ularga xos nomlanish qonuniyatlarini ochib beradi. O'simlik nomlarini ifodalovchi lug'aviy birliklarga nisbatan lingvistik tadqiqotlarda o'simlik nomi, o'simliklarni ifodalovchi leksemalar, o'simlik otlari, o'simliklarni atovchi otlar, botanik terminlar, fitonim, fitonimik leksika, floristik leksika kabi terminlari qo'llangani kuzatiladi. Bu birliklardan ayrimlarining ma'no mundariyasi, o'zaro farqi G. Ne'matovanning dissertatsiyada tahlil qilingan.

1. Fitonim grekcha Phuton- o'simlik + onoma- atoqli ot) Bionim (yun. biog- bios, hayot+onoma-nom)lar. Fitonim termini ilmiy neologizm sifatida rus tilshunosligida XX asrning 70-yillarida yuzaga kelgan, keyinroq o'zbek onomastikasiga ham o'zlashgan. Masalan, O'zbekistonda o'rikning Ahroriy, Subhoni, Gulungi, Ko'rsodiq, Xurmoi, Isfarak, Javpazak, Oqo'rik, Shalax, Ruhi Juvanon, Mohtobi kabi nomlari bor.

2. Mazkur nomlar o'rik apellyatividan farqli o'laroq o'rik navlarini ifodalovchi maxsus atoqli nom sifatida fitonimlardir. O'zbek tilshunosligidagi onomastikaga oid ilmiy manbalarda fitonimika sohasi o'rganadigan masalalar ko'lami ham aniq belgilanmagan va ko'rsatilmagan. Bizningcha, fitonimika o'rganadigan ilmiy-nazariy va amaliy masalalar keng. Fitonimika fitonimlar bilan bog'liq quyidagi masalalarni:

- 1) o'simliklarning atoqli nomlari-fitonimlarning paydo bo'lishi va shakllanishining lisoniy, nolisoniy omillarini;
- 2) o'simliklarning nomlanishiga doir tarixiy, xalqona an'analarni;
- 3) fitonimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlarini va fitonimlar tarkibidagi vazifasini;
- 4) o'simliklarning nomlanish tamoyillarini;
- 5) fitonimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda fitonimlardagi lisoniy o'zgarishlarni;
- 6) fitonimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini;
- 7) fitonimlarning morfemik va yasaliş modellarini;
- 8) tilning apellyativ leksikasi bilan fitonimik leksikasi munosabatlarini;
- 9) fitonimlarning boshqa bionim turlari: antroponimlar va zoonimlar, ornitonimlar bilan munosabatini va bundagi vazifaviy o'tishlarni;
- 10) folklor, tarix botanikaga oid asarlardagi va qadimiy qo'lyozmalardagi fitonimlarning yaratilishi bilan bo'g'liq ma'lumotlarni;
- 11)

fitonimlarning mahalliy lahja va shevalarga oid xususiyatlarini; 12) fitonimlarning etimologiyasini; 13) fitonimlarni tasniflash bilan bog‘liq ilmiy va amaliy masalalarni; 14) fitonimik xarita va lug‘atlar tuzish tamoyillarini o‘rganishi lozim. Botanika faniga oid tadqiqotlarga, o‘simlik nomlarining ma’no-mohiyatiga ko‘ra fitonimlarni dastlab, quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lish mumkin: 1) Daraxt nomlari: xurmo navlari: Vaxsh Xiakume, Sharq xurmosi 2) O‘t-o‘lan nomlari: beda dukkakli o‘simlik “Toshkent-1”, “Vaxsh-233”, “Yettisuv”, “Xiva”, “O‘zgan” kabi 3) Poliz ekinlari nomlari. Bodring navlari: “Gulnoz”, “Navro‘z”, “Omad”, “Marg‘ilon-822” kabi 4) Gul va Buta nomlari: qalampir navlari: “Marg‘ilon 330”, “Nafis”, “Kelin tili” navlari. 3. Uzumchilikka oid ilmiy, ilmiy-ommabop manbalarda, ko‘pincha uzum navlari o‘z ichida uch guruhga bo‘linadi: 1) xo‘raki: “Nimrang”, “Parkent”, “Kattaqo‘rg‘on”, “Sultoniy”, “Charos”, “Kitob”, “Surxaki”, “Husayni”, “Qorajanjal”, “Chillaki”, “Daroyi”, “Xo‘ja, Ahroriy”, “Rizamat” kabi; 2) mayizbop: “Oqkishmish”, “Shakarangur”, “Sultoniy”, “Kattaqo‘rg‘on”, “Nimrang” kabi 3) vinobop: “Baxtiyoriy”, “Tarnov”, “Risling”, “Bihishti” kabi. Fitonimika onomastikaning bir bo‘limi sifatida o‘zining o‘rganish obyekti va predmetiga ega. Demak, fitonimika ham tilshunoslikning nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sohalaridan biri hisoblanadi. O‘simliklarning nomlari fitonimlar, ularning majmui fitonimiya deb yuritiladi.

## **B) Zoonimlar**

Nomshunoslikning hayvonlarga qo‘yilgan qo‘yilgan atoqli otlarini o‘rganuvchi tarmog‘i. Hayvonlarga qo‘yilgan atoqli nomlar. M. Koshg‘ariyning “Devonu-lug‘otit-turk” asarida o‘simliklarga qaraganda hayvon nomlari ancha ko‘p. Arslon lochin, qulon, kirpi, (tipratikon), qarg‘a, burga, tilku (tulki), quzg‘un qarsaq (tulkining bir turi), tartar (qush), tavishg‘an (quyon), qo‘y-qo‘yin, qoraqush, bars (qoplonning turi). “Devon” da bir qancha hayvonlarning eski, turkiy nomlari keltirilgan. Jumladan, yag‘an-fil, kish-sobol, tegin-olmaxon, inak-sigir, bulan-los, sanduvach-bulbul, chabaq-mayda baliq va boshqa. Zoonimika-zotli hayvonlarga

atab qo'yilgan (uy hayvoni, zoologik bog', sirk, qo'riqxonalaridagi shaxsiy qarovdagi) qo'yilgan maxsus laqab nomlar. Nomshunoslikning hayvonlarga atab qo'yilgan atoqli otlarni o'rganuvchi tarmog'i zoonimika deyiladi. Masalan, itlarga atab qo'yilgan nomlar: Popuk, Olapar, Qoplon, Bo'ynoq To'rtko'z kabi.

**Sigirlarga atab qo'yilgan nomlar:** Govmish, kabi. Otlarga atab qo'yilgan nomlar: G'irko'k, Boychibor, Qorabayir, Qoraqashqa Vladimir oti kabi.

**Mushuklarga atab qo'yilgan nomlar:** Momiq, Mosh.

### **Zoonimiyaga kiruvchi mikroko'lam tarkibi**

**Giponim-** zotli otlarga beriladigan laqab-nom.

**Ornitonim-** alohida, yakka olingan qushga berilgan laqab-nom.

**O'zbekiston zoonimikasi-** mamlakatimiz aholisi o'zini qurshab turgan hayvonlar hamda qushlar olami bilan faxrlanishadi. Chunki, ular ham boylik, ham hayot ham go'zallik ramzi sanaladi. Zoonimlar hayvonlar va qush nomlari Zoonimiya- hayvon va qush nomlarining yig'indisi. Zoonimika-nomshunoslikning hayvon va qush nomlarini o'rganuvchi bo'lim. O'zbekistondagi zoonimlar majmuini o'rganadigan "O'zbek nomshunosligi" ning bir bo'limi O'zbekiston zoonimikasi hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida uchraydigan (sudralib yuradigan, uchadigan) hayvon nomlari amalda bir necha nom bilan ataladi. Zoonimlar asosida xalqimiz qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelishmoqda. Xalq dostonlarida zoonimlar kishilarning hamrohi, do'stisifatida ko'p marta ishlatilgan va ularga baxshilar tomonidan e'tiborli va etirofli nomlar qo'yilgan. Masalan, G'ivot Go'ro'g'li turkum dostonlarida juda faol qo'llanuvchi zoonim sanaladi. Sher ham hayvonlarning bir turi. U o'zbek tilida sher, hayvonlar podshohi kabi bir qancha nom bilan ataldi. Arab tilida esa sherning yetti yuzga yaqin nomi bo'lib, shundan biri "Zir-g'omdir". Hayvon nomlaridan biri bo'lgan tulki zoonimi maxsus o'rganilib, etimologik tahlil ham qilingan. Xalqimizda ishlatiladigan zoonimlar olimlar tomonidan qisman bo'lsa ham yig'ib olingan. Shuning uchun ham suvsizsizlikka chidamli hayvonlardan biri bo'lgan tuyaning quyidagicha nomlaribor: 1) tuya -1,2 o'rkachli, yirik sut emizuvchi hayvon; 2)

bug'ro erkak tuya; 3) nor-bir o'rkachli erkak tuya; 4) moya- urg'ochi tuya ; 5) lo'k-boshi kichi,bo'yni uzun, bir o'rkachli, yetakchi tuya ; 6) xarvona- lo'k tuyaning urg'ochisi ; 7) bo'ta (bo'taloq)-tuyaning bolasi; 8) norcha- tuyaning bolasi. Asosiy transport vositalaridan biri, ko'pkari, poyga kabi sport turlarining asosiy vositasi bo'lgan otlar amalda quyidagi nomlar bilan ataldi: 1) ayg'ir 3, 4 yoshli erkak ot; 2) biya - urg'ochi ot; 3) g'o'non- 2 yoshli ayg'ir; 4) do'non-3 yoshga to'lib, 4 yoshga o'tgan ot; 5) talon- 12 yoshli ot; 6) tarlon-ola targ'il chavgil ot; 7) qulun-otning yangi tug'ilgan bolasi; 8) toy- otning 2 yashardan kichik bolasi ; 9) toyloq- kichik toy, toycha ; 10) yobi-nasli past ot ; 11) qirchang'i ko'rimsiz ot; 12) chubur –hashaki ot; 13) bayir- jaydari ot; 14) qorabayir - beli tekis, keng saman ot; 15) qora- qizil to' tusli jiylon ot ; 16) jiylon- qizg'ish malla ot; 17) saman- och malla, man rang ot; 18) bedov - uchqur, o'ynoqi ot; 19) tulpor- chopqir, uchqur ot, arg'umoq ; 20) samanto'riq-samancha, mallaga moyil rangli ot; 21) xosatulpor-boqilgan, poygada pishgan zotdor ot; 22) burul- xoldor, ko'kish ot; 23) chavkar -ola-bula qora xolli, xol-xol ot. Yerda sudralib yuruvchilar ham, xususan, ilonlar zoonimlarning bir turi hisoblanadi<sup>1</sup>. Shuning uchun ham ilon zoonim, Ilonli etnotoponim deyilsa, yanglishalmagan bo'linadi. Tildagi qush nomlari ham maxsus ravishda ilmiy- tarixiy asoslarda o'rganilmoqda. Kaptar zoonim bo'lgani kabi. Kaptarxona zoonimi ham mavjuddir. Zoonimlardan antroponim va toponim yasalishi mumkin. Qo'ziboy, Qo'zivoy, Toyloq, Bo'rijar, Kaptarxona, Tulkixona kabi nomlar zootoponimlar sanaladi. Zoonimlar gap boshida bosh harf bilan, gap o'rtasida kichik harf bilan yoziladi, ammo zootoponimlar gap boshida ham, gap o'rtasida kichik harf bilan yoziladi, ammo zootoponimlar gap boshida ham, gap o'rtasida ham, gap oxirida ham bosh harf bilan yoziladi. Misol: Bo'rijar, Kaptarxona. Mana shularning o'zi ham o'zbek zoonimikasining bahsli va hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar ko'pligini ko'rsatib turibdi.

---

<sup>1</sup>Кошғарий М. “Девону луғотит-турк”асари. I-II-III-том, 1960-63.

#### **D) Kosmonimlar**

Kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlar ning atoqli oti. O‘zbek kosmonimiyasi tarkibida tilimizning qadimgi davrlaridan buyon qo‘llanib kelanayotgan yuzlab nomlar mavjud. Davrlar o‘tishi bilan ayrim nomlarning shakli va ma’nosida turli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Shunga qaramasdan, o‘zbek kosmonimiyasi tizimini lisoniy tadqiq qilish hanuzgacha maxsus tekshirish obyekti bo‘lgan emas. Uning hajmi vazifaviy ko‘lami belgilanmagan, umumxalq adabiy tilidagi mavqei aniqlanmagan xalq so‘zlashuv nutqining, boshqa xalqlar tilini bu sathi rivojiga qo‘shgan hissasi ham o‘rganilmagan. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar to‘plangan materiallarning yetarli emasligini, ushbu muammo hali yetarli darajada madaniyati, dini, ilm-faniga astronomik bilimlar muhim rol o‘ynagan. O‘zbek tili yozmama yodgorliklarga boy til bo‘lib, tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga doir materiallar ham juda ko‘p. Bir guruh o‘zbek nomshunoslari ta’kidlaganlaridek; o‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan va ko‘plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa til lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma’rifiy tomonlari fan uchun qorong‘uligicha qolmoqda”. Bu fikr o‘zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir. Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik obyektlar nomi paydo bo‘ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmoqda. O‘tmishda osmon jismlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangani bois, kishilar har bir kosmik obyektning xususiyatlarni yaxshi bilgan va bu haqdagi bilimlarni keyingi avlodlarga qoldirgan. Zamonaviy optik qurilmalar yordamida turli xil yangi kosmik obyektlarning kashf qilinishi bilan osmon jismlarining minglab yangi nomlari yuzaga kela boshladi. Kishilar o‘zlarining hayot kechirish jarayonida uchraydigan, duch keladigan predmet va obyektlarni bir- biridan farqlashga majbur bo‘lgan. Chunki, kishilarning birbiri bilan aloqasi jarayonida

osmon jismlarining nomlari ham xuddi ish qurollari va boshqa predmet nomlari singari zarur bo'lgan. Osmon jismlarining nomlanishi katta-kichikligi yorug'ligi samoda hosil qilgan proyeksiyasi kabi farqlovchi belgilari ularni nomlash uchun asos bo'lgan. Chunki, harqanday nomlash jarayoni o'xshash va farqlanuvchi belgilarning qiyasiga tayanadi. Kuzatishlar natijasida o'zbek kosmonimiyasi tizimida atalish motivlarining norasmiy hamda rasmiy kabi ko'rinishlari mavjudligi aniqlandi.

**“Burj”** nomlari 12 ta har birining o'z nomi bor.

**Savr-** Mazkur kosmonim arab tilida “ho'kiz” ma'nosini anglatuvchi savr so'zidan olingan.

**Hulkar-** savr burjida joylashgan oltita yorqin yulduzdan iborat to'da. Hulk deb nomlanadi. Hulkar yulduzi dunyo xalqlari orasida turlicha nomga ega. Hulkarning arabcha Surayyo nomi ham turkiycha nomiga ma'nodoshdir. Planeta nomlari. Utorid, Zuhra, Venera, Merkuriy, Yupiter, Nohid, Cho'lpon, Tong yulduzi, Yo'lchi yulduz, Yer Mirrix, Mars Mushtariy<sup>1</sup>.

#### **Kosmonimiyaga kiruvchi mikroko'lamning tarkibi:**

**Venusonim-**Venera sayyorasi yuzasida joylashgan alohida ob'yektlarga berilgan atoqli ot.

**Marsionim-** Mars rel'efidagi har qanday alohida olingan tabiiy obyektga berilgan atoqli ot.

Merkuronim-Merkuriy sayyorasi yuzasidagi alohida olingan tabiiy ob'yektga berilgan atoqli ot.

**Selenonim-** Oy yuzasidagi har qanday alohida obyektning atoqli oti.

**Kosmonimika-**osmon jismlarining nomi bo'lib, ular yulduzlar, sayyoralar planetalar nomi. Osmon jismining o'rnini o'zgarishi yerdagi vaziyatni qadimdan ilm-fan ahllariga ayon bo'lgan. Kompas bo'lmagan vaqtdayulduzlarni mo'ljal qilib savdo karvonlari kechayu-kunduz yo'l yurishgan. Xalq ertaklarida qahramonlar o'z yo'llarini kechqurunlari yulduzlarga ularning joylashish o'rinlariga qarab

---

<sup>1</sup>Номшунослик масалалари. Тошкент.

topishgani bayon etilgan. Kosmonimlarning o'ziga xos xususiyatlari borligi ko'p ijodkor va olimlarning e'tiborda bo'lganligi hammaga ma'lum. Masalan, VIII asrning ikkinchi yarmida Xorazmda yashagan Muso al-Xorazmiy "Zij" nomli astronomiya jadvalini yozgan. Forobiy esa astronomiyaga oid asarlar yozib, osmon jismlarining o'ziga xosliklarini bayon etgan. Abu Rayhon Beruniy zo'r astronom sifatida "Astronomiya kalidi", "Mas'ud jadvali" asarlari bilan o'z davrida O'rta Osiyo da astronomiya fanining taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shdi, yerning yumaloqligi, uning tortish quvvati fasllarning o'zgarishi yerning va boshqa planetalarning quyosh atrofida aylanishi to'g'risidagi ilmiy fikrga yaqinlashdi hamda astrologiyani fosh qildi. XI asrning donishmandi Yusuf Xos Hojibo'zining 1069-1070 yillarda yozib tugallangan. "Qutadg'u Bilik" nomli 73 ta bobdan iborat dostonining muqaddimasida yettita planeta to'g'risida maxsus to'xtalgan. 1.Oy.2. Miirix -Mars 3. Zuhra- Venera 4.Quyosh 5.Aturod, Merkuriy 6.Mushtariy -Yupiter 7. Kayvon Saturn. Ulug'bek nomi bilanshuhrat qozongan Muhammad Tarag'ay "Zichi Ulug'bek" nomi bilan mashhur bo'lgan astronomik jadvali astronomiya fanini yangi taraqqiyotpog'onasiga ko'tardi. 1018 ta yulduzni holati<sup>1</sup> va harakatini o'rganib chiqdi.U o'zidan oldin o'tgan Erotosfen, Gipparx, Ptolomiy al-Bottoniy, Ibn Yunus, Tusi va boshqa astronomlarning bu sohadagi muvaffaqiyatlarini orqada qoldirgan. Bularning hammasi mamlakatimizda olimlar astronomiyaga jiddiy e'tibor qilishganini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda astronomlar yangiyangi osmon jismlarini zamonaviy teleskoplar bilan topib, nomlashmoqda. Osmon jismlari nomlarini tadqiq qilgan rus olimi Y.A.Karpenkoning ta'kidlashicha,planeta va yulduzlarni xudolar nomi bilan atash Sharqdan kelib chiqqan bo'lib, faqat Arastu (er.av.384- 322 yillar) davriga kelgandagina yunonlar yulduzlarni o'z xudolari nomi bilan atay boshlaganlar "Avesto" kitobidagi kosmonimlar bu fikrlarni yanada tasdiqlaydi.Yulduz va sayyoralarga iloh sifatida qarash,ularga sig'inish. "Avesto"da ham muhim o'rin egallaydi. Kitobda jami 21 yasht bo'lib, bu yashtlardan bir nechitasi osmon jismlariga alqovlardan iborat:

---

<sup>1</sup>ДўсимовЗ.,ТиллаеваМ. "Хоразм ономастикасинг шаклланиши".

”Moh yasht” oyga, ”Xurshid yasht” va “Mehr yasht”- quyoshga”, “Tiyr yasht” “Siriyus yulduziga,” “Vanant yasht”- Antares yulduziga bag‘ishlangan,ushbu osmon jismlariga sajda qilingan, sharaflangan. ”Avesto” ning yettinchi yashti bo‘lgan “tiyr yasht”da buning isbotini topish mumkin:

Yulduzlarning hamrohi,  
Tishtiriyaga namoz,  
Somon yo‘li bag‘rida,  
Somon yo‘li yulduzlariga,  
Bariga alqovimiz

### **E)Teonimlar**

“Teonim” yunoncha teog Xudo onoma nom atoli ot. Turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma‘budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari. Xudo bitta. Lekin qadim G‘arbiy Yevropa gresiya Yunoniston Midiya Misr kabi davlatlarda hosildorlik dengiz olov xudosi, Jang xudosi yaxshilik va yomonlik xudolari kabi diniy qarashlar bo‘lgan. Shu qarashlar qadimgi xalqlar tabiat hodisalari va boshqa tabiiy ofatlardan qo‘rqishgan. Masalan; “Avesto”da kitobida Xudolar nomi keltirilgan shular orqali ilohiy madad olishgan. Go‘zallik Xudosi. to‘kin-sochinlik Suv xudosi. Afinada Zevs urush xudosi Afrotida “Avesto” da hosildorlik Xudosi yaxshilik Xudosi Axuramazda yomonlik xudosi Axriman. Hind eposlarini oladigan bo‘lsak,ular uchun muqaddas deb qaraladigan Krishna, Ram, Lakishman Zevs. O‘zbek tilida bir qancha teonimlar mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos genezesiga ega. Teonimlarni tahlil qilishda ularning ma‘no ko‘lami va qo‘llanish doirasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Qo‘llanish doirasi va semantik jihatdan teonimlarni, o‘z navbatida, ikkiga ajratishimiz mumkin: a) iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi nomlar; b) iloh tushunchasini xususiylashtirib ifodalovchi nomlar. Iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi nomlar mazmunan yakka ilohiy zotni ifodalash uchun qo‘llanadi va bir qancha tillar uchun umumiy so‘z vazifasini o‘taydi.Iloh tushunchasini xususiylashtirib ifodalovchi nomlar esa ayrim tillarda mazmunan

ba'zan yakka ilohni, ba'zan botil e'tiqodlardagi ma'budlarni ifodalaydi va ma'lum din, ma'lum xalq bilan chegaralanadi. Iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi nomlardan biri Xudo so'zidir. Uning ikki xil ma'noda qo'llanishi kuzatiladi: a) musulmon kishining tilida yagona xoliq ma'nosida; b) boshqa dinlarga mansub adabiyotlarda iloh tushunchasining umumiy ifodasi. Masalan: olov xudosi, quyosh xudosi kabi. Ahura "Avesto"da buyuk va shodlik ma'nolarida Mehr va Apom Napot ilohlarining sifati tarzida ham ishlatilgan. "Gohlar"da va "Yangi Avesto"da hukmron, yo'lboshchi, ulug' ma'nosida odamlarga nisbatan ham qo'llaniladi va uni pahlaviychaga "xutoy" (xudoy) tarzida o'g'irganlar. Ikkinchi qism mazda esa yodga tushirmoq, xotirlamoq ma'nolarini ifodalaydi. Bu so'z sanskritda medhas-bo'lib, donish-bilim va hush-aql ma'nosini anglatadi. Mazdo xudo, iloh, ma'nosini ifodalash uchun qo'llanganda hushyor, dono, har amaldan ogoh mazmunida iste'foda etiladi. Ahriman "Avesto"da Angramaynyu tarzida kelgan, pahlaviy va forsiyda, yuqorida ta'kidlanganidek, Ahriman ("I" si qisqa) yoki Ahriman ("I" si cho'ziq), ko'rinishini olgan hamda "urushqoq va dushman tangri" ma'nosini anglatgan. Eroniylarning dunyoning paydo bo'lishi haqidagi mifologiyasida Spantamaynyu (Spanmaynu)ga qarshi qo'yilgan ikki bosh olihdan birining nomi. Bundan tashqari But va budda teonimlari asosida yana bir xususiy iloh nomini bir xususiy iloh nomini anglatuvchi burxon so'zi yasalgan. Bu so'z shimoli-sharqiy turkiy tillarda va qirg'iz eposlarda xudo, sanam ma'nolarida keng qo'llanadi. O'zbek tilida iloh tushunchasini ifodalovchi bir necha so'zlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchilik qismi leksik genezisi "Avesto"ga borib taqaladi. Shuningdek, davrlar o'tishi bilan bu iloh nomini ifodalovchi so'zlar semantikasida ayrim o'zgarishlar ma'noda kengayish yoki torayish jarayonlari sodir bo'lgan hamda qollanish doirasi o'zgarib borganularning ayrimlari umumiy iloh nomini ifodalash uchun, ayrimlari esa xususiy iloh nomini ifodalash uchun xoslanib qolgan.

II bob yuzasidan xulosa shuki, tobora rivojlanib borayotgan o'zbek tilshunosligida boy faktik materiallar yetarlicha. Atoqli otlarning leksik-semantik

guruhlari ham ancha qiziqarli. Toponimlar, antroponimlar, gidronimlar, etnonimlar, kosmonimika, teonim, zoonimlar, fitonimlar nomshunoslik sohasida ancha rivojlanib borayotgan va o'z mutaxassisidan yuksak bilim ilmiy-amaliy tajriba talab qiladi. Mustaqil ilmiy tadqiqot olib boruvchi shaxsni ham o'z ustida ishlashga jarayonga chuqurroq yondashishga undaydi. O'z mutaxassisidan mehnat va izlanish talab qiladi. Ayniqsa toponim antroponim kosmonim fitonim kabi sohalar ancha qiziqarli faqat o'z mutaxassisi emas balki, boshqa soha vakilini ham o'qib shu ma'lumotlardan xabardor bo'lsa, diqqatini tortadi. Xulosa shuki, atoqli otlarga qiziqish hozir paydo bo'lgan deb qarasak xato bo'ladi antik davrdan buyon kishilar tomonidan nomshunoslik masalalariga qiziqish dastlabki tasavvur va fikrlar bo'lgan.

### III BOB. ATOQLI OTLARNING GRAMMATIK GURUHLARI

#### III.1. Atoqli otlarning grammatik xususiyatlari

Atoqli otlarning grammatik xususiyatlari tarkibiga qo'shimcha qo'shilishi yoki bir mustaqil ishlatiladigan yoki ishlatilmaydigan so'zlar qo'shilishi yoki ikki mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'luvchi atoqli otlar yoki bir qismi mustaqil holda ishlatila olmaydigan atoqli otlar, so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shila olishi grammatik ma'no ifodalay olishi atoqli otlarning grammatik xususiyatlaridir. Toponimlarni tasnif qilish XIX asrdan boshlangan bo'lsa ham, hozirgi kungacha o'z aktualligini yo'qotgan emas. Bu davr ichida juda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan nomlar turli xil tasnif qilindi. Jumladan, 1. Nomlarning atalayotgan obyekti nisbatan tasnifi. 2. Tabiiy ravishda vujudga kelgan va sun'iy yaratilgan nomlar. 3. Mikrotoponimlar va makrotoponimlar. 4. Nomlarning strukturasi bo'yicha tasnifi. 5. Xronologik tasnif. Mamlakatimizda toponimlarni tasnif qilishda asosan ikki yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi. 1. Leksik - semantik tasnif: 2. Grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif:

Ayrim tadqiqotchilar toponimlarni leksik-semantik jihatdan to'rt gruppaga ajratadi. Atoqli otlarni yasalishini toponimlar misolida ko'rib chiqsak, toponimlar mazkur territoriyada yashovchi xalq tili leksikasida mavjud so'zlar yoki boshqa tillardan kelib shu xalq tiliga o'zlashib ketgan so'zlar asosida vujudga keladi. Obyektlarni bir-biridan farqlash yoki nomlash, atash turli toponimlar grammatik yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

**Sodda toponimlar** bu tipdagi toponimlarni ikki gruppaga bo'lish mumkin<sup>1</sup>. Ularning ayrimlari tarkibida yasalganlikni ko'rsatuvchi formantli saqlagan bo'lishi yoki aksincha nol ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Misol: Kat, Gurlan, Sho'rlik kabi. Demak, sodda toponimlarning ikki xil modelini ko'rsatish mumkin. **Qo'shimchasiz nomlar.** Bu model bir sostavli nomlarni o'z ichiga olib, ularning tarkibida hech qanday grammatik ko'rsatkich yo'q: Xonqa, Vazir,

---

<sup>1</sup>Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. Тошкент, 2012.

Qiyot, Xadra va boshqalar. Bu nomlarning ko'pchiligi apellyativ so'zlarning funksional ko'chishi yoki bu nomlar tarkibidagi komponentlarning tushib qolishi natijasida toponimga aylangan. Qo'shimchasiz toponimlar boshqa nomlar yasashga asos bo'la oladi. Ular struktura jihatdan o'zgarishi, turli grammatik elementlar qabul qilish mumkin: **Xonqali**, **Katli** va boshqalar.

**Qo'shimchali nomlar.** Bu model ancha murakkab bo'lib, ular tarkibidagi formantlarning ayrimlari affiks xarakterga ega. Toponimlarning morfologik strukturasidagi shunday elementlar borki, ular semantik jihatdan til strukturasidagi holatini yo'qotgan. Bu elementlar nomlar tarkibida affiks, to'g'rirog'i affiksoid holiga kelib qolgan. Ular toponimning biror xarakterli xususiyati yoki uning tarixiga ishora etadi. Toponim yasashidagi leksik-grammatik xarakterdagi yasash bilan affiksasiya usulida yasashni aralashtirish ko'p hollarda toponim motivlarini noto'g'ri talqin qilishga olib kelmoqda. Bu holatni faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki boshqa turkiy tillar toponimlarini tekshirishga bag'ishlangan ishlarda ham kuzatish mumkin. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarning yasashi va ularning morfologik strukturasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda va shuningdek turli hududlarning toponimlarini tekshirish dissertatsiyalarda toponim yasashining ikki yo'li affiksasiya va kompozisiya usullari qayta-qayta qayd etildi. Ko'pgina toponimik modellar hamda toponim yasovchi affikslar tavsiflanadi. Deyarlik barcha dissertatsiyalarda -lik, -chi, -li, -lar kabi ko'plab qo'shimchalar toponim yasovchi affikslar qatoriga kiritiladi. O'zbekiston toponimlarining ba'zi grammatik xususiyatlari- toponimlarning qanday gap bo'laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili modellar deyiladi. O'zbekiston geografik nomlari grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga bo'linadi. Sodda toponimlar o'z navbatida, qo'shimchasiz toponimlarga va qo'shimchali toponimlarga ajratiladi. Qo'shimchasiz, affikssiz toponimlar deganda birgina otdan iborat, boshqa biron unsur qo'shilmagan geografik nomlar tushuniladi. Xorazm toponimlarini

morfologik strukturasiga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin: 1. Apellyativ nomlar. 2. Formantli nomlar. 3. Indikatorli nomlar.

**Apellyativ nomlar** –butipdagi nomlar o'zining xarakteriga va genetikasiga ko'ra bir xil emas. Apellyativ nomlar deb ma'lum guruhga kiritilgan nomlar aslida sinxron planda tub nom deb qaraladigan va hech qanday morfematik bo'lakka ajralmaydigan toponimlardir. Bularning ko'pchiligi mazkur territoriyadagi eng qadimgi leksik qatlamga mansub bo'lib, ularning etimologiyasini aniqlash, shuningdek, bunday toponimlarni tuzilishi jihatdan boshqa nomlar bilan qiyoslash ham ancha mushkuldir. Chunki, bu qadimgi nomlar asrlar davomida bir tildan ikkinchi tilga o'tib struktura jihatidan o'sha til morfologik tuzilishiga, shu tilning so'z yasash modeliga moslasha borgan. Shuning uchun ham bu tipdagi toponimlarning dastlabki boshlang'ich holatini tiklash juda qiyindir. Masalan: Харазм, Урганч, Ханқа Пил Хива Мадир Питнак va boshqalar. Apellyativ nomlarning aksariyat ko'pchiligini neotoponimlar tashkil qiladi. Ayniqsa antroponimlarning toponimga tashkil qiladi. Masalan: Kirov, Do'sov, Madina, Guliston, Quddus, Layla, Chapayev, Frunze, Navoiy.

**Formantli nomlar** – tarkibida turli so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi va boshqa morfemalar bo'lgan toponimlar formantli nomlar deb yuritiladi. Misol: Ilanli, Kandirli, Qamishliq, Yantaqlik, Qoshchilar, Hammallar, Temirchi, Darvazchi. Bu tipdagi toponimlarning tarkibidagi komponentlar (toponimning asosi va qo'shimcha) o'ziga xos qator xususiyatlarga ega. Xorazm toponimlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik formantli nomlar dastlab mazkur obyektni ko'rsatuvchi toponimik indikator bilan birga qo'llangan, ya'ni qal'a Ilonli-Ilonli qal'a-Ilonli, Hammollar yashaydigan qishloq-Hammal qishloq. Temirchining ovuli- Temirchi ovul- Temirchi ovul-Temirchi kabi.

Toponimlarning tarkibidagi bu xilda soddalashish nom semantikasidan ham sezilib turadi-li formantini saqlagan toponimlar dastlab sifatlovchi+sifatlanmish

shaklida bo'lgan. Toponimlarning vujudga kelishida obyektning xarakterli belgisi asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekiston toponimlarining ba'zi grammatik xususiyatlari-toponimlarning qanday gapbo'laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili modellar deyiladi. O'zbekiston geografik nomlari grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga bo'linadi. Sodda toponimlar o'z navbatida, qo'shimchasiz toponimlarga va qo'shimchali toponimlarga ajratiladi. Qo'shimchasiz, affikssiz toponimlar deganda birgina otdan iborat, boshqa biron unsur qo'shilmagan geografik nomlar tushuniladi. Bunday toponimlar bir necha xil bo'ladi:

a) oddiy geografik yoki ijtimoiy- iqtisodiy atamalar shaklidagi toponimlar: Anhor, Gaza, Yom, Ko'l, Orol, Reg, Supa, Taqir, Uchma, Chim, Sharshara, Quduq kabi.

b) urug'aymoq, el-elat nomlari bilan ataladigan geografik nomlar: Arab, Bayot, Do'rman, Mang'it, Misit, Nukus, Sayot, Turk, Chandir.

v) kishilarning ism-familiyalari, laqablaridan iborat toponimlar: Abdulla, Avaz, Karim, Mustafa, Navoiy, Nazar, Tursun;

g) o'simlik va hayvon nomlaridan kelib chiqqan geografik nomlar: Bodom, Do'lta, Yong'oq, So'kso'k, Terak, Chinor, Yantoq;

Qo'shimchali toponimlar deganda, otga qandaydir qo'shimcha-affiks qo'shib yasalgan geografik nomlar tushuniladi. Quyidagi qo'shimchalar joy nomlari tarkibida ko'proq uchraydi: -goh -Janggoh, Namozgoh, Sayilgoh, Shamolgoh, Koriz-goh-zor- Bedazor, Bodomzor, Kavarzor, Olmazor, Regzor, Sangzor, Terakzor, Chilonzor. -iston- Bolutiston, Bog'iston, Sebiston Turkiston Sho'riston; -iya Mingiya ("ming qabilasi vakillari yashaydigan qishloq"), Yuziya deb yozish To'g'ri emas"), Shohruhiya (Shohruh-buyuk olim Ulug'bekning otasi), Qodiriya (Qodir-kishi ismi); -kor-Lalmikor, Paxtakor, Sabzikor; -lar-Arablar, Beklar, Boylar, Zargarlar, Shayxlar, Shag'allar Echkilar Qarg'alar (qarg'a urug'i vakillari yashay-qishloq); -li-alamli, anjirli, Burganli, Olmali, Piyozli (yovvoyi piyoz uchraydigan joy) Tolli, Chayonli; -lik(-liq)-mahalla,

qishloq ahlining asli qayerdan ekanligini bildiradi (Andijonlik, Jizzaxlik, Qo‘qonlik), bu aholi punktida kimlar yashashini ko‘rsatadi (Attorlik, Zargarlik-“zargarlar mahallasi”, Boyliq-“boyilar mahallasi”, Xo‘jaliq-“xo‘jalar mahallasi”), relef shaklini bildiradi. (Soyliq, Tepalik); -loq (lox)-Gurlox (mozor), Sangloq (toshloq), Toshloq, Qumloq; -on-Arabon (Aravon shakli ham bor-“arablar”), Mang‘iton (mang‘it qabilasi vakillari), Namatgaron (“kigizchilar”), Sayidon (“sayyidlarmahallasi”), Xudoyon hokimlar”, islom dinidan oldin xudo deganda”hokim”, ”hukmron” tushunilgan);

-ot; Bog‘ot (“bog‘lar”), Rabotot (“rabotlar”), Qishloqot (“qishloqlar”); -chakichraytirish belgisi: Buloqcha, Deycha (tojikcha dey- (“qishloq”), Rabotcha Qo‘rg‘oncha; eski qishloq yonida yana shu nomda qishloq paydo bo‘lganini bildiradi; Bahrincha “Ikkinchi Bahrin”, Do‘rmoncha “Ikkinchi Do‘rman”, Naymancha “Ikkinchi Nayman”; sifatdan ot-toponim yasovchi affiks sifatida: Oqcha, Sacha, Yangicha Qizilcha; -chi-kasb egasini bildiradi: Aravachi, Bo‘yrachi, Temirchi, Tuyachi, Etikchi, Qoshiqchi. Aholi qayerdan kelganini bildiradi va -lik qo‘shimchasi funksiyasini bajaradi: Zominchi, Farg‘onachi, Oloychi. Qo‘shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat. Bunday geografiik nomlar ham grammatik jihatdan bir necha turga bo‘linadi:

a) ot-ot. Ko‘pchilik hollarda toponimning ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo‘ladi: Yozyovon, Yorqishloq, Kuyganjar, Maydonqum, Moybuloq, Toshxavot, Toshquduq; kishilarning laqablari, kasblaridan nom olgan toponimlar: Abdulkarimdivon, Qurbonmirob, Mamatyasovul, O‘rozbaxshi. Toponim antroponimdan, bir yoki ikkala komponenti ham urug‘-aymoq nomlaridan iborat bo‘ladi: Arabqiyot, Murodbag‘ish, Mirzamitan, Esonshix.

b) sifat-ot. Ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo‘ladi: Yomon Ovul, Kattako‘rpa, Ko‘korol, Oqdaryo, Oqsuv, Oqtog‘, Pastqishloq, Uzunorol, Qoradaryo, Qorasuv, Qorasuv, Qoraqum, Qizilqum, Qizilpiya, Qizilzov, Ikkinchi tarkibiy qismi urug‘-aymoq nomidan tarkib topgan: Yomonqangli Kattako‘rpa, Ko‘korol, Oqsuv Oqtog‘ Pastqishloq, Uzunorol, Qoradaryo, Qorasuv,

Qoraqum, Qizilqum, Qizilqiya, Qizilzov. Ikkinchi tarkibiy qismi urug'-aymoq nomidan tarkib topgan: Yomonqangli, Kattako'rpa, Maydaqangli, Parchayuz

v) ot+sifat. Juidam, Juinav, Oxunboboyuqori, Sulduzbolo, Sulduzpoyon, Talisafed;

g) son-ot Beshariq, Yettikechuv, Mingchuqur, Oltiariq, Sakkiztom, To'qsonkoriz, Qirqqiz, Mingqishloq, Yuzqishloq, Qirqqishloq toponimlari shaklanson-ot tipiga o'xshasa ham, ot-ot modelida (ming, yuz, qirq o'zbek qabila nomlari).

d) fe'l-ot: Keldihayot, Uyg'antosh, Uchganjar, Qolgandaryo, Qarnarbuloq.

E) Ot-fe'l: Jarko'chgan, Selkeldi, Suvyorgan, Qumbosdi, Qatiqto'kildi, Borsa Kelmas, Gadoytopmas. Toponimlarning morfologik (affiksatsiya) usulida yasalishi masalasi nomshunoslikdagi eng chalkash, munozarali muammolardan biridir. Chunki, hozirga qadar o'zbek nomshunoslari yozgan ko'pgina tadqiqotlarda toponimga asos bo'lgan so'zning yasalishi bilan toponimning yasalishi farqlanmaydi, toponegizni yasayotgan so'z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin qilinadi. Biz bu o'rinda masalaga aniqlik kiritish uchun ikkita ishdagi oid talqinlarni keltirmoqchimiz. N.Oxunov "Qo'qon gruppasi rayonlari toponimiyasi" mavzuidagi ishida joy nomlarining morfologik usulda yasalishi haqida gapirib O'qchi. Dasturxonchi, Temirchi, Ozodlik, Hurlik, Nonvoylik nomlarini toponimlarning morfologik usulda hosil qilinishi deb talqin qilgan. Xuddi shuningdek, N.Mingboyevning "Mirzacho'l toponimiyasi" ishida Sirg'ali, Achamayli, Qo'shtamg'ali nomlari -li qo'shimchasi yordamida; Qushchi, Qarapchi nomlari-chi yordamida; Shodlik, Do'stlik, Birlik nomlari-lik yordamida yasalgan toponimlar deb izohlangan. Qayd qilingan toponimlarning negizida aslida o'zbek tilida avvaldan mavjud yasama etnonimlar (sirg'ali, achamayli, qo'shtamg'ali, qushchi, darakchi), kasb-hunar leksikasi (o'qchi, dasturxonchi, temirchi, degrezlik, miskarlik, nonvoylik) yoki tilda o'sha shaklda tayyor holda uchraydigan turdosh otlar (shodlik, do'stlik, birlik) yotibdi. Demak, keltirilgan holatlarda nom tarkibida kelgan, qayd qilingan qo'shimchalar toponimlar

emas, balki u uchun asos bo'lgan toponegizlar, apellyativlarni yasagan va ushbu apellyativlar o'sha shaklda tayyor holda toponimlar vazifasiga ko'chgan. Mana shu kabi chalkashliklar o'zbek toponimikasida hozirgacha bajarilgan toponimik tadqiqotlarning deyarli barchasida uchraydi. Demak, toponimlarning morfologik usulda yasalishi haqida gap borganda atoqli otning jarayonini to'g'ri belgilash muhim.

### **III.2. Atoqli otlarning tuzilishiga ko'ra turlari**

Toponimlarning morfologik strukturasi aniqlashdabir qancha tadqiqotlar samarasini ham e'tiborga olishimiz zarur. Inson boshqa tildan biror so'zni qabul qilar yoki o'z tilidagi eskirgan so'zni tinglar ekan, u odatda ona tilidagi biror so'z bilan (aloqasini) yoki biror ichki formasini topadi. Natijada o'sha so'zni yaxshiroq tushunadi va eslab qoladi. Toponimlarni morfologik jihatdan talqin qilish atoqli otlarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi. Avvalo toponimlar o'z xarakteri bilan oddiy so'zlardan farq qiladi. So'zning morfologik strukturasi aniqlash so'z va morfemaning (o'zak va morfema va affiks) morfema o'zak va negizning munosabatini belgilash, morfemalarning turli tipdagi strukturasi o'rganishdan iborat bo'lsa, toponimlarning morfologik strukturasi bu proses ancha murakkabroq. Hozirgi davrda o'zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar
2. Yasama tuzilmali antroponimlar
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar

**Sodda tuzilmali antroponimlar.** Sodda antroponimlar ular uchun asos bo'lgan leksemaning tuzilishiga mos keladi va mohiyatan tub nomlardir. Masalan: To'xta, Bo'ta, Kumush, Anvar, Lola, Go'zal va b. Sodda ismlarni sodda, tub deyish, ularni bo'g'in tuzilishiga ko'ra tahlil qilish, aslida ism uchun asos bo'lgan apellyativning tuzilishi qayd qilishdan iboratdir. Bu xususiyatlar ismga xos deb o'ylash o'rinli emas. Chunki, apellyativ yaxlit leksema holatida ism vazifasiga

o'tadi. Bu o'rinda apellyativ atoqli ot otga o'tgach, unda hosil bo'ladigan xususiyatlar haqidagina gapirish mumkin. Masalan, ismning individual tushuncha ifodalashi, bosh harf bilan yozilishi va b. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zga tillardan o'zlashgan bir qator ismlar uni qabul qilgan til o'zbek tilida sodda ism sifatida qabul qilinadi. Umuman, o'zbek tilida sodda ismlarni sodda deb qarash ham nisbiydir. Chunki ism bir qator antropoformantlarni qabul qilib, boshqa shaklga o'tib turadi: Karim-Karimjon, Bo'ta-Bo'taboy, Mengli-Menglixon, Safar-Safarboy.

**Yasama tuzilmali antroponimlar.** Tarkibiga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasalgan atoqli otlar yasama.

**Qo'shma tuzilmali antroponimlar.** Ot+ot, sifat+ot, son+ot tipidagi atoqli otlar ko'p uchraydi. Sodda tarkibli nomlar- atoqli otlarni tarkibiga ko'ra tahlil qilish usuli ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, bu toponimlar, antroponimlar, etnonimlar tadqiqi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Atoqli otlarning tuzilishi deganda uning morfologik tarkibi nazarda tutiladi. Nomning morfemalardan, ya'ni lug'aviy asos va yasovchi vosita yoki lug'aviy asos va yasovchi vosita yoki lug'aviy asos va formantdan iborat tarkibi uning tuzilishini tashkil etadi. Nomlarni morfologik jihatdan tadqiq qilish atoqli otlarning bir qator o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi. Garchi so'zning morfologik tarkibini belgilash so'z va morfemaning munosabatlarini belgilashdan iborat bo'lsa, atoqli otlarning morfologik tarkibida bu jarayon ancha murakkabdir. Atoqli otlarning ko'pchiligi sinxron planda morfemalarga ajralmaydi. Ularning aksariyat ko'pchiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida har xil fonetik va tarkibiy jihatdan o'zgarishga uchragan. Hozirgi davrda tarkibiga ko'ra bo'linmas deb qaraladigan nomlar diaxron tahlil jarayonida butunlay teskari natija berishi ham mumkin. Shunday ekan, bu borada tarixiy morfologik tadqiqotlar samarasini ham e'tibordan qoldirmaslik lozim. Nomlarni tarkibiga ko'ra tadqiq qilish jarayonida bu xildagi o'ziga xosliklarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Sodda tarkibli nomlar tarkibiga ko'ra birgina lug'aviy asosdan iborat bo'lgan birliklardir: Avaz, Avg'on,

Araz, Bonu, Ganja, Dovud, Jayhun, Zuhro, Iso, Idris, Ko'fa, Layli, Mori, Musna, Navfal, Nayman, Ovshar, Orzu, Palang, Rustam, Ravshan. Qo'shma tarkibli nomlar- birdan ortiq lug'aviy asoslardan hosil bo'ladi. Ularning tarkibida nomning qaysi onomastik guruhga taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi onomastik indikatorlar ishtirok etadi. Masalan, xon (Avazxon), jon (Qorajon), pari (Oypari), rabot (Qo'shrabot) kabi. Qo'shma tarkibli nomlarni yasash qolipiga ko'ra bir necha turga bo'lish mumkin: 1. ot+ot; Bu qolip birliklari turli xil onomastik elementlardan tashkil topadi: 1) antroponimik+indikator: Avazxon, Alixon, Albandjon, Bobobek, Vafobek, Dalliboy, Yortiboy, Oilabiy, Ermonbiy, Odilshoh, Go'zalshoh, Misqol pari, Yunuspari, Aqchaqal'a. 2. Sifat+ot: Bo'zdumon, Bo'zog'lon, Yomonqishlov, Yomonjar, Ko'ktemir Ko'kgul, Oqdev, Oqrabot, Qqsuluv, Saridev, Qoradev, Qiziloyoq, Qiziljar, Qizilbosh, Qo'ng'irboy, Qora alam buva, Qoratulpor, Yalpoqbosh kabilar. 3. son+ot: Uchgumbaz, Uch yuz oltmish avliyo, Qirqotlar, To'qqiz duqon Chortut, Chortoq va boshqalar. Atoqli otlar bir turdagi predmetni boshqasidan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) shaxs nomlari b) gazeta jurnal, kitob asarlarga qo'yilgan nomlar d) korxona, tashkilot, firma, muassasa nomlari, e) geografik nomlar, f) hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar. g) yulduz, sayyora nomlari: h) mahsulot nomlari, i) unvon, medal, orden, mukofot nomlari. j) muhim tarixiy sana, voqea va bayram nomlari.

### **Etnonim va etnotoponimlarning hosil bo'lishi**

Tilshunoslikda so'z yasashi masalalarini alohida bo'lim, soha sifatida o'rganish asoslab berildi. So'z yasashining muammolariga, konkret o'rinishlariga grammatika va leksikologiya sohalari doirasida ham to'xtalish mumkinligini inkor etmagan holda biz ham etnonim va etnotoponimlarning yasashini alohida bobda emas, balki o'rganilayotgan materialning fonetik va grammatik xususiyatlari tizimida tadqiq etishni lozim topdik. Bundan tashqari etnotoponimlarning yasashi umuman tildagi so'z yasashi usullariga asosan mos kelishini ham nazarda tutdik. Shuni ham aytish kerakki, ko'pgina etnonimlar yasama so'zlarning alohida ma'no

o'zgarishi natijasi sifatida yuzaga kelgan. O'zbek tilida nom yasallish hodisasi o'zining lisoniy qonuniyatlariga ko'ra so'z yasallishidan unchalik farq qilmasada, ayrim o'ziga xos xususiy belgilariga ham ega. Qo'shma nomlarning ko'pchiligi indikatorlar yordamida yasalgan. Bunday nomlar asosan ot va son, sifat, fe'l kabi so'z turkumlari, ya'ni otlashgan so'zlarning bir-biriga qo'shilishi natijasida vujudga keladi. Ot+ot tipidagi etnotoponimlar: караман+кенагас, кийат+кўнғирот, манғит+арна Алан+йап, Қазақ+авыл. Bu qo'shma nomlar uzvlarining bog'lanish yo'llari va ana shu lisoniy munosabatni yuzaga keltiruvchi omillar ham bir xil emas. Ularning ayrimlari grammatik vositalar orqali sifat+ot tipidagi etnotoponimlar: Кона+мачай, Ашак+карвак, Таза+дўрман, Йукари+Мухаман. Kompozisiya usuli, ayniqsa etnonimlar yasallishida ancha sermahsul.

### **Etnotoponimlarning grammatik tuzilishiga ko'ra turlari**

**1. Apellyativ asosli nomlar** –sinxron planda tekshirsak, ularning hech qanday ma'noli bo'lakka ajralmaydigan tub nomlar ekanligi ma'lum bo'ladi. Apellyativ asosli nomlarga shartli ravishda, tarixiy nuqtai nazardan aslida yasama nomlar bo'lsa-da, hozir tub so'z hisoblanuvchi bir qator etnotoponimlarni kiritish mumkin: Мачай, Хазарис, Митан, Барин, Қыпчақ, Бақай, Алан, Ойрат, Мадир, Джалалайыр, Арғын kabi nomlar shular jumlasindandir. Bular bir ko'rinishda tub so'zga o'xshab ko'rinadi. Agar Ойрат toponimining morfologik tuzilishini tekshirsak, u ikki qismdan iboratligi ma'lum bo'ladi, ya'ni ой+пат. Birinchi qismi oy-mo'g'ul va buryat tillarida "o'rmon" ma'nolarini, rat-arat esa "xalq" ma'nosini bildiradi. Etnotoponimlarning ayrimlari tariiy jihatdan yasama so'zlardir. Йомут etnonimi G.Vamberining fikricha, йом/йум so'zidan olingan bo'lib, xalq ma'nosini anglatadi, -ут esa mo'g'ulcha ko'plik affiksidi. Demak, Xorazmda ham bu affiks orqali yasalgan nomlar ancha miqdorni tashkil qilib, ko'plik jamlik ma'nolarini anglatadi.

-ak affiksi. Ilmiy asarlarda qayd etilishicha, bu affiksning -ak, -эк, -ық,-ик, ук va -k kabi shakllari mavjud bo'lib, ko'pgina turkiy tillarda ot va sifatlarga qo'shib nom yasaydi.

**2. Formantli nomlar** – Tilshunoslik fanida e'tirof etilishicha, tarkibida har xil grammatik elementlarni saqlagan etnotoponimlar formantli nomlar deyiladi. Masalan, Темирчи, Қуллар, Иланлы, Туйачи, Қарғаша, Аладжа kabi nomlar shular jumlasidandir.

**3. Indikatorli nomlar** –kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, etnotoponimlar muayyan obyektning tur-belgisini bildiruvchi qishloq, ovul, salma, yop, qala, ko'l, mahalla kabi maxsus onomastik elementlar bilan ham qo'llaniladi: Алчын кўли, Эшантахта, Чығатай элаты kabi.

### **Toponimlarning tarkibiy tuzilishini o'rganish usuli**

Har bir joy nomi o'ziga xos tarkibiy tuzilishiga ega. Bu tuzilishni bilish uchun albatta toponimlarning tarkibiy tuzilishini o'rganadigan usul zarur. Ushbu usul haqida tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida to'xtab o'tishga majbur, chunki bu usulsiz toponimlarni ma'noli qismlari to'g'risida gapirish mumkin emas. Joy nomlari tarkibidagi ma'noli qismlarning komponentligini isbotlash uchun toponimlarning tarkibini o'rganadigan usul lozim<sup>1</sup>. Mazkur usul haqida ma'lumotlar N.V.Podolskayaning "Slovar russkoy onomasticheskiy terminologii" nomli kitobida qayd etilgan. Boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ham bu haqida gapirilgan. Bu usul tilshunoslikda qo'llanadigan struktural analiz metodiga o'xshash bo'lsa ham toponimika fanida qo'llanishi bilan undan farqlanadi. Toponimlarning tarkibiy tuzilishini ilmiy jihatdan to'g'ri tadbiq etmaslik natijasida tadqiqotchilar turli xususiyatlarni almashtirib yuborish, joy nomlari uchun xususiylar bo'lgan dalillarni farqlamaslik va ularni umumiy faktlar bilan aralashtirib yuborish darajasiga olib kelishadi. Sababi, joy nomlari so'z, shuningdek, qo'shimchalardan tashkil topadi ular toponimik asos va topoformant hamda toponimik aniqlagich vazifalarida qo'llaniladi. Masalan, Ko'ksuv, Oqsuv, Qichqiriq, ariq, Tankas daryosi, Uvada, Uvaliq, Qumariq, Jarqishloq, O'rta qishloq kabi joy nomlarini etimologik tadqiq qilish uchun, albatta ularning tarkibiy tuzilishini birma-bir o'rganish lozim bo'ladi.

---

<sup>1</sup>Эназаров Т. "Топонимларни этимогик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари". Тошкент, 2001.

## Lingvistik omillar

Lingvistik omil deganda joy nomlariga asos bo'lgan so'z, so'z birikmasi, qo'shma so'z va qo'shimchalarni e'tiborga olish shart. Sababi shuki, ular tilga xos belgilarning majmuasi va ularda ham alohida-alohida xususiyatlar mavjud. 2 Shular asosida lingvistik omillarning o'zagi bo'lgan quyidagi omillar yuzaga kelgan: 1.Fonetik omillar. 2.Leksik omillar. 3.Leksik-semantik omillar. 4. Grammatik omillar.

**1. Fonetik omillar** –Mazkurnutq tovushlariga xos ma'noviy o'zgarishlar, nutq tovushlarining o'zaro o'rin almashishi kabi fonetik hodisalar nutq tovushlariga xos bo'lgan lisoniy xususiyatlar majmuidir<sup>1</sup>. Albatta, toponim qanchalik tarixiy bo'lsa, uni tashkil qilib turgan nutq tovushlari ham ma'lum sifatiy hamda miqdoriy o'zgarishlarga uchragan bo'ladi. Bunday holatlar joy nomlarining aytilishida ro'y beradi. Mana shu o'zgarishlar jami fonetik omillar sirasiga kiradi. Fonetik omillarda joy nomini tashkil qiluvchi so'zlarning qanday fonemalardan tuzilgani va ularning talaffuz jarayonida turli fonetik o'zgarishlarga uchrashligi kuzatiladi. Masalan, Sirchiq gidronimi fonetik o'zgarishga uchrab, Chirchiq holatiga kelib qolgan: s/ch hodisasi ro'y bergan.

**Leksik-omillar** –ushbu omillar turkiy va o'zbek tiliga xos bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Albatta, bunday omillar tarkibida o'zak, qo'shimcha, qo'shma so'z, juft so'z, so'z birikmasi bo'ladi. Leksik omilda joy nomini yuzaga keltirgan so'zlar va ularning qaysi qatlamga oidligi, masalasi e'tiborda bo'ladi. 3. Bunday hollarga e'tibor qilmaslik xato va har xil lisoniy chalkashliklarga olib keladi. Toponimlar amalda bir yoxud bir necha so'zlardan tashkil topgan. Ularning qaysi tilga oidligini asoslash leksik omilning asosiy vazifasi hisoblanadi. Turon, Do'xchi, Yangiobod, Yangiyo'l, Uchqo'rg'on, Bekbergan, Qoraariq, Qayirma, Yetimquduq, Qizilsuv daryosi, Boyqo'rg'on, Oltintepa, Birdala, Qo'shtepa, Oqsoy, Qo'ltepa, Qatortol, Boldir, Qiziljar kabi joy nomlarining turkiy tillarga oidligini isbotlab berish lozim.

---

<sup>1</sup>Юсупов.К. “Айрим топонимлар масаласи”. Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 1-сон.

**Leksik-semantik omillar** –Shunday soʻzlar borki, ularning bir necha maʼnosi borligi sezilib turadi. Toponimlar tarkibida shu soʻz qaysi maʼnoda qoʻllanilganligi, nutqiy jarayonda esa qaysi maʼnoda qoʻllanishi har bir kishini qiziqtirib turadigan muammolardan biri sanaladi. Soʻz va uning maʼno munosabatini toponimlarga tadbiq etishda, albatta, bu leksik-semantik omillarga suyanish lozim boʻladi. Sababi soʻzning maʼnolarini oʻzaro, shuningdek, toponimning maʼnolari bilan qorishtirib yuborish ham olib borilayotgan etimologik tahlilga toʻsqinlik qiladi. Joy nomlarining leksik-semantik jihatdan qaysi va qanaqa obyektlarning nomi ekanligiga, shuningdek, kelib chiqishi hamda nomlanishiga koʻra tasniflanishi eng maqbul tasniflardan biri hisoblanadi. Chunki, unda joy nomlarining leksik-semantik tasniflash boʻyicha qayd etilgan fikrlar eʼtiborga olingan holda, toʻplangan toponimik materiallar ilmiy tahlil qilinadi. Beshtentak, Beshsari, Mirishkor kabi joy nomlarini ham leksik-semantik jihatdan etnotoponimlar jumlasiga kiritish oʻrinli.

**Grammatikomillar** – bunday lisoniy omillar soʻzni soʻz va qoʻshimchalar vositasida munosabatga kiritib, joy nomlari shakllanishining bazasini tayyorlaydi. Bu omillar soʻz bilan qoʻshimcha hamda soʻzining munosabatlarini semantik va sintaktik jihatdan oʻzaro bogʻlovchi omillar hisoblanadi. Aksariyat hollarda toponimlar ”soʻz+qoʻshimcha”; ”soʻz+qoʻshimcha+qoʻshimcha” ”qoʻshimcha+soʻz+qoʻshimcha koʻrinishlarida uchraydi: Taqachi (Toshkent v., Jizzax v., Samarqand,) Beshkent, Qumqishloq (Qashqaryo v.), Birlik (Toshkent sh., Toshkentv.), Tinchlik (Toshkent sh., Buxoro v .,) Qoʻyliq, Koʻkcha (Toshkent sh.). Qumariq (Samarqand, Fargʻona v.) kabilar.

**Geografik nomlarning imlosi.**Quyidagi hollarda qoʻshib yoziladi: Oʻzbek tilida ikki va undan ortiq soʻzlardan iborat qoʻshma (murakkab) geografik nomlar qoʻshib yoziladi. Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi kishi ismi (familiyasi)dan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat boʻlganda: Abdiqishloq, Shofayziquloq, Rahimobod, Ismoiltepa. Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi etnonimdan, ikkinchi tarkibiy qismi esa geografik atamadan iborat boʻlganda: Naymanqishloq,

Do‘rmonariq, Qozoqovul, Yobuqo‘rg‘on, Arabband, Ko‘rpamahalla. Ot+ot: har ikkala tarkibiy qismi ham atamalardan- geografik va ijtimoiy- iqtisodiy atamalardan iborat bo‘lganda: Qumqo‘rg‘on, Bozorjoy, Qorovulbozor, Toshbuloq, Qumquduq, Sharloqsoy Sifat+ot: birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo‘lganda: Balandmachit, Balandravot, Bo‘laksuv, Kattabuloq, Kichikqishloq, Oyoqbog‘, Sho‘rquduq, Egriko‘l, Torariq.

Son+ot: birinchi tarkibiy qismi sonidan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo‘lganda: Beshbuloq, Yolg‘izqum, Yakkasaroy, Qo‘shrabot, Qo‘shko‘prik, Mingchuqur, To‘qsonkamar, O‘ttizadir kabi. Ikkinchi tarkibiy qismi o‘simlik yoki hayvon nomidan iborat bo‘lganda: Qo‘shitol, Beshqayrag‘och, O‘narcha, Beshechki, Yolg‘iztol. Quyidagi hollarda ajratib yoziladi: Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda: a) Katta Oqtepa, Katta Beshkapa, Katta Qorabog‘, Katta Naymancha; b) Kichik Aravon, Kichik Ko‘rg‘oncha, Kichik Amirobod, Kichik Toshloq, Past Olaqarg‘a, Past Sho‘robod; d) Pastki Oyoqchi, Pastki Qoraqiya, Pastki Sariqamish, Pastki Uyshun; e) Quyi Janafar, Quyi Beshravot, Quyi Sho‘robot, Quyi Navmetan; f) Eski Haytobod, Eski Elbayon, Eski Xo‘jaobod, Eski Haqqulobod; Atoqli otlarning vujudga kelishida til materialining ma’lum qismigina qatnashadi, ular o‘z mustaqil materialiga ega bo‘lmaydi, atoqli otlar tilda mavjud bo‘lgan lisoniy materialdan hosil bo‘ladi. Atoqli otlarning tarkibi va tahlili onomastik toifalar (antroponim, toponim, gidronim va boshqalar) doirasida ancha mukammal o‘rganilgan. Uning turli xil sxemalari qoliplari vujudga kelgan. Bular haqida onomastika sohasiga oid adabiyotlarda batafsil to‘xtab o‘tilgan. Shuning uchun biz to‘plangan materialdan kelib chiqqan holda, ularni bir necha guruhga ajratdik: a) sodda tarkibli nomlar; b) qo‘shma tarkibli nomlar; d) murakkab tarkibli nomlar.

**Sodda tarkibli nomlar** – atoqli otlarni tarkibiga ko‘ra tahlil qilish usuli ancha keng tarqalgan. Atoqli otlarning tuzilishi deganda ularning morfologik tarkibi nazarda tutiladi. Nomning morfemalardan, ya’ni, lug‘aviy asos va yasovchi vosita yoki lug‘aviy asos va formantdan iborat tarkibi uning tuzilishini tashkil

qiladi. Nomlarni morfologik jihatdan tadqiq qilish atoqli otlarning bir qator o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi. Avvalo, onomastik birliklar o'z xarakteri bilan oddiy so'zlardan farq qiladi. Atoqli otlarning ko'pchiligi sinxron planda morfemalarga ajralmaydi. Sodda tarkibli nomlar tarkibiga ko'ra birgina lug'aviy asosdan (apellyativdan) iborat bo'lgan birliklardir: Avaz, Avg'on, Araz (daryo nomi) Bonu, Ganja, Dovud, Jayhun, Zuhro, Iso, Idris, Ko'fa, Layli, Mori, Musna, (ilon nomi) Ovshar, Orzu, Palang, Xalap<sup>1</sup>.

**Qo'shma tarkibli nomlar** –Qo'shma tarkibli nomlar birdan ortiq lug'aviy asoslardan hosil bo'ladi. Ularning tarkibida nomning qaysi onomastik guruhga taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi onomastik indikatorlar ishtirok etadi. Masalan, xon ( Avazxon), jon (Qorajon), pari (Oypari), rabot (Qo'shrabot) kabi.

**Murakkab tarkibli nomlar**– Bu tipdagi nomlar qurilishiga ko'ra qo'shma tarkibli nomlar nomlardan farq qilsa ham, hosil bo'lishiga ko'ra, asosan, o'sha tipdagi nomlarga tayanadi. Onomastikaning boshqa sohalarida, jumladan, toponimiya, gidronimiya kabilarda bunday nomlar "sostavli (tarkibli) gidronimlar", "fe'l toponimlar" kabi atamalar bilan nomlanib keladi. III bob yuzasidan xulosa shuki, atoqli otlarning grammatik xususiyatlari tuzilishiga ko'ra turlari bu soha ancha qiziqarli va o'z mutaxassisidan ancha izlanish mehnat talab qiladi. Ilmiy manbalarga tayanib ish ko'radigan bo'lsak, atoqli otlarni sodda tarkibli qo'shma tarkibli va murakkab tarkibli nomlarga bo'linishini ko'ramiz.

III bob yuzasidan xulosa shuki, atoqli otlarning grammatik tuzilishi xususiyatlari ancha qiziqarli. Atoqli otlarning grammatik guruhlari qo'shimchlar va so'zlarning hozirgi va avvalgi holatini ochishga yordam beradi.

Toponimlar strukturasi haqida gap ketganda ilmiy manbalardagi fikrlarni umumlashtiriladigan bo'lsa, o'zbek tilida tub va yasama toponimlar hamda sodda, qo'shma murakkab toponimlarning mavjudligi, ularning tarkibi esa ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe'l shaklida bo'lishi mumkinligini ma'lum bo'ladi.

---

<sup>1</sup>Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси. Тошкент, 2017.

Morfologik jihatdan olib qaraganda, toponimlarning asosiy qismini ot soʻz turkumiga oid soʻzlar tashkil qiladi. Buning sababi shundaki, ibtidoiy holatida boshqa soʻz turkumiga tegishli boʻlgan toponimlar strukturasi ham vaqt oʻtishi bilan soddalanish, qisqartirish, koʻchish kabi jarayonlar sodir boʻladi. Tarkibiy jihatdan tobora ixchamlasha boradigan toponimik qurilma bir soʻzga aylanadi va ot shaklini oladi.

Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlarini oʻrganar ekanmiz bu sohada samarali izlanishlar olib borgan va shu sohaning yetuk zamonaviy tilshunoslikda fidoiy zahmatkashlari chiqqanligini yaqqol koʻrishimiz mumkin. Atoqli otlarni leksik-grammatik guruhlariga ajratish jarayonida shunga guvoh boʻldikki, shu soha qiziqarli sababi nomsiz hech bir narsaning oʻzi yoʻq.

Xullas, atoqli otlarning leksik guruhlarini va grammatik guruhlarini tahlil qilarkanmiz bu soha ancha qiziqarli shu bilan birga oʻz mutaxassisidan yuksak mahorat va bilim koʻnikma oʻz navbatida anchagina izlanish mehnat talab qiladi. Sababi, onomastika tilshunoslik fanining eng koʻzga koʻringan sohasidir.

## **XULOSA**

Ushbu magistrlik dissertatsiyasidan quyidagi xulosalar olindi:

1. Onomastika keyingi yillarda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Ushbu sohaning yirik tadqiqotchilari voyaga yetdi. Onomastika ya'ni atoqli otlarning nazariy masalalariga, geografik obyektlarni hududiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo'lmoqda, doktorlik nomzodlik darajasida dissertatsiyalar yozilmoqda. Lekin shunday bo'lsa ham ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish tahlil qilish tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

2. Bugungi kungacha nomshunoslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar shaklida bo'lgan. Nom va nomshunoslik odamlar ongiga milliylik, milliy manfaat, qadriyat ma'naviyat va ma'rifatni singdiradigan ijtimoiylikka xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga egadir.

3. Nomshunoslikka oid tadqiqotlarni bir butun holda umumlashtirish va ularning umumlashma xulosalari asosida umumiy nomshunoslik masalalari haqida fikr yuritishga imkon yaratish va ularni tadqiq etish lozim.

4. Nomshunoslikni fanda ikkinchi bir termin onomastika deb ham atashadi. Bu ko'proq Yevropa shuningdek rus, qozoq, ozarbayjon, qirg'iz, tatar, turkman olimlarining tadqiqotlarida bayon etilgan. O'zbek tilshunosligi sohasida nomshunoslik alohida bir sohasi bo'lish bilan birga hozirgi zamon ilm-fanining talablaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, barcha xalqlarda nomga nomlanishga munosabat e'tiborda bo'lgani uchun amalda qo'llanilayotgan nomlarni to'g'ri, aniq va xatosiz yozish bu sohadagi ham savodxonlikni ham madaniylikni, ma'rifiylikni ifodalovchi me'yoriy holatlardan biri sanaladi.

5. "O'zbek tilshunosligi" ning asosiy maqsadi - mamlakatimiz hududidagi umumiy hamda xususiy nomshunoslik masalalariga xos bahsli muammolarning ilm-fanning zamonaviy talablariga, asosli va o'rinli yechimlarini topishdan iborat.

6. "O'zbek nomshunosligining dolzarb muammolari bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni o'rganish, o'zlashtirish jarayonida davrning ilm-

fan oldiga va qo‘ygan ilmiy va amaliy talab, taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda geografiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik, falsafa, geologiya kabi bir qancha fanlarning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan.

7. Har bir sohaning o‘z o‘rganish obyektlarini tadqiq etish metodlari bo‘lganidek ”O‘zbek nomshunosligi”da ham qo‘llaniladigan bir qancha metodlar bor. Ularning mazmuni talqinida tilshunoslikka oid dalillarning e‘tiborga olinishi nazardan chetda qolmasligi shart. Nomshunoslik ya’ni onomastika ham tilshunoslikning tadqiqot olib boriladigan bir sohasi sifatida tavsifiy, qiyosiy tarixiy sinxron va diaxron (areal) hududiy metod singari o‘ziga xos metodlar tizimi ishini o‘rganadi. Har bir tilning o‘z atoqli oti va uning ham lug‘aviy va grammatik xususiyat ifodalovchi xususiyatlari bo‘ladi. Atoqli ot so‘z yasallishining har bir tilda o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

8. Atoqli otlarni leksik guruhlari haqida gap ketganda ilmiy manbalardagi fikrlar umumlashtiriladigan bo‘lsa, antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, etnonimlar, teonimlar, kosmonimlar, fitonimlar etnotoponimlari oykonimlar oronimlar eng shu sohalarda ko‘proq samarali izlanishlar olib borilganligini ko‘rishimiz mumkin.

9. Toponimlar strukturasi haqida gap ketganda ilmiy manbalardagi fikrlarni umumlashtiriladigan bo‘lsa, o‘zbek tilida tub va yasama toponimlar hamda sodda, qo‘shma murakkab toponimlarning mavjudligi, ularning tarkibi esa ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe’l shaklida bo‘lishi mumkinligini ma’lum bo‘ladi.

10. Morfologik jihatdan olib qaraganda, toponimlarning asosiy qismini ot so‘z turkumiga oid so‘zlar tashkil qiladi. Buning sababi shundaki, ibtidoiy holatida boshqa so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan toponimlar strukturasi ham vaqt o‘tishi bilan soddalanish, qisqartirish, ko‘chish kabi jarayonlar sodir bo‘ladi. Tarkibiy jihatdan tobora ixchamlasha boradigan toponimik qurilma bir so‘zga aylanadi va ot shaklini oladi.

11. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlarini o'rganar ekanmiz bu sohada samarali izlanishlar olib borgan va shu sohaning yetuk zamonaviy tilshunoslikda fidoiy zahmatkashlari chiqqanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Atoqli otlarni leksik-grammatik guruhlarga ajratish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, shu soha qiziqarli sababi nomsiz hech bir narsaning o'zi yo'q.

12. Xullas, atoqli otlarning leksik guruhlarini va grammatik guruhlarini tahlil qilarkanmiz bu soha ancha qiziqarli shu bilan birga o'z mutaxassisidan yuksak mahorat va bilim ko'nikma o'z navbatida anchagina izlanish mehnat talab qiladi. Sababi, onomastika tilshunoslik fanining eng ko'zga ko'ringan sohasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### **Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Каримов И.А Юксак маънавият енгилмас куч Ташкент, 2009.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Ташкент, 1992.
3. Каримов И.А. Она юртимиз бахти иқболи ва буюк ва келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир. Ташкент, 2015.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент Ўзбекистон 2017.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Анданиёзова Д. Тарихий антропонимлар таҳлили. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2014/ 6-сон.
2. Бартолд В.В. Сочинения, Т.С.Р. Москва 1963.
3. Бегматов Э. Жой номлари маънавият кўзгуси. Тошкент, Маънавият 1998.5-9 бетлар.
4. Бегматов Э. Исм чиройи. Т. Фан 1994.
5. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси 14600 исмлар изоҳи.Т., Ўз. миллий энциклопедия, 1998. 134-б.
6. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. Тошкент. Фан, 2012.
7. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Ташкент. 1991 8-11 бетлар.
8. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
9. Дўсимов З. Хоразм топонимлари Тошкент. Фан 1985 5-37-бетлар.
10. Дўсимов З. Тиллаева М. Топонимика асослари. Тошкент. 2002. 42-43-48 бетлар.
11. Дўсимов З. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва Авесто.Тошкент, Фан, 2012.

12. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 2.
13. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изохли луғати. Т.; Ўқитувчи, 1977.-174 б.
14. Дўсимов З. М. Тиллаева. Жой номларининг сири. Хива 2001.
15. Дўсимов З. Маҳаллий жой номларининг ёзилиши. // Мухбир. Т., 1975 6-сон 29-30 бетлар.
16. Жабборов, Ҳ. Суғориш объектларининг номланиш хусусиятлари ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти 1996, 3-сон.
17. Жўрабова З. Ўсимликлар дунёси билан боғлиқ экология терминлари. Урганч. Илм сарчашмалари. 2016 / 8-сон.
18. Жуманиёзов З. Жой номларининг перифразаси хусусида. Урганч. Илм сарчашмалари. 2016 / 2-сон.
19. Ишаев А. Шимолий Хоразмдаги баъзи топонимик номларнинг этимологияси // Филология масалалари. Т., 1964.-№7, Б.159-163.
20. Кошғарий М. Девону луғатит турк. 3-том. Т: Фанлар академик нашр, 1960. Т. 1-1960-499Б. 2-1961-427-Б. Т.3-1963.-466Б.
21. Каримова Л. Г. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. Т.: Фан, 1982.-б.
22. Комилов Н. Исми шариф // Соҳиб Камол. 505 исм маъноси. Қарши, Насаф, 2004.
23. Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 2 б.84.
24. Мирзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. Москва, 1984.
25. Маҳмудов Н. Ўрозбоев А. Дўсимов З. Ўзбек тили ва Адабиёти журнали 3-сон. 2016.
26. Маҳмудов Рауфжон. Ўзбек тилида авестовий теонимлар. Илм сарчашмари 2014 / 5-сон.

27. Муҳаммаджонов А. Турон геоними ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007.  
№2. 12-16-бетлар.
28. Мирзаев И. Бадиий таржимада киши исмлари ва географик номларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. №5. 70-73-бетлар.
29. Нураддинова Р. Атоқли отларнинг грамматик тузилиши ва ясалишига доир терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, №6
30. Нафасов Т. Ўзбек топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1988.
31. Наимов С. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983.
32. Охунов Н. Жой номлари таъбири. Тошкент, Ўзбекистон. 1994. 54-84-бетлар.
33. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. Тошкент Фан 1989.
34. Ономастика Ўзбекистана 1987 Т. Ўқитувчи 92-б.
35. Ономастика ва Топонимика. Нукус, 2012.
36. Отажонов А. Хоразм этнонимлари. Тошкент; Фан, 1997. 129-б.
37. Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси. Тошкент. Адабиёт учкунлари. 2017. 56-58б.
38. Пазлиддинова Н. Фитоним, фитонимия, фитонимиканинг назарий масалалари. 43-б Урганч 2014.
39. Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: ф.ф.н....дис автореф. Тошкент, 2009.
40. Раҳимов С. Хоразм антропонимларининг баъзи хусусиятларига оид кузатишлар. // Филологик тадқиқотлар. Урганч, 1999.
41. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюрских языков. — Москва: Наука, 1974.

42. Турдибеков М. ‘‘Шажараи турк тилдаги баъзи гидронимларга доир мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1996. 5-сон.
- 43.Тепляшина Т.И.Из патроними каринских татар // Советская тюркология, 1972, 5.
44. Толстов С. П.Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент, 1964. 42. 42.
45. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг гендер хусусиятлари 24 б.
- 46.Улуқов Н. Наманган вилоятидаги ариқ номлари. ЎТА, 2004.
- 47.Эназаров Т. Топонимларни этимологик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-усулий асослари. Тошкент. 2001.
- 48.Эназаров Т., Хусаинова М., Есемуратова А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент, 1951.
49. Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, №1.
50. Ўрозов М. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. 4-сон.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2-томлар. Москва: Рус тили, 1981.
2. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003.
3. Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. Тошкент: Фан 1980.
4. Қораев С. Топонимика Тошкент. 2006.
5. Қораев С. Топонимика- жой номлари ҳақидаги фан. Т Фан. 1980.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2001
7. Хусаинов Н. Антропонимлар ва усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1999, № 6.

#### **Elektron ta’lim resurslari**

- 1.http:// [www.yedu](http://www.yedu.ru) .ru
2. http:// [www.yedu.uz](http://www.yedu.uz)
3. http://[www.yeqworld.ru](http://www.yeqworld.ru)

4. <http://wikipedia.org>
5. <http://www.prepodu.net>
6. <http://www.twirpx.com>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.allpravo.ru>



